O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY

MAXSUS SON



@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120

t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

MUSTAQILLIGIMIZNING
34 YILLIGI

ISSN 3030 - 3230

www.mgjxu.uz

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
ОГЛАВЛЕНИЕ

Национальная гвардия Республики Узбекистан в системе обеспечения общественной безопасности: институционально-правовой анализ **Джураев Р.М.**	3
Tinchlik va xavfsizlik – mamlakat taraqqiyotining muhim omili **Shermatov U.U.**	9
Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda mintaqaviy xavfsizlik va turizm barqarorligini mustahkamlash sohasidagi islohotlar **Mamayusupov S.D.**	13
O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligiga 34 yil: tarixiy ahamiyat, huquqiy islohotlar va taraqqiyot yo‘li **Rustambayev M.X.**	17
Sudlar faoliyati ochiqligining ta’minlanishida elektron odil sudlovni tatbiq etish istiqbollari **Sabirov E.K.**	23
Sud-tergov faoliyatida tezkor-qidiruv faoliyati natijasida to‘plangan dalillardan foydalanishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish imkoniyatlari **Yakubov B.E.**	29
Axborot urushlari-tezkor kommunikatsiya jarayonlari sifatida **Qudratxo‘ja Sh.T.**	32
Нормативно-правовые основы управления безопасностью массовых мероприятий **Тен В.Р.**	38
Mustaqillikning 34 yilligi: uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish orqali terrorizmga qarshi kurash — xorij tajribasi va O‘zbekiston istiqbollari **Sharopitdinov B.B.**	47
Yangi O‘zbekiston sharoitida inson-jamiyatdavlat manfaatlari uyg‘unligini ta’minlashning huquqiy asoslari **Zulfiqorov Sh.X.**	51
Shartnomalar konstruksiyalarida neustoykaning fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakli sifatida namoyon bo‘lishi **Odinayev A.A.**	57
Mustaqillik yo‘lida: jadidchilik va kriminologik qarashlar **Muxitdinov F.M., Axrarov B.Dj.**	63
Mustaqillik islohotlari: inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosati **Muxitdinova F.A.**	68
O‘zbekistonda Ichki ishlar organlar ruxsat berish tizimining zarurati: muammolar va islohotlar tahlili **Ismailov I., Kasimov D.**	73
Kitob diplomatiyasi – Yangi O‘zbekiston madaniy diplomatiyasining muhim yo‘nalishi sifatida **Mirzayev G‘.R.**	79
Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish konsepsiyasining mazmun-mohiyati **Ikanov A.A., Alijonov I.R.**	90
Yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda harbiy psixologlar qo‘llaydigan zamonaviy metodlar **Tursunov B.S.**	94
Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatida SPIN-OUT kompaniyaning o‘rni **Xomidov E.O.**	98
Mamlakat qurolli kuchlar qudrati – tinchlik va xavfsizlik kafolatidir **Akramova Sh.A.**	101
Экономические итоги независимости Узбекистана: 34 года поступательного развития и структурной трансформации **Абдуллаева М.С.**	106
Mustaqillik ne’mati: jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatining muhim belgisi **Rasulova N.S.**	111
Mustaqillik yillarida rivojlangan harbiy sudlov tiziming protsessual tartibga solinishi **Alimov M.I.**	115
Mustaqillik yillarida harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasi masalalariga nazariy tahlil **Olimjonov X.M.**	121
Davlatlar uchun raqamli suverenitetni himoya qilishda kiberxavfsizlikning roli **Xoliqov Sh.A., Xujimov A.X.**	125

Mustaqillik yillarida aholi punktlari yerlarining geneziyasi va huquqiy islohotlarining samarasi
Xolmuminov O.J. 129

Mustaqil O‘zbekistonda jamoat xavfsizligiga oid qonunlar ijrosini ta’minlashda zamonaviy shakl va usul-larni qo‘llashning ayrim masalalari
Azizov E.U. 136

Национальная гвардия независимого Узбекистана: институциональная трансформация и современные функции
Хужамбердиев Ф.К. 142

O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizligini ta’minlashning mintaqaviy yo‘nalishi
Olimov Yu.Yu. 153

O‘zbekistonda jamoat xavfsizligini ta’minlashning konseptual yangilanishi: mustaqillik ruhidagi yangi marralar
Jo‘rayev M.U. 160

O‘zbekiston iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash va barqaror o‘sishini ta’minlashda iqlim o‘zgarishlariga moslashishning ustuvor yo‘nalishlari
Elov A. 164

O‘zbekistonda barqarorlikni ta’minlashda millatlararo munosabatlarning o‘rni
Xomitov R.X. 169

Mustaqillik davri O‘zbekistonda harbiy fanlar sohasidagi islohotlarning falsafiy-epistemologik tahlili
Xudoyqulov Y.A. 173

Ekologik xavfsizlik-davlat mustaqilligining kafolati sifatida
Mirzaabdullayeva M.R. 180

Aholi yashash joylarida xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha aqsh va yevropa davlatlari tajribasining ilmiy tahlili
Alijonov I.R. 184

Mustaqil O‘zbekistonda harbiy xizmat-chilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligi
Nishanov B.T. 190

Yangi O‘zbekiston Italiya e’tirofida: strategik hamkorlik va investitsiyalar almashinuvi
Ergashova B.S. 194

Yangi O‘zbekistonda jamoat xavfsizligi va inson qadri: yangi konsepsiya asosidagi yondashuv
Jo‘rayev M.U., Erkinov J.A. 197

Прокурорский надзор и судебный контроль как гарантии обеспечения принципа законности в деятельности местных органов государственной власти
Дауменов Б.А., Бекполатов Б.О. 202

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi
Ravshanov U.M. 208

Inson huquqlari – Konstitutsiyaviy-huquqiy diskursda oliy qadriyat sifatida
Raxmanov A. 212

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish davlat siyosati: tizimli tahlili, mavjud muammolari va ularning yechimlari
Djaydakbaev F.T. 216

O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi: harbiy ta’limda uua bilan ishlash kompetensiyasini takomillashtirish zarurati
Qodirov T.T. 221

Yangi O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish: muammolar va innovatsion yechimlar
Soatov U.R. 224

Модернизация системы инженерного образования в независимом Узбекистане на основе внедрения симуляционного модуля SDME
Абдуллаева А.О. 227

O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi doirasida jazoni ijro etish tizimidagi islohotlar: insonparvarlik, raqamlashtirish va samaradorlik sari
Axmedov A.A. 232

O‘zbekiston mustaqilligi va huquqiy islohotlar samarasi: elektron braslet orqali masofaviy nazorat tizimi tajribasi
Kamilxanov J.K., Kamolov A.A. 235

Языковое образование в годы независимости Узбекистана
Тригулова Т.А. 239

Межкультурная эмпатия - ключ к миру и безопасности в многонациональном Узбекистане
Землянкина Ю.И. 243

Bojxona organlarning o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish mexanizmini takomillashtirish masalalari
Allambayev J.R. 248

Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar yuzasidan javobgarlikni takomillashtirish masalalari
Tulanbayev N.Sh. 253

O‘zbek tili taraqqiyoti va mustaqillik davrida milliy o‘zlikni anglash jarayoni
Sharipova N.M. 256

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik davri mobaynida jinoyat protsessi sohasida shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki huquqni ijro etish uchun ushlab berishda inson huquqlarining ahamiyati
Nasrullayev F.S. 260

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlanishi masalalari
Rahmonov A.A. 264

Mehnatga oid huquqlarni himoya qilishda kasaba uyushmalarining ishtirokini takomillashtirish
Eshonqulov B.M. 268

MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA HARBIY XIZMATCHILARNING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SAMARADORLIGI

Nishanov B.T.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqil O‘zbekistonda milliy armiyani shakllantirish jarayonida amalga oshirilgan axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, uning mazmun-mohiyati hamda amaliyotdagi samarasi tahlil qilingan. Shuningdek, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, diniy-ma’naviy asoslar va jamiyat bilan armiya o‘rtasidagi munosabatlarning harbiy xizmatchilar ongi va faoliyatiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: milliy armiya, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, tayyorgarlik bosqichlari, vatanparvarlik, individual yondashuv.

KIRISH VA TADQIQOTNING DOLZARBLIGI. Har qanday davlatning barqarorligi, xavfsizligi va suverenitetini ta’minlash Qurolli Kuchlarning asosiy mas’uliyati hisoblanadi. Davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda faqatgina zamonaviy texnika va qurol-aslahalar yetarli emas — bunda harbiy xizmatchilarning yuksak ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy va ruhiy tayyorgarligi alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda jahondagi tez o‘zgaruvchan vaziyat, mintaqaviy nizolar, turli tahdidlar harbiy kadrlardan nafaqat jismoniy va taktik, balki intellektual va axloqiy-ruhiy jihatdan ham yetuklikni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, milliy armiyani yaratish va uni har tomonlama rivojlantirishga asosiy e’tibor qaratildi. Bu jarayonda Qurolli Kuchlarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tashkil etish, harbiy kadrlarning jismoniy, aqliy va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirildi. Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik bevosita harbiy xizmatchining shaxsiyati, ishonchliligi, intizomi hamda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lib, harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylandi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, harbiy xizmatchini axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash — bu muayyan qadriyatlarga asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan va tizimli tarbiya jarayonidir [1]. Bu jarayonda vatanparvarlik, sadoqat, ma’naviy barqarorlik, ruhiy chidamlilik va axloqiy me’yorlarga sodiqlik asosiy mezonlar sifatida qaraladi. Ushbu tarbiya jarayoni nazariy bilimlarnigina emas, balki amaliy mashg‘ulotlar, simulatsiyalangan muhitdagi qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

METODLAR. Ushbu tadqiqot davomida induksiya va dekduksiya, analiz va sintez, tizimli tahlil usullapidan keng foydalanildi. Harbiy hizmatchilarning orasidagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar hamda milliy mentalitetni hisobga olib o‘rgangan olimlarning asarlari tahlil qilingan.

O‘zbekistonda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini milliy mentalitet, tarix va qadriyatlar bilan uyg‘un holda shakllantirish kerakligini ko‘rsatmoqda. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi milliy qahramonlarimiz merosi asosida shakllantirilgan g‘oyaviy-tarbiyaviy tizim “Vatan – muqaddas, uni himoya qilish – sharafli burchdir!” degan shior bilan hamohangdir.

So‘nggi yillarda mazkur sohada qator huquqiy va amaliy choralar ko‘rilmoqda. Xususan, 2018–2025 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturlari doirasida Qurolli Kuchlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Birgina 2024 yilda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni mustahkamlash bo‘yicha 33 mingga yaqin ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish orqali nafaqat harbiy xizmatchilar, balki yoshlar orasida ham vatanparvarlik tuyg‘usi mustahkamlanmoqda. “Jizzax tajribasi” asosida joriy etilgan “Jasorat maktabi” yig‘inlari – tarbiyaviy-amaliy yo‘nalishdagi samarali mexanizm sifatida xizmat qilmoqda[2].

NATIJALAR. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga qaratilgan ijtimoiy himoya choralari ham ruhiy barqarorlikni ta’minlashning muhim qismi hisoblanadi. Masalan, harbiylar farzandlarining oliy ta’lim muassasalariga imtiyozli qabul qilinishi, xizmatchilarning turmush o‘rtoqlari va faxriylarini ish bilan ta’minlash, ularning shaxsiy hayotiga ijobiy ta’sir etib, umumiy tayyorgarlik darajasini oshirmoqda.

Mazkur jarayonni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida B.V. Xasonboyev, Q.A. Shodiyev, B.H.

Xudoyberganov, Sh.Sh. Gulomov, M.S. Turganov va A.T. Islomov kabi o'zbek tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini shakllantirishda yosh davrdan boshlab shaxsiy rivojlanish, qadriyatlar asosida tarbiyalash, psixo-treninglar orqali ishonchni oshirish, stress holatlarida to'g'ri va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirish kabi masalalar yoritib berilgan [3].

Xususan, B.V. Xasonboyev axloqiy-ruhiy tarbiyaning nazariy-pedagogik asoslarini belgilab bergan bo'lsa, Q.A. Shodiyev va Sh.Sh. Gulomovlar psixologik barqarorlik, ishonch va ichki tayyorgarlikni shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilgan. M.S. Turganov va A.T. Islomov esa harbiy qarorlar qabul qilishda axloqiy normalar va ichki hushyorlikni uyg'unlashtirishning samaradorligini ta'kidlagan.

Mazkur yo'nalishda olib borgan amaliy tadqiqotlarimiz asosida tadqiqotlar asosida harbiy xizmatchining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi **quyidagi shartli to'rt bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq** ekani aniqlandi:

1. Harbiy xizmatchini axborot bilan ta'minlash;

2. Shaxsiy qarash va qadriyatlarni shakllantirish;

3. Ekstremal sharoitlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

4. Psixologik barqarorlik va axloqiy immunitetga erishish.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, harbiy shaxsda vatanparvarlik, milliy g'urur va xizmat burchiga hurmat tuyg'usini uyg'otishdagi **ilk va asosiy qadam — bu axborot bilan to'g'ri ta'minlashdir.** Bu bosqichda harbiy shaxsning ongida **milliy g'oya, davlat ramzlari, huquqiy ong va umuminsoniy qadriyatlarga** oid bilim va tasavvurlar shakllantiriladi [4].

Aynan shu bosqichda xizmatchi jismoniy mashg'ulotlarga emas, avval **ruhan tayyorlanadi.** Axborot berishda quyidagi mazmunli yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- O'zbekiston tarixidagi qahramonlik an'analari va milliy armiyaning ulug'vorligi;
- Konstitutsiya va davlat ramzlari haqida huquqiy bilimlar;
- Prezident nutqlari va milliy g'oyani ifoda etuvchi davlat hujjatlaridan iqtiboslar;
- O'zbek xalqi madaniyati, ajdodlar merosi, buyuk tarixiy shaxslar *(Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muxammad Bobur va boshqalar)* hayoti va xizmatlarini tahlil qilish;
- Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi va imtiyozlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ta'kidlash lozimki, axborot faqat nazariy emas, **hissiy ta'sirli va shaxsiy manfaat nuqtai nazaridan maqbul tarzda taqdim etilishi** lozim. Bu xizmatchining ongida "Men nega xizmatdaman?", "Men kim uchun javobgar edim?" kabi savollarga javobni ongli ravishda shakllantirishga yordam beradi [5].

Zarur bo'lgan ma'lumot bilan ta'minlangan harbiy xizmatchida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonining keyingi bosqichi — bu **shaxsiy munosabat va qarashlarni shakllantirishdir.** Bu bosqichda xizmatchi olgan axborot asosida **ongli tanlov, shaxsiy pozitsiya va qadriyatlarni** shakllantiradi. Boshqacha aytganda, u axborotni singdiradi, tahlil qiladi va unga asosan o'z ichki fikrini qurishga kirishadi.

Harbiy xizmatchida bu bosqich orqali quyidagi fazilatlar rivojlanadi[6]:

- Vatan va xalq oldidagi shaxsiy mas'uliyat tuyg'usi;
- Xizmat burchiga ma'naviy yondashuv, uni faqat vazifa emas, balki **ijtimoiy vazifa** sifatida anglash;
- Sadoqat, burch, muhabbat, fidoyilik kabi shaxsiy e'tiqod asosidagi qadriyatlar.

Ushbu bosqichda ta'lim-tarbiya jarayoni interaktiv usullar, faol muloqot va tafakkurni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Chunki faqat axborot bilan ta'minlash va shaxsiy qarashlarni shakllantirish bilan chegaralanmay, xizmatchini ongli, ishonchli va mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalash zarur. Mazkur bosqich harbiy xizmatchini yetakchi sifatida shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatning murakkab va tez o'zgaradigan sharoitlarda olib borilishi, xizmatchidan nafaqat axloqiy, balki ruhiy va intellektual tayyorgarlikni ham talab qiladi [7]. Shu bois, tayyorgarlikning keyingi bosqichi — ekstremal vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu bosqichda xizmatchi murakkab, ziddiyatli va xavfli holatlarda sarosimaga tushmasdan harakat qilish, axloqiy me'yorlardan chetga chiqmagan holda qaror qabul qilish, shuningdek, o'zini va atrofdagilarni muhofaza qilishda boshqaruvchi sifatida tashabbus ko'rsata olish qobiliyatini o'zlashtiradi.

Bunday tayyorgarlikni amalga oshirishda simulatsion mashg'ulotlar, keys-tahlillar, stress-sharoitli treninglar, real hayotga yaqinlashtirilgan vaziyatlardagi amaliyotlar keng qo'llaniladi. Bu orqali xizmatchida tahlil qilish, emotsiyalarni boshqarish, tez va asosli qaror qabul qilish, shu bilan birga, ichki barqarorlikni saqlash qobiliyati shakllanadi. Bunday tarzdagi tayyorgarlik uning

na faqat xizmat faoliyati, balki shaxsiy rivojlanishi uchun ham mustahkam asos bo‘ladi [9].

Ushbu bosqichda ta’lim-tarbiya jarayoni interaktiv usullar, faol muloqot va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar asosida tashkil etilishi zarur. Axborot bilan ta’minlash va shaxsiy qarashlarni shakllantirish bosqichlari xizmatchini nazariy jihatdan tayyorlaydi, ammo u faqatgina bilimga ega bo‘lish bilan cheklanmaydi, balki mazkur bilimlarni amalga tatbiq eta olish qobiliyati ham shakllanishi lozim. Shu bois, bu bosqich harbiy xizmatchini ishonchli, mas’uliyatli va yetakchi shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur bosqichda xizmatchining shaxsiy faolligi, ijtimoiy mas’uliyatini anglash qobiliyati va jamoaviy hamkorlik salohiyati rivojlantiriladi.

Harbiy xizmat tabiatiga xos bo‘lgan murakkablik va tez o‘zgaradigan sharoitlar esa mazkur tayyorgarlikni yanada kengaytirishni taqozo etadi. Chunki harbiy faoliyat doimo turli ekstremal vaziyatlar, ziddiyatli holatlar va kutilmagan tahdidlar ostida amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan harbiy xizmatchidan nafaqat axloqiy barqarorlik, balki ruhiy va intellektual jihatdan ham tezkor, mantiqiy va samarali qaror qabul qilish qobiliyati talab qilinadi. Bu talabni amalga oshirish maqsadida axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning navbatdagi bosqichi – ekstremal vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Ushbu bosqichda xizmatchini qiyin, ziddiyatli yoki xavfli vaziyatlarda ruhiy buzilishlarga yoki sarosimaga tushmasdan tez va aniq harakat qilishga tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yiladi. Xizmatchi axloqiy normalar va umumiy ma’naviy me’yorlardan chetga chiqmagan holda murakkab vaziyatlarda munosib qaror qabul qilishga o‘rgatiladi. Shu bilan birga, u o‘zini va jamoadagi boshqalarni muhofaza qilishda tashabbuskorlik ko‘rsatish, boshqaruvchi faol shaxs sifatida faoliyat yuritish salohiyatini shakllantiradi.

Bunday tayyorgarlik jarayonida simulatsion mashg‘ulotlar, ssenariylar asosidagi keys-tahlillar, stress-sharoitda amalga oshiriladigan treninglar hamda real hayotdan olingan holatlarga o‘xshash vaziyatlardagi amaliy mashg‘ulotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullar xizmatchini nazariy bilimlardan amaliyotga o‘tishga yo‘naltiradi, ruhiy chidamlilik va qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi. Treninglar orqali xizmatchi o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishni, stressga qarshi turishni va tezkor tahlil qilishni o‘rganadi. Natijada u nafaqat shaxsiy psixologik barqarorlikni, balki jamoa, bo‘linma va butun harbiy kuchning ma’naviy immunitetini saqlashga ham hissa qo‘shadi.

Shu tariqa, mazkur bosqichda shakllantiriladigan ko‘nikmalar va ruhiy xususiyatlar harbiy xizmatchining xizmat samaradorligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda muhim omildir. Ular orqali harbiy xizmatchi nafaqat o‘z vazifasini a’lo darajada bajaradi, balki jamoa uchun ham mustahkam ruhiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa armiyaning umumiy ma’naviy salohiyati va harbiy kuch sifatida samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini tashkil etishda so‘nggi va eng muhim bosqichlardan biri – bu psixologik barqarorlik va axloqiy immunitet shakllanishidir. Mazkur bosqich harbiy xizmatchining ruhiy yetukligi, ma’naviy barqarorligi, xizmat burchiga sidqidildan munosabati va javobgarlik hissining yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Axloqiy-ruhiy immunitet bu – harbiy shaxsning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turishi, o‘z shaxsiy pozitsiyasini yo‘qotmasdan, burchini ado etishga intilishini ta’minlovchi muhim ichki mexanizmdir.

Psixologik barqarorlikka ega xizmatchi nafaqat xizmat vazifalarini bajarishda, balki murakkab, ziddiyatli va ekstremal sharoitlarda ham o‘zini nazorat qila oladi, emotsional barqarorlikni saqlaydi, xavfli holatlarda to‘g‘ri va ma’naviy jihatdan asoslangan qaror qabul qiladi. Uning shaxsiy pozitsiyasi, fikrlash qobiliyati, burch va vijdon tushunchasi qat’iy shakllangan bo‘ladi. Bu holat harbiy xizmatchining mustaqil shaxs sifatida kamol topganligidan dalolat beradi.

Ushbu bosqichdagi tayyorgarlikning mazmuni xizmatchining ma’naviy-axloqiy salohiyatini yanada rivojlantirish, uni turli mafkuraviy, axborot va psixologik tahdidlarga qarshi bardoshli shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi. Xizmatchi tashqi ta’sirlarga bo‘ysunmasligi, o‘z mavqeini saqlab qolishi va tanqidiy tafakkur asosida to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishi uchun unda mustahkam ichki qadriyatlar tizimi bo‘lishi shart.

Bu jarayonda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, psixologik mashg‘ulotlar, kasbiy salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan amaliy treninglar va shaxsiy motivatsiya elementlari muhim o‘rin tutadi. Jumladan, xizmatchining milliy tarix, davlat ramzlari, umuminsoniy qadriyatlar, Prezident nutqlari va davlat siyosati bilan bog‘liq bilimlari doimiy ravishda yangilanib borilishi lozim. Uning shaxsiy munosabati, javobgarligi va xizmatga munosabati muntazam ravishda tahlil qilinishi va zarur hollarda tuzatish kiritilishi kerak.

Shuningdek, xizmatchining axloqiy immunitetini shakllantirishda rahbar tarbiyachi ofitserlar, bo‘linma komandirlari va psixologlar

bilan tizimli ish olib borish juda muhim. Jamoaviy muhitda ijobiy munosabat, o‘zaro hurmat, ishonch va ahillik muhitini yaratish ham xizmatchining ruhiy barqarorligi uchun katta ahamiyatga ega. Bunday muhitda faoliyat yuritayotgan shaxs o‘zini xavfsiz, qadrlangan va ishonchli his qiladi, bu esa uning ichki hissiyotlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik barqarorlik va axloqiy immunitetga erishgan xizmatchi nafaqat xizmatni yuqori darajada bajaradi, balki jamoa oldida ham namunaviy shaxs sifatida e’tirof etiladi. U jamiyat va armiya o‘rtasida ma’naviy ko‘prik vazifasini bajaradi, o‘z bilimi va tajribasi orqali yosh xizmatchilarga ta’sir ko‘rsatadi, ularni tarbiyalashda faol ishtirok etadi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda milliy armiya safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini ta’minlash davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgani yuqori samaralar berayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Davlat rahbarining ushbu masalaga qaratayotgan alohida e’tibori tufayli harbiylarning ma’naviy-axloqiy yetukligi, vatanparvarlik hissi va mas’uliyat tuyg‘usi tobora yuksalmoqda.

Milliy armiyamizning xalqaro miqyosdagi musobaqalarda yuqori natijalarni qo‘lga kiritayotgani — bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va samarali tayyorgarlik ishlarining yorqin ifodasidir. Jumladan, 2024 yilda Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-jangovar tayyorgarlik musobaqasida O‘zbekiston harbiylar jamoasining birinchi o‘rinni egallashi, hamda “Xalqaro armiya o‘yinlari”da muntazam ravishda faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritayotgani mamlakatimiz armiyasining yuksak salohiyati va tayyorgarligidan dalolat beradi[12].

Shu o‘rinda, davlat tomonidan harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy barkamolligini ta’minlash, ularning bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kelgusida ham milliy armiyamizning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Bu esa, o‘z navbatida, Vatanimiz tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Аннотация: В данной статье проанализированы морально-психологическая подготовка, проводимая в процессе формирования национальной армии независимого Узбекистана, её содержание и эффективность на практике. Также раскрыто влияние патриотизма, национальных ценностей, духовно-религиозных основ и взаимоотношений между обществом и армией на сознание и деятельность военнослужащих.

Ключевые слова: национальная армия, морально-психологическая подготовка, этапы подготовки, патриотизм, индивидуальный подход..

Annotation: This article analyzes the moral and psychological training implemented during the formation of the national army in independent Uzbekistan, examining its content and practical effectiveness. It also explores the impact of patriotism, national values, spiritual and religious foundations, and the relationship between society and the army on the consciousness and activities of military personnel.

Key words: national army, moral and psychological training, stages of preparation, patriotism, individual approach.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мақҳаб К. Махсус вазифа бажарувчи бўлинмаларнинг психологик тайёргарликги – Т.: “Ғ.Ғулом” 2006. – Б. 184
2. https://kun.uz/kr/news/2025/01/14/harbiy-xizmatchilar-ortasidagi manaviy tadbirlar
3. Мирзаев А. Ўзбекистон армиясининг маънавий асослари. – Тошкент, 2022. Б.218
4. Шодиев Қ.А. Жисмоний ва руҳий тайёргарликнинг психологик асослари. https://arm.ssuv.uz/frontend/web/books/6400335d5068f.pdf
5. Худойберганов Б.Х. Ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий-руҳий тайёргарлигини ривожлантириш https://ares.uz/storage/app/media /2021/Vol_ 2_No_11/1416-1426.pdf
6. Гуломов Ш.Ш. Психология ва ахлоқ https://kitobxon.com/ru/ yozuvchi/sherzod-gulomov
7. Исломов А.Т. Ҳарбийлар учун психология ва ахлоқий тайёргарлик https://assets.slib.uz/edition/file/5df927146c66a.pdf
8. Халилов Б. Миллий ғоя ва маънавият асослари– Т.: ТДЮУ 2021. – Б.65
9. Psychological Resilience in Modern Armies — NATO Research Paper.

YANGI O‘ZBEKISTON ITALIYA E’TIROFIDA: STRATEGIK HAMKORLIK VA INVESTITSIYALAR ALMASHINUVI

Ergashova Baxora Sayfillo qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik tushunchasining xalq va davlat hayotidagi ahamiyati ochib berilgan. Mustaqillik har qanday millatning taraqqiyoti uchun muhim omil ekanligi ko‘rsatilgan. Yurt tinchligini saqlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralib, xalqaro maydonda O‘zbekistonning roli va mustaqillikni asrab-avaylashdagi strategiyalarga urg‘u beriladi. Shuningdek, O‘zbekistonning Italiya bilan har tomonlama rivojlanayotgan hamkorligi keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, tinchlik, strategik hamkorlik, Italiya va O‘zbekiston munosabatlari, turizm, investitsiyalar.

“Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash bugun ham, kelajakda ham eng ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi. Chunki faqatgina tinchlik-osoyishtalik mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishining asosiy kafolatidir”

Sh.Mirziyoyev

Mustaqil so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, u “mu” (faol qo‘shimcha), “staqla” (to‘xtamoq, o‘z holida turmoq, bog‘liq bo‘lmaslik) negizidan tashkil topgan. Arab tilida “istaqalla” deganda “o‘z holida turmoq”, “mustaqil bo‘lmoq” ma’nolari tushuniladi. O‘zbek tilida mustaqil so‘zi “o‘z kuchi, o‘z qarori bilan harakat qiluvchi”, “bog‘liq bo‘lmagan”, “erkin” degan ma’noni anglatadi. So‘zning oxiriga -lik- qo‘shimchasi qo‘shilib, mustaqillik so‘zi hosil bo‘ladi, bu so‘z esa “mustaqil bo‘lish holati, darajasi, vaziyati” ma’nosini beradi. Mustaqillik har bir xalqning, millatning, har bir fuqaroning o‘z iste’dodi va imkoniyatlarini erkin tarzda namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘l ochadi. Mustaqillik oliy ne’mat ekanligini qayta-qayta ta’kidlasakda, uning qadr-qiymatini baholashimiz uchun zaminning boshqa bir hududlarida sodir bo‘layotgan ayovsiz urushlar va notinchliklardan xulosa chiqarishimiz, ongli ravishda vaziyatlarni to‘g‘ri baholay olishimiz kerak. Har safar duoga qo‘l ochganimizda, oilamizda an’anaviy tarzda aytiladigan bir jumla bor:”Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo‘lsin”. Bolaligimizdan tilimizga joylangan, yodlangan bu jumlalar ma’nosini ulg‘ayib, biroz borliqni tanigach, tushunib yetmoqdamiz. Yurt tinch bo‘lmas ekan, xalqda halovat bo‘lmaydi; taomda maza, uyquda osoyishtalik, ro‘zg‘orda baraka bo‘lmaydi. Yurtning tinchligini saqlash davlatning bosh maqsadlaridan biri sanaladi. Bu yo‘lda davlatlar o‘zaro do‘stlik munosabatlarini mustahkamlashga intiladilar, tinchlikni targ‘ib qiluvchi turli xalqaro tashkilotlar faoliyatlari yo‘lga qo‘yiladi, xullas har bir davlat xalq manfaati va tinchligi yo‘lida bor imkoniyatlarini ishga soladi. Bugungi kunda O‘zbekiston ham xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega, shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Mamlakatimiz mustaqillikning ilk yillaridayoq, ya’ni 1992-yil 2-mart kuni Birlashgan millatlar tashkilotiga a’zo bo‘ldi. Bundan tashqari, O‘zbekiston “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi”, “Shanxay hamkorlik tashkiloti”, “Islom hamkorlik tashkiloti” kabi qator nufuzli tashkilotlarga a’zo sanaladi. Mustaqillik-tarixiy voqelik bo‘lib, uni asrab-avaylash kuchli siyosat va mustahkam iroda talab qiladi. Tinchligimizga nafaqat tashqi kuchlar, ba’zan ichki omillar ham xavf solishi mumkin. Bunday voqealar yaqin tarixda bir necha bor sodir bo‘lganligini, niyati buzuq kimsalar yurt tinchligi va xalq hayotini xavfga qo‘yganligini barchamiz guvohi bo‘lganmiz. Agar biz ahil bo‘lsak, el-yurt manfaati yo‘lida bir tan-u bir jon bo‘lib yashasak, o‘zimizdan sotqin chiqmasa, o‘zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.[1] Shunday ekan, barchamiz yurt tinchligi uchun mas’uliyatni zimmamizga olishimiz shart. Bugungi kunda yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan O‘zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshirish, chegaralar xavfsizligini ta’minlash, xalq farovonligini yaratish maqsadida kuchli siyosiy jarayonlar amalga oshirilmoqda: Biz, avvalo, Birinchi Prezidentimiz har tomonlama asoslab bergan, tub negizida “Bizga tinchlik va omonlik kerak” degan g‘oya mujassam bo‘lgan O‘zbekistonning tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo‘lni izchil davom ettiramiz.[2]Bu esa, butun dunyo mamlakatlari tomonidan ijobiy baholanmoqda.

Ular qatorida mamlakatimiz mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan, Yevropaning rivojlangan davlatlaridan biri hisoblangan Italiya Respublikasining borligi, albatta, quvonarli holat hisoblanadi. Italiya O‘zbekiston mustaqilligini 1992 yil 10 yanvarda tan olgan. O‘sha yildanoq Toshkentda Italiya elchixonasi ish boshlagan bo‘lsa, O‘zbekistonning Rimdagi diplomatik vakolatxonasi 1998 yilda ochilgan. Florensiyaning Toskana va Umbriya regionlarida 2021 yildan, 2023 yildan esa Milanning Lombardiya va Liguriya regionlarida O‘zbekiston faxriy konsulliklari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning 1-prezidenti Islom Karimov 1996 - 2000 yillarda Italiyaga tashrif buyurgan bo‘lsa, 1997 yilda Italiya prezidenti Oskar Skalfaro hamda o‘sha yili Italiya bosh vaziri Romano Prodi O‘zbekistonga kelgan. So‘nggi yillarda Italiya va O‘zbekiston hamkorlik munosabatlari turli sohalarda mustahkamlanib bormoqda. Xususan, prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Italiya Respublikasiga tashrifi hamda Italiya Respublikasi prezidenti S.Mattarella hamda bosh vazir J. Melonilarning O‘zbekistonga tashriflari munosabatlarning har sohada rivojlanib borayotganligidan dalolatdir. O‘zbekiston xalqaro huquq subyekti sifatida o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda va xalqaro norma ijodkorligining faol ishtirokchisi va yangi xalqaro shartnomalarning tashabbuskori sifatida maydonga chiqmoqda.[3] Joriy yilning may oyida Italiya Respublikasi bosh vaziri J.Meloni O‘zbekistonga tashrifi doirasida quyidagi jumlalarni alohida ta’kidlab o‘tdi: *Uzbekistan è un partner molto, molto importante. Le nostre sono relazioni solide, eccellenti già da molto tempo. Già dal 2023 abbiamo cercato di portarle ad un altro livello con il partenariato strategico e ora con il tentativo di rafforzare ancora di più il partenariato.* (O‘zbekiston biz uchun juda-juda muhim hamkor sanaladi. Bizning munosabatlarimiz uzoq yillardan beri mustahkam va samaralidir. 2023-yildan boshlab biz bu munosabatlarni strategik hamkorlik orqali yangi bosqichga olib chiqishga harakat qildik va hozir esa bu hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilyapmiz). *“Le materie su cui cooperare in modo rafforzato - ha sottolineato - sono moltissime e sono molto contenta del fatto che siamo stati molto concreti nella volontà di mettere in campo su tutte le materie prioritarie un lavoro, che a partire da oggi, si farà sempre più concreto e cadenzato».[4]* (“Hamkorlikni kuchaytirish mumkin bo‘lgan sohalar juda ko‘p, deya ta’kidladi u,-va men shundan juda mamnunmanki, biz ustuvor yo‘nalishlarning barchasida aniq amaliy ishlarni boshlashga qat’iy qaror qilganmiz. Bugundan boshlab bu ishlar yanada aniqroq va tizimli tarzda amalga oshiriladi.”). Bu jumlalardan shuni anglash mumkinki, mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik yuqori darajaga ko‘tarilib bormoqda. Hozirda qaysi bir sayyohlik obyektiga bormaylik, kichik va katta guruhlardan iborat italyan sayyohlariga ko‘zimiz tushadi. Italiyaning Milan va Rim kabi shaharlariga O‘zbekiston havo yo‘llarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnovlari yo‘lga qo‘yilganligi ham, turizm sohasining rivojlanganligini tasdiqlaydi. Italiyalik sayyohlar yurtimizning boy tarixi va madaniyatini yuksak baholash bilan birgalikda, xalqimizning ochiq yuzli ekanligi, mehmondo‘stligi, ko‘chalarimizning ozodaligi, ayniqsa, kun-u tun xotirjamlik va osoyishtalik hukmronligini alohida e’tirof etadilar. Qator italyan siyosatshunoslari O‘zbekistonning ochiqlik siyosatini qadrlaydilar. Italiya bilan hamkorlik nafaqat turizm sohasida, balki, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, qurilish, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, ta’lim kabi boshqa muhim sohalarda ham rivojlanib bormoqda. Hamkorlikning yana bir muhim bosqichi 12-13 iyun kunlari Samarqandda o‘tkazilgan birinchi O‘zbekiston-Italiya Mintaqaviy Forumi bo‘ldi. Unda Lombardiya kompaniyalari innovatsiya, barqarorlik va texnologiya transferiga bag‘ishlangan B2B uchrashuvlarda ishtirok etdi. Belgilangan ustuvor sohalar – qayta tiklanadigan energiya, agro sanoat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va madaniyat sohalari bo‘lib, shuningdek, turizmni rivojlantirishga oid tashabbuslar ham yo‘lga qo‘yildi. Ushbu forum 2025-yil 28-29 may kunlari O‘zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif bilan kelgan Bosh vazir J.Melonining tashrifi davomida imzolangan kelishuvlarning amaldagi ijrosi bo‘ldi. Bu kelishuvlar natijasida energetika, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi va muhim xom ashyo sohalarida 3 milliard yevrodan ortiq umumiy loyihalar imzolandi. Ramziy ma’noda, Samarqandda Rim shahriga hurmat sifatida shahar ko‘chalaridan biriga “Rim ko‘chasi” (Via Roma) deb nom berildi, bu ikki tomonlama munosabatlarning yanada mustahkamlanishini ifodalaydi. Qolaversa, 2025-yil 29-may kuni Samarqandda Italiya va O‘zbekiston o‘rtasida migratsiya sohasida anglashuv memorandumi rasmiy imzolandi. Bu ikki mamlakat o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash yo‘lidagi muhim

qadam hisoblanadi. Memorandum strategik sohalarda hamkorlikni kuchaytirishni maqsad qilgan, jumladan:

-Migratsiya oqimlarini tartibli va xavfsiz boshqarish,

-Mehnat, ta’lim va malaka oshirish maqsadida qonuniy harakatlilikni targ‘ib qilish,

-Noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashish,

-Mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish.

Italiya 2025-yil uchun “Migratsiyani tartibga solish” farmoniga asosan, O‘zbekiston fuqarolari uchun mavsumiy bo‘lmagan ish uchun 500 nafar, mavsumiy ish uchun esa 750 nafar kirish kvotasini ajratishi kiritildi. Keyingi yillarda esa kirish soni mehnat bozorining talablariga qarab belgilanishi ko‘zda tutilgan. Bu kelishuv orqali Italiya va O‘zbekiston o‘zaro manfaatli, muvozanatli migratsiya modelini yaratishga intilmoqda, bu esa mehnat imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, noqonuniylikka qarshi kurash va inson huquqlarining hurmat qilinishini ta’minlaydi.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, Italiya va O‘zbekiston hamkorlik munosabatlari yildan-yilga kengayib, mustahkamlanib bormoqda. Bugun O‘zbekistonni nafaqat Italiya balki, Germaniya, Fransiya, Avstriya kabi qator Yevropa mamlakatlari o‘zining strategik hamkori sifatida ko‘rishadi. Bu natijalar ortida xalq irodasi, davlat boshlig‘ining kuchli bilimi va teran siyosati yotadi. Tinchligimizni, mustaqilligimizni doimo qadrlaylik, zero ularsiz kunimiz tunga, quvonchimiz g‘amga, yorug‘lik esa zulmatga o‘rnini bo‘shatadi.

Аннотация. В статье раскрывается значение понятия независимости в жизни народа и государства. Показано, что независимость является важным фактором развития любой нации. Рассматривается сохранение мира в стране как приоритетное направление государственной политики, подчёркивается роль Узбекистана на международной арене и стратегии по сохранению независимости. Также подробно освещается всесторонне развивающееся сотрудничество Узбекистана с Италией.

Ключевые слова: Независимость, мир, стратегическое сотрудничество, отношения между Италией и Узбекистаном, туризм, инвестиции.

Abstract. The article explores the significance of the concept of independence in the life of the people and the state. It is shown that independence is an important factor in the development of any nation. The preservation of peace in the country is considered a priority direction of state policy, with emphasis placed on Uzbekistan’s role on the international stage and the strategies for safeguarding its independence. The article also provides a detailed overview of the comprehensive and growing cooperation between Uzbekistan and Italy.

Key words: Independence, peace, strategic cooperation, relations between Italy and Uzbekistan, tourism, investments.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov, “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”: Toshkent-2016y, 122-123-betlar.
2. Sh.Mirziyoyev, “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”: Toshkent-2017y, 83 b.
3. Sh.Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”: Toshkent-2023y, 59-60 betlar.
4. RaiNews.it rasmiy veb sayti
5. Kun.uz rasmiy veb sayti

YANGI O‘ZBEKISTONDA JAMOAT XAVFSIZLIGI VA INSON QADRI: YANGI KONSEPSIYA ASOSIDAGI YONDASHUV

Jo‘rayev Muhiddin Utkurovich,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ekinov Jahongir Asqarjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya
Toshkent shahar bo‘yicha boshqarmasi katta ofitseri

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta’minlashda yangi mexanizmlar va tamoyillar, davlat va jamoatchilik hamkorligi, mualliflik takliflarining inobatga olingan va qabul qilinmagan jihatlari to‘g‘risida hamda amaldagi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan qoidalarning ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Jamoat xavfsizligi, konsepsiya, farmon, davlat siyosati, inson qadri, hamkorlik, tahlil, shaxs, erkinlik, jamiyat va xavfsizlik, huquq, konsepsiya, tasnif, ta’rif.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirish hamda ushbu sohadagi davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash maqsadida 2021-yil 29-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni qabul qilingan.

Mazkur Farmonda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi, jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi, shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklayotganligi qayd etilgan.

Ushbu Farmon bilan 5 ta bob 24 ta banddan iborat O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlangan.

E’tirof etish joizki, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida mualliflar (A.I. Ikramov, S.N. Gordeyev, B.M. Muminov, I.Yu. Fozilov, G‘.X. Qutbiddinov, U.N. Mengliyev) tomonidan mualliflik taklifi tariqasida ishlab chiqilgan konsepsiya loyihasining aksariyat qismi inobatga olingan, shuningdek, ularning ayrim takliflari ma’qullanmagan.

Shu o‘rinda, ushbu mualliflarning inobatga olingan takliflari va ma’qullanmagan takliflarini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan yangi qoidalarni tizimli tahlil qilish zarurati mavjud.

Ta’kidlash joizki, mualliflar (A.I. Ikramov, S.N. Gordeyev, B.M. Muminov, I.Yu. Fozilov, G‘.X. Qutbiddinov, U.N. Mengliyev) tomonidan mualliflik taklifi tariqasida ishlab chiqilgan konsepsiya loyihasidagi quyidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida inobatga olingan:

– jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari;

– jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati asosiy tamoyillari;

– jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlar tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining jamoat xavfsizligi

sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati organlarining jamoat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari tizimi;

– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish tartibi;

– O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirish shakllari tizimi;

– O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar tizimi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamoat xavfsizligi tushunchasi kontekstida himoya qilinadigan obyekt sifatida mualliflar (A.I. Ikramov, S.N. Gordeyev, B.M. Muminov, I.Yu. Fozilov, G‘.X. Qutbiddinov, U.N. Mengliyev) «shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik, insoniyat xavfsizligi»ni ko‘rsatgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida «jamiyat» belgilangan.

O‘ylashimizcha, bu borada ikkala yondashuvni ham to‘liq qo‘llab-quvvatlab bo‘lmaydi. Chunki, birinchi yondashuvda jamoat xavfsizligi tushunchasi kontekstida himoya qilinadigan obyektning doirasi juda keng bayon etilib, o‘z ichiga milliy xavfsizlikning boshqa tarkibiy qismlari (shaxs xavfsizligi, davlat xavfsizligi) elementlarini ham qamrab olgan.

Tahlillarga ko‘ra, jamoat xavfsizligi tushunchasining ta’rifi bo‘yicha quyidagi mualliflik qarashlari ilgari surilgan:

1) Ye.A. Drojjinaning tadqiqotlarida jamoat xavfsizligi jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar ekanligi, uning himoya obyekti – jamiyat (jamiyat xavfsizligi) hisoblanishi asoslangan[1];

2) S.V. Nesterovning tadqiqotlarida esa, jamoat xavfsizligi deganda, jamiyatning g‘ayrihuquqiy tavsifdagi tahdidlardan himoyalanganlik holati tushunilishi isbotlangan[2];

3) B.P. Kondrashovning fikriga ko‘ra, jamoat xavfsizligi – ijtimoiy xavfsizlikning bir turi sifatida, shaxsning xavfsizligini, jamoat osoyishtaligini, fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun qulay shart-sharoitlarni, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning jinoiy va boshqa g‘ayriqonuniy qilmishlardan kelib chiqadigan tahdiddan, yuqori xavfli manbalardan, erkin fuqarolik muomalasidan chiqarilgan predmetlar va moddalardan foydalanish tartibini buzishdan, shuningdek ijtimoiy, tabiiy, texnogen xususiyatga ega bo‘lgan salbiy hodisalardan va boshqa alohida holatlardan normal faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida huquqiy normalar bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi[3];

4) A.M. Voronovning ta’kidlashicha, xavfsizlik tushunchasi xavfsizlikning umumilmiy nazariyasi tarkibidagi asosiy tushunchaviy kategoriya sifatida ta’riflanib, jamoat, axborot va boshqa turdagi xavfsizlikni ta’minlash muammolarini o‘rganishning metodologik asosi bo‘lib xizmat qiladi[4];

5) G.V. Ishukning fikriga ko‘ra, “Jamoat xavfsizligi deganda, davlat, jamiyat va shaxsning ijtimoiy muhim manfaatlari himoyalanganligi holati tushunilishi lozim. Jamoat tartibi jamoat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan jarayondir”[5];

6) N.A. Bosxamdjiyevaning tadqiqotlarida jamoat xavfsizligiga milliy xavfsizlikning ajralmas qismi, ijtimoiy guruhlar va odamlar muloqoti, inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, jamiyatning boshqa qonuniy manfaatlarini tashkil etishning asosini tashkil etuvchi moddiy va ma’naviy qadriyatlarning g‘ayriqonuniy xatti-harakatlar, texnogen va tabiiy xususiyatga ega bo‘lgan zararli hodisalar, ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarga tahdid soluvchi boshqa omillar va shart-sharoitlardan himoyalanganlik holati sifatida qarash taklif etilgan[6];

7) L.P. Volkovaning fikriga ko‘ra, jamoat xavfsizligi – ijtimoiy munosabatlarning tahdidlardan himoyalanganligidir[7];

8) I.Yu. Makarchevning ta’kidlashicha, jamoat xavfsizligi tushunchasi shaxs, jamiyat va davlatning hayot faoliyati, davlat va munisipal hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari (birlashmalari)

va fuqarolarning xavfsiz faoliyat yuritishi, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquq normalari bilan himoyalanganlik holatini ifodalaydi[8];

9) R.A. Romanovning fikriga ko'ra, jamoat xavfsizligi barcha fuqarolarga, istisnosiz, tug'ilishdan to umrining oxirigacha tegishli. Jamoat xavfsizligi ham huquq normalari, ham boshqa ijtimoiy va texnik normalar bilan tartibga solinadi[9];

10) P.V. Minenkoning qayd etishicha, jamoat xavfsizligining jinoyat-huquqiy tushunchasi davlat tomonidan qo'riqlanadigan, jamoat institutlarining faoliyatko'rsatishinita'minlaydiganvajamiyatning normal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zaruriy sharti bo'lgan obyektlarning zarur yoki yetarli darajada himoyalanganligi bilan bog'liq[10];

11) D.A. Korotchenkovning fikriga ko'ra, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlik tizimining eng muhim elementlari hisoblanadi[11];

12) M.I. Agabalayevning qayd etishicha, jamoatxavfsizligi–bujamiyatvadavlatningjamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi faoliyatini tashkil etish, davlat va jamiyat institutlarining me'yoriy ishlashi, inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishni tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning himoyalanganlik holatini ifodalaydi[12];

13) Ya.N. Radyushinning ta'kidlashicha, jamoatxavfsizligi davlat va shaxsiy xavfsizlik bilan birgalikda milliy xavfsizlikning mazmunini tashkil etadi, shu bilan birga uning xavfsizlik obyekti belgisiga ko'ra sezilarli darajada farqlanadigan turlari hisoblanadi. Bunda davlat xavfsizligining obyekti davlat, jamoat xavfsizligining obyekti jamiyat va shaxs, shaxsiy xavfsizlikning obyekti esa tashkilotlar va shaxsdir. Obyektlarni aniqlashtirish ushbu tarzda bo'lishining sababi shundaki, davlat va jamiyat, davlat va shaxs xavfsizligi kabi masalalarni hal qilishda ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lsa-da, jamiyat xavfsizligini ta'minlash shaxsni himoya qilmasdan, uning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash maqsadlari, vazifalari va tamoyillarini to'g'ri tushunish uchun zarur bo'lgan aynan shu shart, uning obyektlari qatoriga jamiyat bilan bir qatorda shaxsning ham kiritilishini ta'kidlaydi[13];

14) A.A. Varguzovaning fikriga ko'ra, jamoat xavfsizligi – jamiyatning o'z hayotiy muhim manfaatlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini ta'minlovchi himoyalanganlik holati, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat hayotiy faoliyati jarayonida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar holati[14].

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchasi borasida mahalliy olimlarning quyidagi fikrlari e'tiborga sazovordir:

1) M.X. Rustambayevning ta'kidlashicha, "Jamoat xavfsizligini ta'minlash fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, tadbirkorlarning manfaatlarini himoya qilish va boshqa shu kabi muhim masalalar bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalga oshirishda ifodalanadi"[15];

2) K.A. Haydarov va M.A. Saminjonovlar fikriga ko'ra, "Jamoat xavfsizligi tushunchasining zamirida, mamlakat xavfsizligini ichki xavf va tahdidlardan himoyalash sohasida qabul qilingan qonunchilik asnosida aniq muassasa, tashkilot, jamoat birlashmalari va fuqarolar faoliyati xavfsizligini ta'minlash maqsadi asosida muvofiqlashtirishga qaratilgan mexanizmni tushunish lozim"[16];

3) R.R. Rashidov ta'kidlashicha: "Fanda "jamoat xavfsizligi" kategoriyasi tor va keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Keng ma'noda, "jamoat xavfsizligi" jamiyatning himoyalanganligi, tor ma'noda esa – jamoat joylarida xavfsizlikning ta'minlanganligi sifatida tushuniladi[17]."

4) D.G. Xalmuxamedovning fikriga ko'ra, "Jamoat xavfsizligi nafaqat shaxs, jamiyatning yoki davlat manfaatlarining muayyan darajada ta'minlanganligi balki o'sha shaxs yoki butun bir jamiyatning barqaror rivojlanishiga xavf tug'diruvchi omillardan qayd darajada (masalan, huquqiy yoki ijtimoiy) himoyalanganlik holatini ham ifodalaydigan fenomendir"[18];

5) F.K. Xo'jamberdiyev va I.Yo. Qilichevlarning ta'kidlashicha, "Jamoat tartibi va xavfsizligini muhofaza qilish deganda odamlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ularning insoniyqadr-qimmatlarini,fuqarolarninghuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning manfaatlarini himoya qilish, odamlarning mehnat qilishi va xordiq chiqarishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalarining normal ishlashiga yaxshi madad beradigan hamda xotirjamlik muhitini yaratish bo'yicha turli davlat organlari va jamoat birlashmalari tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirish tushuniladi" va A.Yu. Tashmuxammatov fikriga ko'ra, "Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi ijtimoiy munosabatlarning har xil turi bo'lib, ular o'rtasida

chambarchas aloqadorlik mavjud: ushbu guruh munosabatlarning har biri boshqasining mavjudlik shartidir”[19];

uchinchi, jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchasining ta’rifi ma’qullanmagan, ushbu tushuncha quyidagicha ta’riflangan: «jamoat xavfsizligini ta’minlash – davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim».

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, jamoat xavfsizligini ta’minlash choralari tizimiga mualliflar (A.I. Ikramov, S.N. Gordeyev, B.M. Muminov, I.Yu. Fozilov, G‘.X. Qutbiddinov, U.N. Mengliyev) “jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarni oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, probatsiya va qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi”ni kiritgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida “siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim” belgilangan.

Fikrimizcha, birinchi yondashuvda jamoat xavfsizligini ta’minlash choralari tizimi faqat ichki ishlar organlari (jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi, probatsiya), favqulotda vaziyatlar organlari (favqulodda vaziyatlar va yong‘inlarni oldini olish), Milliy gvardiya organlari (jamoat tartibini saqlash, qo‘riqlash) tomonidan amalga oshiriladigan choralar bilan cheklangan. Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar tizimi ushbu yondashuv tor ma’noda ekanligini tasdiqlaydi. Ikkinchi yondashuvda esa, jamoat xavfsizligini ta’minlash choralari tizimiga texnik chora-tadbirlar kiritilmagan. Raqamli jamoat xavfsizligi tizimi rivojlanayotgan hozirgi sharoitda bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish taqozo etiladi.

Tadqiqotlarimiz shunday xulosaga kelish imkonini beradiki, jamoat xavfsizligini ta’minlash choralari tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan jamoat xavfsizligi obyektlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va texnik chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga qamrab oladi; to‘rtinchi, O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga profilaktik hisobda, ma’muriy nazoratda, probatsiya nazoratida turuvchi, spirtli ichimlikka ruju qo‘ygan, giyohvand, zaharvand, tajovuzkor ruhiy kasal, ekstremistik va yot g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar xulq-atvori ustidan ta’sirchan nazoratni amalga oshirish kiritilmagan.

O‘ylashimizcha, ushbu chora-tadbirni jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlariga kiritilishi jamoat xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishga samarali hissa qo‘shadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki xorij olimlari va mahalliy olimlar fikr mulohazalari va qarashlari turli bo‘lishiga qaramay, ularning mazmun mohiyatida o‘xshashliklar kuzatiladi va bu masalalarni batafsil o‘rganilishi jamoat xavfsizligi konsepsiyasining takomillashiga hamda jamoat xavfsizligi tizimi konseptual asoslarining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые механизмы и принципы обеспечения общественной безопасности, сотрудничество государства и общественности, а также аспекты авторских предложений, которые были учтены или отклонены. Также анализируется значимость положений, закреплённых в действующей концепции общественной безопасности.

Ключевые слова: общественная безопасность, концепция, указ, государственная политика, достоинство человека, сотрудничество, анализ, личность, свобода, общество и безопасность, право, классификация, определение.

Annotation. This article discusses the new mechanisms and principles in ensuring public safety, the cooperation between the state and the public, and the aspects of authorial proposals that were accepted or rejected. It also highlights the significance of the provisions outlined in the current public safety concept.

Key words: Public safety, concept, decree, state policy, human dignity, cooperation, analysis, individual, freedom, society and safety, law, classification, definition.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дрожжина Е.А. Общественная безопасность как объект преступления: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2015.
2. Нестеров С.В. Формы соучастия в преступлениях против общественной безопасности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2016.
3. Кондрашов Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства ее обеспечения: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Москва, 1998. – С. 9.
4. Воронов А.М. Общественная безпасность: административные и информационно-правовые проблемы обеспечения: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Москва, 2005. – С. 15.
5. Ищук Г.В. Криминологическая характеристика и предупреждение преступлений против общественного порядка и общественной безопасности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Рязань, 2005. – С. 9.
6. Босхамджиева Н.А. Административно-правовые основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Москва, 2013.
7. Волкова Л.П. Административно-правовой статус милиции общественной безопасности в системе МВД РФ: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Саратов, 2000. – С. 12.
8. Макарычев И.Ю. Административно-правовое обеспечение общественной безопасности органами муниципальной власти: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Люберцы, 2010. – С. 13 – 14.
9. Романов Р.А. Государственные услуги в сфере обеспечения общественной безопасности (правовые и организационные аспекты): Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2012. – С. 3.
10. Миненко П.В. Исправление осужденных за преступления против общественной безопасности в целях предупреждения специального рецидива: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Тамбов, 2009. – С. 8.
11. Коротченков Д.А. Организация административно-правовой охраны общественного порядка и обеспечения общественной безопасности при проведении массовых мероприятий: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Хабаровск, 2006. – С. 8.
12. Агабалаев М.И. Развитие теории и практики административно-правового режима обеспечения общественной безопасности Российской Федерации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2004. – С. 14.
13. Радюшин Я.Н. Компетенция органов государственной власти и органов местного самоуправления в сфере обеспечения общественной безопасности: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2006. – С. 10.
14. Варгузова А.А. Административно-правовое регулирование деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2005. – С. 10.
15. Рустамбаев М.Х. Совершенствование применения современных технологий при обеспечении общественной безопасности // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2021. – № 1. – С. 28.
16. Xaydarov K.A. Saminjonov M.A. Jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdidlarning tamoyillari // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 74.
17. Rashidov R.R. Jamoat xavfsizligiga doir nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlili // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2021. – № 3. – B. 47.
18. Xalmuxamedov D.G'. Jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning mohiyati // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2022. – № 1. – B. 117.
19. Xo'jamberdiev F.K.,Qilichev I.Yo. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy tartibga solishning ayrim masalalari // "Jamoat xavfsizligi" ilmiy-amaliy jurnali – Toshkent, 2022. – № 2. – B. 176.

ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР И СУДЕБНЫЙ КОНТРОЛЬ КАК ГАРАНТИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИНЦИПА ЗАКОННОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕСТНЫХ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ

Дауменов Бердах Аймуратович,
Инновационный технологический университет

Бекполатов Бозатау Отепбергенович,
Старший помощник судьи суда Республики Каракалпакстан,
соискатель Каракалпакского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается прокурорский надзор и судебный контроль как гарантии обеспечения принципа законности в деятельности местных органов государственной власти.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, государственная власть, местные органы, государственное управление, местные Кенгашей народных депутатов, законность, прокурорский надзор, судебный контроль.

Принцип законности в деятельности государственных органов публичной власти обеспечивается не только через внутренние контрольные структуры этих органов, а также механизмы взаимного контроля в процессе их взаимодействия, но и через специальные органы реализующие контрольно-надзорные функции. К таким специальным органам следует отнести прокуратуру и судебные органы.

О роли данных органов Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев отмечает: «Все более возрастает значение органов прокуратуры в надежной защите, закрепленных в Конституции страны прав и свобод людей, обеспечении законности и предупреждении преступности» [1].

В свою очередь, в обеспечении принципа законности органам прокуратуры отводится особая роль, особенно касательно деятельности органов публичной власти, к каковым относятся также органы государственной власти на местах. При этом следует отметить, что состояние обеспечения законности в системе публичной власти, непосредственно отражается на уровне законности во всех остальных сферах государственной и общественной жизни.

В данном случае необходимо отметить, что исходя из сущности конституционно-правового статуса органов прокуратуры, данные органы не относятся непосредственно ни к одной из ветвей власти, а значит не находятся в формальной подчиненности к каким-либо государственным структурам, что позволяет им быть независимыми и беспристрастными в реализации мер прокурорского реагирования по отношению к нарушителям принципа законности.

Наряду с этим, необходимо отметить, что главной функцией прокуратуры является осуществление надзора за точным и единообразным исполнением законов, в том числе на территории органов государственной власти на местах. Здесь важно отметить, что прокуратура реализует проверочную функцию, которая не присуща органам судебной власти. При этом главное направление в деятельности прокуратуры является осуществление надзора за соблюдением прав и свобод человека и гражданина. Тем самым все направления деятельности прокуратуры можно характеризовать как правозащитную.

Что касается прокурорского надзора в отношении деятельности органов государственной власти на местах, то он производится через оценку их полноты и законности. Поэтому в деятельности прокуратуры особое место отводится надзору за законностью деятельности органов государственной власти на местах.

Следует отметить, что посредством надзора за деятельностью местных Кенгашей народных депутатов и хокимов прокуратурой реализуется такая важная её функция как выявление, пресечение, устранение и предупреждение нарушений, встречающихся

в их нормативно-правовых актах. В связи с этим можно утверждать, что системный надзор за законностью в сфере органов государственной власти на местах есть одно из важнейших направлений деятельности органов прокуратуры.

Вместе с тем, законодательство, регулирующее организацию и деятельность органов государственной власти на местах, также должно исполняться высшими и вышестоящими органами государственной власти. Следовательно, необходимо включать в систему организации прокурорского надзора в сфере органов государственной власти на местах также надзор за соблюдением законности данными органами и организациями.

Наряду с этим в вопросе обеспечения принципа законности в деятельности органов государственной власти на местах через институт прокуратуры важной формой его реализации является применение в качестве основной меры средств прокурорского реагирования. Так, прокурорское реагирование есть направление протестов, представлений, объявление предостережений, предъявление исков и заявлений в интересах защиты неопределенного круга лиц, о признании противоречащими законодательству нормативно-правовых актов органов государственной власти на местах, применение мер уголовного и административного преследования.

Было бы целесообразным, в прокурорских протестах в случае наличия оснований, ставить вопрос о привлечении к ответственности (дисциплинарной или иной установленной законом) виновных в издании незаконных нормативно-правовых актов должностных лиц органов государственной власти на местах. Однако, в таких ситуациях прокурор должен от соответствующих должностных предварительно получить объяснения касательно издания ими актов в нарушении законов и представить мотивы в протесте, согласно которым счел нужным применить санкции к виновным должностным лицам.

В свою очередь, надзорная деятельность органов прокуратуры за соблюдением требований законодательства по его исполнению, в том числе касаемо принятия правовых актов, становится более эффективной предпосылкой применения заявлений направляемых в суды по оспариванию правовых актов, как нормативных, так и ненормативных, предусматривающих защиту лиц, а также образований органов государственной власти на местах.

Особая актуальность подобной меры прокурорского реагирования в настоящее время заключается в том, что в силу специфичности своего правового конституционно-статуса только прокуратура имеет широкие возможности обнаруживать и выявлять противоречащие законодательству правовые акты как нормативного, так и индивидуального характера.

Наряду с этим, в сфере органов государственной власти на местах специфика прокурорских полномочий заключается в том, что проверки могут производиться вне зависимости от поступления сигналов о фактах нарушений. В связи с этим особую важность обретает способность предупреждать и предотвращать принятие органами государственной власти на местах актов в нарушении законодательства.

Вместе с тем, полномочия по осуществлению надзора за законностью деятельности органов государственной власти на местах органам прокуратуры предоставлены через следующее законодательство:

Избирательным кодексом Республики Узбекистан от 25 июня 2019 года, где закреплены нормы по обеспечению конституционного права граждан Республики Узбекистан избирать и быть избранными в местные Кенгаши народных депутатов. В нем согласно: статье 41 в качестве гарантий деятельности кандидатов закрепляется, что кандидаты в Президенты Республики Узбекистан не могут быть привлечены к уголовной ответственности, арестованы или подвергнуты мерам административного взыскания, налагаемым в судебном порядке, без согласия Генерального прокурора Республики Узбекистан; статьям 14, 20, прокуроры вправе вносить представления по решениям избирательных комиссий противоречащих нормам Избирательного кодекса[2].

Законом «О прокуратуре Республики Узбекистан» от 29 августа 2001 года, где

касательно органов государственной власти на местах в качестве направлений деятельности органов прокуратуры определен надзор за исполнением законов хокимами и другими должностными лицами, а также законов направленных на обеспечение прав и свобод гражданина[3].

Законом «О государственной власти на местах, где согласно статье 28 данного закона прокурорам предоставлено право опротестовывать акты местного Кенгаша народных депутатов и хокимов в суде, а также, здесь же, в статье 29 определяется, что решения хокима, противоречащие Конституции и законам Республики Узбекистан, актам Президента и Правительства Республики Узбекистан, опротестованные прокурором, пересматриваются самим хокимом, либо вышестоящим хокимом или Кабинетом Министров, а при необходимости Президентом Республики Узбекистан.

При этом необходимо отметить, что акты и действия Кенгашей народных депутатов и хокимов должны прокурором оцениваться только с точки зрения того, насколько они соответствуют или не соответствуют нормам законодательства. В связи с этим, применение таких оценочных подходов через категории «целесообразность», справедливость» или «равенство» при осуществлении прокурорского надзора, при котором происходит отрыв от принципа законности использоваться не должны.

В свою очередь, в качестве особой и самостоятельной формы прокурорского реагирования целесообразно выделить обращение прокурора к должностным лицам органов государственной власти на местах о необходимости устранения выявленных правонарушений, при котором данное полномочие следует использовать прежде всего на заседаниях местных Кенгашей народных депутатов.

Касательно обеспечения законности правовых актов, то прокурор, давая правовую оценку на предмет соответствия проектов актов местных Кенгашей и хокимов действующему законодательству и внося предложения по необходимости совершенствования данных проектов, тем самым, он, с одной стороны, предупреждает об отклонении от требований законодательства, и, с другой, способствует принятию актов местных Кенгашей и хокимов в соответствии с требованиями принципа законности.

Вместе с тем, одной функций хокимов в соответствии со статьей 21[4][1] закона «О государственной власти на местах», является обеспечение законности на соответствующей территории, что гармонирует с функциями органов прокуратуры. Как правильно отмечает А. Х. Казарина, «функции прокуратуры органично связаны с функциями государства, поскольку прокуратура является частью системы государственных органов, ее полномочия выступают средством достижения целей и задач самого государства» [4].

Исходя из этого, реализации функции хокима по обеспечению законности во многом могло бы способствовать налаживание эффективного взаимодействия между хокимом и органами прокуратуры. Здесь, под таким взаимодействием следует понимать взаимосвязанную и согласованную их совместную деятельность по месту и времени, которая реализуется в соответствии с законом и в рамках компетенции местных органов власти и органов прокуратуры, присущими каждому из них способами и методами, а также направленная к достижению единой цели по обеспечению принципа законности через решение общих задач для них задач.

Необходимость такого взаимодействия объясняется тем, что в процессе реализации хокимом своих полномочий он через свой аппарат становится широко осведомленным о ходе правоприменительной практики и тем самым состоянии законности на соответствующей территории.

В связи с этим, было бы целесообразным налаживать механизмы взаимодействия между хоким и прокурором, которое может выражаться в их сотрудничестве через координацию взаимных действий и обменом информацией. Для этого могут быть применены различные формы взаимодействия. При этом, как верно отмечает А.С.Семенов[5], под формами взаимодействия органов прокуратуры с органами государственной власти на местах понимаются наиболее эффективные, результативные, проверенные практикой организационно-правовые

способы совместной деятельности, которая формируется на основе восприятия сторонами потребности в сотрудничестве с взаимной поддержкой в интересах достижения более высоких результатов в обеспечении принципа законности.

Тем самым, взаимодействие органов государственной власти на местах и органов прокуратуры по обеспечению принципа законности может осуществляться в таких формах, как:

– взаимное информирование о состоянии законности, борьбы с правонарушениями, в особенности с преступностью и по другим вопросам правоохранительной деятельности;

– совместная разработка, обсуждение и принятие комплексных программ по борьбе с преступностью, коррупцией, а также последующее их выполнение;

– совместная деятельность по подготовке проектов нормативно-правовых актов органов государственной власти га местах, направленных на укрепление законности с предварительным ознакомлением ими прокуроров;

– оценка законности нормативно-правовых актов органов государственной власти на местах;

– участие прокуроров в различных формах деятельности органов государственной власти на местах, их заседаниях и слушаниях;

– участие представителей местной власти и прокуратуры в работе межведомственных мероприятий, а также организуемых органами прокуратуры координационных совещаниях;

– привлечение профильных специалистов органов государственной власти на местах к участию в прокурорских проверках;

–организация и проведение при совместном участии мероприятий просветительно-правового характера;

– подготовка и проведение совместных мероприятий, направленных на повышение профессионального уровня работников органов прокуратуры и государственной власти на местах;

– консультирование работниками прокуратуры служащих органов государственной власти на местах по правовым вопросам.

Наряду с этим, в сфере обеспечения законности можно выделить следующие основные направления взаимодействия органов государственной власти на местах с органами прокуратуры:

– осуществление координации деятельности правоохранительных органов по борьбе с преступностью и коррупцией в виде координационных совещаний, разработка соответствующих комплексных программ;

– ведение правотворческой деятельности, к примеру, разработка законопроектов, их правовая и антикоррупционная оценка, мониторинг правоприменительной сферы;

– реализация органами государственной власти на местах право-просветительских мероприятий с участием представителей прокуратуры;

– прием населения и рассмотрений их обращений.

В свою очередь, об актуальности проблемы взаимодействия между местными органами власти и органами прокуратуры свидетельствует то, что Президентом Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёевым проведено расширенное совещание, посвященное эффективности мер по предотвращению коррупции и перспективным задачам в этой сфере, в том числе участию органов государственной власти на местах и прокуратуры в решении таких проблем как: применение превентивных мер; не изученности ситуаций в районах с наибольшими проявлениями коррупции в сферах здравоохранения, занятости или банковских филиалов; пассивности руководителей этих сфер; не изученности хокимами деталях системных факторов коррупции; безнаказанности руководителей, допустивших бездействие; целесообразности назначения председателями региональных советов по борьбе с коррупцией руководителей областных Кенгашей народных депутатов; необходимости усиления работы прокуратуры над предотвращением преступности; представления районными и областными прокурорами ежемесячных на региональных советах с их обращением к общественности; профилактика коррупции и воспитание в этом граждан; внесение палатами Олий Мажлиса рекомендаций по повышению эффективности деятельности прокуроров; особенно решение проблем коррупции на районном и городском

уровне; оценка деятельности хокимиятов по числу предотвращённых нарушений; необходимость полной цифровизации системы прокуратуры.

При этом особое внимание обращено на наличие проблем в работе следователей, прокуроров и судей в таких вопросах как: их взаимодействие с органами власти, которое ограничивается формальными представлениями и частными определениями, обсуждение которых носит чисто бюрократический характер и не приводит к реальным изменениям; необходимости координации хокимами всех процессов с еженедельным обсуждением ситуации в регионе с прокурорами[6].

Как показывает выступление Главы государства в вышеуказанном совещании, на сегодняшний день в вопросе обеспечения принципа законности проблемы взаимодействия местных органов власти с прокурорами являются актуальными.

В связи с этим, с учетом того, что в Узбекистане Глава государства согласно статье 105 Конституции Республики Узбекистан обеспечивает согласованное функционирование и взаимодействие органов государственной власти, то было бы целесообразным принятие Указа Президента Республики Узбекистан «О взаимодействии органов прокуратуры с органами государственной власти на местах», который бы закрепил понятие взаимодействия рассматриваемых органов, принципы, цели, задачи, полномочия, а также вопросы организации их взаимодействия, определив основные направления (участие в правотворческой деятельности, сотрудничество по вопросам состояния законности, координация деятельности по борьбе с преступностью, участие специалистов органов государственной власти на местах в проведении прокурорской проверки, совместный прием граждан, правовое просвещение и правовое информирование, повышение квалификации работников прокуратуры и органов государственной власти на местах).

В свою очередь, одной из важных гарантий обеспечения законности в деятельности органов государственной власти на местах служит повышение в этом вопросе роли судебной власти. Как отметил Глава государства в вышеуказанном совещании, посвященной борьбе с коррупцией: «В судебной системе вопросы предотвращения коррупционных рисков, а также повышения качества и эффективности правосудия должны оставаться в центре внимания» [6].

По данному вопросу следует отметить, что так как органы судебной власти обеспечивают реализацию принципа законности через осуществление правосудия, то они в процессе своей деятельности глубоко вникают в причинно-следственные аспекты мотивов нарушителей режима законности. Тем самым судебные органы обладают в силу своей профессиональной деятельности обстоятельной информацией о причинах способствующих генерации правонарушений.

Учитывая то обстоятельство, что в судебных органах происходит аккумуляция комплекса информации о происходящих процессах в жизни человека, общества и государства связанного с обеспечением принципа законности, весьма актуальным становится проблема максимального применения потенциала судебной власти в укреплении правосознания и повышении правовой культуры в обществе направленного на профилактику правонарушений. Как подчеркнул Президент Республики Узбекистан на вышеуказанном совещании: «Необходимо четко обозначить конкретные меры по профилактике преступлений в каждой сфере и устранению их причин» [6].

Решению данного вопроса могло бы послужить не вовлечение прежде всего непосредственно самих председателей, заместителей председателей и судей областных, районных и городских судов к взаимодействию с местными Кенгашами народных депутатов и хокимами для проведения совместных профилактических мероприятий по предупреждению правонарушений, а осуществление такого участия через создание в структуре органов судебной власти специального подразделения по взаимодействию с органами государственной власти на местах.

Вместе с тем, в обеспечении принципа законности взаимодействие органов

государственной власти на местах с органами судебной власти может осуществляться в следующих формах: сотрудничество в подготовке и проведении совместных программ и проектов; взаимный обмен информацией по предупреждению принципа законности; взаимное участие на заседаниях местного Кенгаша, совещаниях при хокиме, судебных процессах, в работе структурных подразделений местных органов власти и судебных органов, в разработке проектов нормативно-правовых актов, при рассмотрении обращений, консультациях по правовым вопросам.

Таким образом, консолидация возможностей судебных органов и органов государственной власти на местах в рамках конституционных полномочий каждого из них взаимно дополняют друг друга в обеспечении принципа законности, которое проявляется прежде всего в координации совместных усилий по предупреждению правонарушений с применением различных взаимоприемлемых организационно-правовых форм деятельности.

Annotatsiya. Maqolada prokuror nazorati va sud nazorati mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylik tamoyilini ta'minlash kafolati sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati, mahalliy organlar, davlat boshqaruvi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, qonuniylik, prokuror nazorati, sud nazorati.

Abstract. The article considers prosecutorial supervision and judicial control as guarantees of ensuring the principle of legality in the activities of local government authorities.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, state power, local authorities, public administration, local Councils of People's deputies, legality, prosecutorial supervision, judicial control.

Использованная литература:

1.Мирзиёев Ш.М. Работникам и ветеранам органов прокуратуры, 8 января 2024 года // https://president.uz/ru/lists/view/6961

2.Национальная база данных законодательства, 26.06.2019 г., № 03/19/544/3337.

3.Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2001 г., № 9-10, ст. 168.

4.Казарина А. Х. Избранные труды / сост. Р. В. Жубрин, Ю. В. Важина, В. А. Немировский; вступит. ст. Ф. М. Кобзарева. М., 2014. – С. 76.

5.Семенов А.С. Взаимодействие прокуратуры с органами государственной власти и органами местного самоуправления в сфере обеспечения законности. Дисс…канд.юрид.наук. – М., 2015. – С.208-209.

6.Материалы расширенного совещания под председательством Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева посвявящённое эффективности мер по предотвращению коррупции и приоритетным задачам на будущее от 29 июля 2025 года // https://president.uz/ru/lists/view/7924

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA XALQARO GUMANITAR HUQUQ NORMALARINI IMPLEMENTATSIYA QILISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Ravshanov Ulugbek Maxmurbekovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga xalqaro gumanitar huquq normalarini implementatsiya qilish jarayoni tahlil qilinadi, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tajribasi o‘rganilib, mamlakatimiz uchun samarali yo‘nalishlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro huquq, xalqaro gumanitar huquq, urush qurbonlari, Qizil xoch jamiyati, implementatsiya, milliy qonuchilik, xorijiy tajriba.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalar singari inson huquqlarini ta’minlash sohasida islohotlarning yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Jumladan 1992-yilning o‘zidayoq 2 ta muhim xalqaro tashkilot YEXHT va BMTga a’zolik fikrimizning isboti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. BMT Xavfsizlik Kengashi Yer yuzida sodir bo‘layotgan yoki sodir etilish ehtimoli yuqori bo‘lgan turli xil insoniyatga, tinchlikka qarshi qaratilgan har qanday tajovuzlardan o‘z vaqtida himoya qilish choralarini “ko‘k dubulg‘alilar”ga ishongan holda amalga oshirib kelmoqda.

1949-yil 12-avgust kuni Shveysariyada imzolanib, 1950-yil 21-oktyabrda kuchga kirgan Jeneva konvensiyasi urush uchun insonparvarlik qoidasini belgilaydigan ko‘p tomonlama xalqaro shartnoma hisoblanadi. Mazkur hujjat zamonaviy xalqaro huquqning asosiy tamoyilini mustahkamlagan. Masalan, bir bandda urush raqib tomon qurolli kuchlariga qarshi olib boriladi, oddiy aholi, bemorlar, yaradorlar, harbiy asirlar va boshqalarga qarata harbiy harakat taqiqlanadi, deb ta’kidlab o‘tilgan. Jeneva konvensiyasi 4 universal xalqaro shartnomadan iborat:

- Qurolli kuchlardagi yarador va bemorlar ahvolini yaxshilash;
- Qurolli kuchlarning dengizdagi yarador, kasal va kema halokatiga uchragan a’zolari ahvolini yaxshilash;
- Harbiy asirlar bilan muomala qilish;
- Urush davrida fuqarolarni himoya qilish.

Ushbu xalqaro hujjatlarning e’tiborga molik tomonlaridan biri shundan iboratki, hujjat urush e’lon qilingan yoki har qanday qurolli to‘qnashuv sodir etilgan taqdirda, hatto tomonlardan biri urush holatini tan olmasa-da, muayyan hududni bosib olganda, ishg‘ol qurolli qarshilikka uchramasa ham qo‘llanadi. Agar Jeneva konvensiyasi ishtirokchisi bo‘lmagan biror mamlakat hujjat qoidasiga amal qilsa, ushbu davlat bilan ziddiyatga Konvensiya ishtirokchisi bo‘lgan qarama-qarshi tomon ham o‘z harkatida shu qoidalarga rioya qilishi shart. Jeneva konvensiyasi neytral davlat uchun ham majburiydir.

Jeneva konvensiyasi konvensiyasi barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan vas hu orqali urushning insoniyat uchun halokatli oqibatini yumshatishda muayyan qoidalar bilan cheklanishi kerakligini tan oladi. Harbiy harakatda qatnashmagan yoki qatnashishni to‘xtatgan odamlarni himoya qiladigan xalqaro gumanitar huquq (XGH) asosini tashkil qiladi.

Xalqaro gumanitar huquq o‘z navbatida jangovar harakatni tartibga solidi va qurolli to‘qnashuvda insoniyatning muayyan qismini saqlab qolish, insonlar azob-uqubatini yengillashtirish uchun urush vositasi va usullarini cheklaydi. Jeneva konvensiyasi, umuman, XGH kabi mojarodan jabrlangan barcha odamlar huquqini himoya qiladi va har bir kishi, hatto dushman ham inson sifatida ko‘rilishini ta’minlashga qaratilgan shartnoma hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ushbu yuqorida sanab o‘tilgan 4 ta konvensiyalarga 1993-yil 3-sentyabrda qo‘shilgan va bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan.

1949-yil 12-avgustda qabul qilingan Jeneva Konvensiyalari va ularga qo‘shimcha protokollarda urushda qatnashayotgan davlatlar armiyalaridagi yarador va bemorlarning qismatini yaxshilash bo‘yicha alohida to‘xtalib o‘tilgan. Masalan. Ushbu 1-Konvensiya 2-modda 1-qismida “Tinchlik davridayoq kuchga kirishi lozim bo‘lgan qarorlardan tashqari, mazkur Konvensiya ikki yoki bir necha Oliy Ahdlashuvchi Tomonlar o‘rtasida urush e’lon qilingan yoki boshqa har qanday qurolli mojaro yuz bergan sharoitda, hatto tomonlardan biri urush holatini tan olmasa ham, qo‘llaniladi” deyilgan.

Mustaqillik yillarida XGH normalarining milliy qonunchilikka integratsiyasi mamlakatning

xalqaro maydondagi obro‘sini oshirdi, inson huquqlari va tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekistonda xalqaro gumanitar huquqning implementatsiyasi masalasi ilmiy adabiyotlarda nisbatan kamroq yoritilgan bo‘lsa-da, ba’zi huquqshunos olimlar, xususan, A.Xidirov, Z.Rashidova, R.Qodirov va boshqalar o‘ztadqiqotlarida xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilikka ta’siri, ularning amalga oshirish mexanizmlari, sud amaliyotidagi o‘rni kabi masalalarga e’tibor qaratganlar. Xorijiy tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Germaniya, Shveysariya, Kanada, Norvegiya va Fransiya kabi davlatlar XGH normalarini implementatsiya qilishda ilg‘or hisoblanadi. Masalan, Germaniyada XGH normalari Bundestag tomonidan maxsus qonunlar orqali milliy tizimga kiritiladi. Kanada esa xalqaro jinoyatlarni tergov qilish va jazolash mexanizmlarini ta’minlovchi Crimes Against Humanity and War Crimes Act (2000) orqali bu sohada faoliyat yuritadi. Shveysariya, ayniqsa, Qizil Xoch harakatining vatani sifatida, XGHni milliy qonunchilikka chuqur integratsiya qilgan. Bu mamlakatda fuqarolik jamiyati va davlat institutlari hamkorligida XGHni targ‘ib qilish va amaliyotda qo‘llash bo‘yicha mustahkam tizim shakllangan. Bu esa O‘zbekiston uchun model bo‘la oladi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar, xususan, Xalqaro qizil xoch qo‘mitasi (ICRC), BMT Inson huquqlari kengashi va boshqa nodavlat tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar va monitoring hisobotlari XGHni milliy darajada amalga oshirishda muhim ilmiy va amaliy manba hisoblanadi. Shu sababdan, XGHni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda xorijiy tajribani chuqur tahlil qilish, ularning mos keladigan jihatlarini O‘zbekiston qonunchiligi kontekstiga moslab qabul qilish, mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish muhim o‘rin tutadi.

Germaniya Federativ Respublikasi XGH normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishda ilg‘or davlatlardan biri hisoblanadi. Uning bu boradagi yondashuvi institutsional va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

1. Völkerstrafgesetzbuch (VStGB) – Xalqaro Jinoyat kodeksi. Germaniya 2002-yilda Völkerstrafgesetzbuch (VStGB) deb nomlangan Xalqaro jinoyatlar kodeksini qabul qildi. U genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va agressiya urushi kabi jinoyatlarni milliy sudlarda ko‘rish inkonini yaratdi. Bu qonun Germaniya Jinoyat kodeksini Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC)ning Rim statuti bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Muhim jihati shundaki, bu jinoyatlar uchun muddat cheklovlari mavjud emas, ya’ni ular hech qachon kechirilmaydi.

2. XGHni milliy amaliyotga integratsiya qilish. Germaniya hukumati xalqaro gumanitar huquqni milliy amaliyotga integratsiya qilishni davom ettirmoqda. Masalan, Germaniya Qizil xoch jamiyati (DRK) 2024-yilda xalqaro gumanitar huquqni milliy darajada amalga oshirishni kuchaytirishga qaratilgan yangi tashabbusni ilgari surdi. Bu tashabbus doirasida quyidagi maqsadlar belgilangan:

- XGHni implementasiya qilish bo‘yicha milliy hisobotni yangilash;
- Mudofaa vazirligining qurolli nizolar davridagi inson huquqlari bo‘yicha qo‘llanmasini yangilash;
- “Xalqaro gumanitar huquq hujjatlari” nashrini yangilash va raqamli formatda ta’minlash.

Shuningdek, Germaniya hukumati va DRk xalqaro gumanitar huquqni targ‘ib qilish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqda.

3. Xalqaro hamkorlik va tashabbuslar. Germaniya xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. 2019-yilda Germaniya va Fransiya tomonidan “gumanitar harakatga chaqiruv” tashabbusi e’lon qilindi. Ushbu tashabbus doirasida davlatlar xalqaro gumanitar huquqni kuchaytirish, gumanitar yordam xodimlarini himoya qilish va fuqarolik aholisini qurolli mojarolarda himoya qilishni maqsad qilib qo‘ygan.

4. Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC) bilan hamkorlik. Germaniya ICC bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Ushbu hamkorlik doirasida Germaniya jinoyatchilarni sudga tortish, guvohlarni himoya qilish va sud jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga katta hissa qo‘shmoqda.Shuningdek, Germaniya Xalqaro jinoyat sudining budjetiga ham moliayaviy yordam ko‘rsatmoqda.

Kanada 2000-yilda Crimes Against Humanity and War Crimes Act (CAHWCA) qonunini qabul qilib, Rim Statutini birinchi bo‘lib qabul qilgan davlatlardan biri sifatida milliy qonunchilikka joriy qilgan. Ushbu akt genotsid, urush jinoyatlari va insoniyatga qarshi jinoyatlarga doir ta’riflarni o‘z ichiga oladi va ularni Kanada sudlarida ko‘rib chiqish uchun asos yaratadi. Jeneva Konvensiyasi aktlari orqali XGH majburiyatlari milliy tizimda mustahkamlangan. Qonunchilikda ekstraterritorial amal qilish tamoyili mavjud – ya’ni krakening jinoyatlari Kanadada jinoyat hisobi qilib ko‘riladi, hatto ular boshqa mamlakatlarda sodir etilgan bo‘lsa ham. 1998-yilda National Committee on International Humanitarian law (CNCHL) tuzildi. Unda Global affairs Canada, Mudofaa vazirligi, Adliya vazirligi, RCMP (milliy politsiya) hamda

kanadalik Qizil Xoch jamiyati a’zosi hisoblanadi. Ushbu komitet qonunchilikni ko‘rib chiqish, o‘qitish va tarqatish, resurslar va maslahatlar berish vazifalarini bajaradi. Kanadada Qizil Xoch XGH normalarini tarqatishda, harbiy va fuqarolik tashkilotlarini o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. CAHWCA doirasida birinchi yirik ish Desire Munyaneze ishi bo‘ldi. U Ruandadagi genotsid va urush jinoyatlari bo‘yicha 2009-yilda Sud hukniga tortilgan. 1987-yilda sodir etilga avvalgi ish – Imre Finta ishi, ammo u oqlash bilan yakunlangan. Kanada o‘z harbiylari, sud organlari va fuqarolik jamiyatiga ixtisoslashtirilgan trening, konferensiyalar orqali XGHni o‘qitish va tarqatish ishlarini olib boradi.

Amnesty International hisobotlariga ko‘ra, Kanada XGH jinoyatlariga qarshi dasturlarida kam resurs ajratmoqda. Faqatgina Ruanda ishi bo‘yicha ikki kishi prokurorlik vazifasini bajargan, xolos. 2016-yilgi protokolni ratifikatsiya qilmagan. Bundan tashqari, ICC budjeti bo‘yicha qat’iy pozitsiyaga ega. Kanadada kamchilik tomonlari sifatida resurs, prokuratura yuklamasi kamligi va ICC hamkorligida ayrim pasayishlar kuzatilayotganligini keltirish mumkin.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lganidan so‘ng xalqaro huquq subyekti sifatida xalqaro shartnomlarga qo‘shila boshladi, xususan, XGH sohasidagi asosiy konvensiyalarni ratifikatsiya qilib, milliy qonunchilikni ushbu normalarga muvofiqlashtirish yo‘lida muhim qadamlat tashladi. O‘zbekiston konstitutsiyaviy tamoyillar va bir qator normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro huquq normalarining milliy tizimga integratsiyasi uchun huquqiy zamin yaratdi. Ammo amalga oshirilayotgan ishlar hali yetarli darajada emas. Jumaldan, XGH normalarining to‘liq va samarali implementatsiyasi uchun qonunchilikda ham, amaliyotda ham ayrim bo‘shliqlar mavjud. Bu borada Germaniya va Kanada kabi davlatlarning tajribasi O‘zbekiston uchun namuna qilib olsak bo‘ladi. Bu davlatlar XGHni faqat qonunchilikda emas, balki institutsional tizim, sud amaliyoti, ta’lim va targ‘ibot orqali ham keng joriy etgan.

Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

- O‘zbekistonda XGH sohasidagi asosiy og‘ir jinoyatlar (urush jinoyatlari, genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar)ni alohida tartibga soluvchi, Kanada va Germaniyadagi kabi maxsus qonun qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

- XGHni targ‘ib qilish va o‘qitish tizimini mustahkamlash. Harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudyalar uchun XGH bo‘yicha majburiy o‘quv dasturlar joriy etilishi zarur. Bunda Qizil yarim oy jamiyati, universitetlar va ICRC bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega.

- Milliy monitoring va muvofiqlashtiruvchi organ tuzish. XGH normalarining milliy qonunchilikka tatbiq etilishini nazorat qiluvchi milliy komissiya yoki mas’ul organ tashkil etilishi kerak. Bu organ davlat idoralari va fuqarolik jamiyati bilan bilan hamkorlikda ishlashi mumkin.

- Sud amaliyotini rivojlantirish. XGH normalarini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha sud amaliyotini kuchaytirish, tergov mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Bu orqali jinoyatlarning jazolanishi kafolatlanadi.

- xorijiy tajriba asosida qonunchilikni yangilash. Germaniya va Kanada tajribasi asosida XGH bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni milliy huquqiy hujjatlarga to‘liq integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, bu mamlakatlardagi “universal yurisdiksiya” prinsipini o‘rganish va moslashtirish ayni muddao bo‘ladi.

Annotation. This article analyzes the process of implementing international humanitarian law norms into the legislation of the Republic of Uzbekistan during the years of independence, as well as studying the experience of foreign countries and proposing effective directions for our country.

Key words: international law, international humanitarian law, war victims, Red Cross, implementation, national legislation, foreign experience.

Аннотаци. В данной статье анализируется процесс имплементации норм международного гуманитарного права в законодательство Республики Узбекистан за годы независимости, а также изучается опыт зарубежных стран и предлагаются эффективные направления для нашей страны.

Ключевые слова: международное право, международное гуманитарное право, жертвы войны, Красный Крест, имплементация, национальное законодательство, зарубежный опыт.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Geneva Conventions of 12 August 1949 and Additional Protocols. International Committee of the Red Cross (ICRC), Geneva, 1949–1977.
3. Hadirov A., Rashidova Z., Qodirov R. Xalqaro huquq asoslari. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2010.
4. Cassese A. International Criminal Law. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
5. Dinstein Y. The Conduct of Hostilities under the Law of International Armed Conflict. – Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
6. Bothe M., Partsch K.J., Solf W. New Rules for Victims of Armed Conflicts. – Leiden: Brill, 2013.
7. Völkerstrafgesetzbuch (VStGB) – German Code of Crimes against International Law, 2002.
8. Crimes Against Humanity and War Crimes Act (CAHWCA), Canada, 2000.
9. International Committee of the Red Cross (ICRC). How Does Law Protect in War? – Geneva, ICRC, 2016.
10. Amnesty International. Report on Implementation of International Humanitarian Law in Canada and Germany. – London, 2018.
11. Sassòli M. International Humanitarian Law: Rules, Controversies, and Solutions to Problems Arising in Warfare. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2019.
12. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Xalqaro shartnomalar to‘plami. – Toshkent, 2005–2020.
13. International Criminal Court (ICC). Rome Statute of the International Criminal Court. – 1998.

INSON HUQUQLARI – KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY DISKURSDA OLIY QADRIYAT SIFATIDA

Raxmanov Akmal,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada inson huquqlarining qonunchilik borasidagi islohotlari tahlil qilinadi. Yangilangan Konstitutsiyada davlatning oliy maqsadi sifatida belgilangan inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar, kafolat, tashkiliy-huquqiy vosita, tashkiliy-huquqiy mexanizm.

Dunyoda tong bir xil otmagan. Inson hayotining barcha jabhalari – siyosat, iqtisod, ijtimoiy hayot, madaniyat, ekologiya va boshqa sohalarida kechayotgan o‘zgarishlar kun sayin tezlashib, yangi davrlarni kashf qilmoqda. Zamonaviy islohotlar inson huquqlari borasida yangi asr avlodi huquqini yaratishga xizmat qilmoqda.

An’anaviy inson huquqlarining vujudga kelishida XVII–XVIII asrda Yevropada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, xususan shu asrda yaratilgan tabiiy huquq g‘oyalari hal qiluvchi rolni o‘ynagan. Natijada, insonlarga tegishli huquqlar hujjatlarda bayon qilina boshlandi, inson huquqlarining umumiyligi asosiga erkinlik va rasmiy tenglik tamoyillari qo‘yilib, insonlarga tegishli har bir huquq va majburiyatlarning shu tamoyillarga mos kelishi lozimligi ustuvor g‘oyaga aylangan.

Birlashgan millatlar tashkilotining tashkil topishi inson huquqlarini xalqaro miqyosda belgilash g‘oyasini amalga oshirilishi olib keldi. Ushbu tashkilot tomonidan insonlarga tabiat tegishli bo‘lgan huquqlar e’tirof etilib, ularning qamrovi shu darajaga yetdiki, insonlarning e’tirof etilgan huquqlarining tugal ro‘yxatini keltirish mushkul ishga aylandi.

Dunyo Konstitutsiyalarida huquq va erkinliklar tizimlashtirilib, shaxsiy qatorida quyidagilar ko‘rsatila boshlandi: yashash huquqi; erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi; aybsizlik prezumsiyasi; shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi; turar joy daxlsizligi huquqi; shaxslarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish huquqi; fikr, so‘z va e’tiqod erkinligi; fuqarolarni huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi; vijdon erkinligi.

Siyosiy huquqlar fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish; davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo‘lish; fuqarolarning o‘z ijtimoiy faolliklarini namoyon etish; kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish va davlat organlariga murojaat qilishda ifodalandi.

Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar alohida tasniflandi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1991 yil 30 sentabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiningratifikatsiyaqilinishibuboradagi ishlarimizning debochasi sifatida qayd qilinsa, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo‘shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo‘lib sanaladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalarining ustuvorligi aynan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq e’lon qilinishi inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan milliy qonunchilik tizimini xalqaro huquq normalariga muvofiq barpo etishga zamin yaratdi.

Shu asosda yurtimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlarda inson manfaatlarini ta’minlash ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo‘yilib, shunga monand ravishda mamlakatimizda butun bir qonunchilik tizimi yaratildi. Binobarin, yangilanish jarayonlariga huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan harakatlar doirasida 2017-2021 yillar mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod Prezident qarorlari qabul qilindi [1]. Endilikda “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga o‘tildi va ustuvor yo‘nalish va yuzta yirik maqsadni qamrab olgan “Taraqqiyot strategiyasi” amalga oshirilmoqda [2].

1992–2023 yillar davomida Respublika

Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ilmiy mushohada qilish, davlat-huquqiy institutlar va konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta’minlash masalalari 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga [3] monand yangi sharoit va islohotlar ruhiga mos olib borishni taqozo etadi.

Inson huquqlari va erkinliklari har qanday demokratik jamiyatning tamal toshi hisoblanadi. Ular shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning negizini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, inson huquqlari masalasining konstitutsiyaviy-huquqiy diskursda oliy qadriyat sifatida e’tirof etilishi bejiz emas.

2023-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga doir normalar yanada kuchaytirildi. Jumladan, Konstitutsiyaning birinchi moddasidayoq O‘zbekiston – demokratik, huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat ekani qayd etilgan, bu esa inson va uning qadr-qimmatini eng oliy qadriyat sifatida belgilashga asos yaratadi. Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiqlik tamoyili mustahkamlab qo‘yilgan.

Jumladan, Konstitutsiyaning 13-moddasida: Inson huquqlari va erkinliklari – O‘zbekiston Respublikasining eng oliy qadriyatidir» deb belgilanishi, ularni faqat deklarativ emas, balki huquqiy majburiyat sifatida e’tirof etishga asos yaratadi.

Bu yondashuv fuqarolarning konstitutsiyaviy maqomini kuchaytiradi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining faoliyatini inson manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga asoslantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Rahbariy hujjatlarda keltirilganidek keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ma’lum darajada o‘tgan yillarda shakllangan qonunchilik bazasiga, shuningdek, norma ijodkorligi jarayoni sifatiga bog‘liq” [4]. Masalan, “2017–2023 yillarda qabul qilingan 135 ta yaxlit qonunda jami 543 ta havolaki norma mavjudligi, shundan 23 ta qonundagi 41 ta havolaki normani amalga oshirish bo‘yicha qonunosti hujjatlari qabul qilinmaganligi inson huquqlari borasidagi qonunchilik sayozliklari sifatida ko‘rilishi mumkin [5].

Ayrim huquqshunos olimlar mavhum huquqiy tabiatga ega hujjatlarni qabul qilinishini taqiqlab qo‘yishni taklif etishgan.

A.V.Malko va Ya.V.Gayvoronskayaning fikricha, bu kabi normativ-huquqiy hujjatlar uni qo‘llash amaliyotini va ularni nazoratini qiyinlashtirib, kolliziyalarni keltirib chiqaradi, huquqni muhofaza qilish faoliyatiga esa subyektivizm elementlarini kirib kelishiga va o‘zboshimchalik holatlari ko‘payishiga yo‘l ochadi, deb hisoblashgan [6].

Shu bois, inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlash vazifasi, agar uning ijtimoiy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni va har tomonlama o‘zaro aloqalar bilan bog‘langan serqirra huquqiy hodisaga alohida tizim sifatida qaralsa, albatta u muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

Shaxsning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish mexanizmini ko‘rib chiqqan A.S.Mordoves uning tarkibiy tuzilishiga ijtimoiy normalar; inson va fuqarolarning huquqlari sub’ektlarning qonuniy faoliyati; oshkoralik; jamoatchilik fikri; umumiy, maxsus (huquqiy) va tashkiliy kafolatlar; tartib-taomillar; javobgarlik; nazoratni, shu jumladan xalqaro nazoratni ham kiritadi [7]. U o‘z tadqiqotida “inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish mexanizmi – inson shaxsi fazilatlaridan kelib chiqadigan, uni erkin va to‘laqonli rivojlanishi uchun ahamiyatli hisoblangan inson va fuqaroning barcha huquq va asosiy erkinliklarini hurmat qilinishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlovchi vositalar va omillar tizimidir”, degan xulosaga kelgan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy diskurs – bu inson huquqlarining nazariy va amaliy talqini, huquqiy hujjatlar, sud qarorlari, parlament debat va muhokamalari va davlat siyosati orqali namoyon bo‘ladigan ilmiy va siyosiy mulohazalar majmuasidir.

Ana shu ma’noda Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada quyidagi asosiy yondashuvlarni mustahkamlanishi qayd etilgan: Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas (20-modda), Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi (55-modda), keng turdagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar (IX bob), shuningdek, ayollar, bolalar, nogironligi bor shaxslar, keksalar huquqlarining maxsus

himoyasi, atrof-muhitga daxldor huquqlar (huquqiy davlatning yangi yo‘nalishi sifatida). Bularning barchasi huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan holda insonni davlat siyosati markaziga qo‘yadi.

Bu yondashuv Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro normalar – BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, va boshqa hujjatlar asosida rivojlanmoqda. O‘zbekiston ushbu xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan va ulardagi prinsiplar Konstitutsiyaga implementatsiya qilingan. Masalan, yangi Konstitutsiyada O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu amalda xalqaro huquqqa tayanish va inson huquqlarini ta’minlashda xalqaro majburiyatlarga rioya qilinishini anglatadi.

Har qancha huquq va erkinliklar Konstitutsiyada belgilanib qo‘yilgan bo‘lmasin, ularning amalda ta’minlash barcha xos asosiy muammolardan biridir. Shu bois O‘zbekistonda sud hokimiyatining mustaqilligini yana-da mustahkamlash, Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) faoliyatini kengaytirish, jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish bo‘yicha islohotlar davom etmoqda.

Shu sababli, barcha ilmiy gipoteza va konsepsiyalar, nazariya va qonuniyatlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni va uni amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari go‘yoki yagona nuqta – ya’ni “inson huquqlari – oliy qadriyat” deb nomlangan diskur atrofida harakatlanadi va barcha vositalarni ushbu idealga erishishga xizmat qilishga yo‘naltiradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan milliy davlatchilik modellari, jamiyatda yashash formulalari, Konstitutsiya va qonunlar, barcha turdagi huquqni himoya qilish mexanizmlari, hatto, din va axloq ham aynan mana shu markaziy mavzuga yo‘naltirilgan bo‘lib, oliy maqsadga erishish vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining Muqaddimasida shunday deyiladi: “a’zo-davlatlar... inson huquqlari va asosiy erkinliklarga umumiy hurmat va rioya etilishini ta’minlashni... o‘z zimmasiga olgan» [8].

Shunday qilib, bizningcha Konstitutsiya bu kontekstda shunchaki huquqiy hujjat emas, balki inson sivilizatsiyasining oliy qadriyati va buyuk yutug‘i sifatida namoyon bo‘ladi. U – erkinlik, adolat va tenglik uchun ko‘p asrlik kurash jarayonida shakllangan tarixiy tajriba, falsafiy g‘oyalar va huquqiy tamoyillarning mujassamlanmasidir. Unda butun dunyo hamjamiyati tomonidan e’tirof etilgan universal qadriyatlar bilan bir qatorda, muayyan davlatning yuz-ko‘rini belgilab beruvchi o‘ziga xos milliy xususiyatlar ham aks etgan.

Buning yorqin isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson va uning huquqlariga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari misol bo‘la oladi. Jumladan, uning Muqaddimasida “inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati – eng oliy qadriyat» ekani belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, 54-moddasida bevosita: “inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash – davlatning oliy maqsadi hisoblanadi», deb belgilangan [9].

Muxtasar qilib aytganda inson huquqlari – bu faqat yuridik norma emas, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy va siyosiy madaniyat tamoyillarining ifodasidir. O‘zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasida inson huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilangani davlatning insonga qaratilayotgan munosabatidagi strategik burilishdir. Bu na faqat huquqiy islohotlar, balki insoniy qadriyatlar ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan siyosiy irodaning namoyon bo‘lishi sifatida ham qaralishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga oid o‘z fikrini bildirib, “har qanday islohot konstitutsiyaviy tamoyil va qoidalarga muvofiq tarzda amalga oshirilishi, qonun ustuvorligi bosh mezon bo‘lishi zarur. ... maqsadimiz – xalq hokimiyatini so‘zda emas, amalda ta’minlashdan iborat... takror aytishga to‘g‘ri keladi – odamlarimiz o‘z hayotida ijobiy o‘zgarishlarni bugun kutmoqda” deganda eng ustuvor vazifalarni ko‘rsatib o‘tgan [10].

Shu tariqa, mamlakatimizda inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish darajasi ularni ta’minlashning huquqiy mexanizmlarining takomillashganlik darajasiga, jamiyatimizning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatiga bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi.

Hozirgi bosqichda bularni amalga oshirish qonunchilikda konstitutsiyaviy huquq, erkinlik va burchlarini tartibga solish, ularni ta’minlash vositalari va shart-sharoitlarini hal etishga e’tibor qaratish orqali; amaldagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar ro‘yxatini yanada takomillashtirish orqali; davlat organlari, mansabdor shaxslar

va fuqarolar tomonidan huquq va erkinliklarni ta’minlash shart-sharoitlarini yaratish va amalga oshirish ustidan konstitutsiyaviy nazorat tizimini rivojlantirish orqali erishiladi.

Davlat-huquqiy yo‘nalishdagi bu kabi chora-tadbirlar inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta’minlashning ishonchli va samarali ko‘p darajali tashkiliy-huquqiy mexanizmni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining so‘zsiz ta’minlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir.

Аннотация. В статье анализируется законодательная реформа в сфере прав человека. Исследуются теоретические и практические аспекты обеспече-ния прав и свобод человека, определенных в обновленной Конституции как высшая цель государства.

Ключевые слова: конституционные права и свободы, гарантия, организационно-правовые средства, организационно-правовой механизм.

Abstract. The article analyzes the legislative reform in the sphere of human rights. The theoretical and practical aspects of ensuring human rights and free-doms, defined in the updated Constitution as the highest goal of the state, are stud-ied.

Key words: constitutional rights and freedoms, guarantees, organizational and legal means, organizational and legal mechanism.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // https://lex.uz/docs/5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” // https://lex.uz/docs/5841063

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2018 yildagi “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5505-son Farmoni // https://lex.uz/docs/3858817

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.02.2024 yildagi “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-75-son qarori // https://lex.uz/docs/6806476

6. Malko A.V., Gayvoronskaya Ya.V. Teoriya pravovix aktov: neobxodimost i puti sozdaniya // Gosudarstvo i pravo. 2012. № 2. – B. 21. // https://elibrary.ru/contents.asp?id=33733243

7. Mordoves A. S. Sotsialno-yuridicheskiy mexanizm obespecheniya prav cheloveka i grajdanina / pod red. Matuzova N.I.; MVD RF. SVSh. Saratov, 1996. – B. 275.

8. Vseobshaya deklaratsiya prav cheloveka. Prinyata rezolyutsiyey 217 A (III) Generalnoy Assamblei OON ot 10 dekabrya 1948 goda // https://lex.uz/docs/6445147#6446776

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 b.

10. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // https://president.uz/uz/lists/view/1328

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA HARBIY XIZMATCHILARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH DAVLAT SIYOSATI: TIZIMLI TAHLILI, MAVJUD MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Djaydakbaev Farxat Turgunovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining shakllanishi, rivojlanishi va amaliy natijalari tizimli tahlil qilingan. Huquqiy-tashkiliy mexanizmlar, sog‘liqni saqlash, uy-joy, pensiya, ta’lim va ijara kompensatsiyasi kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlil etiladi. Shuningdek, tadqiqotda amaldagi muammolar va huquqiy bo‘shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilar, ijtimoiy himoya, davlat siyosati, uy-joy bilan ta’minlash, ijara kompensatsiyasi, Yangi O‘zbekiston, harbiy pensiya, ta’limga kirish imtiyozlari, huquqiy mexanizmlar, empirik tahlil, xorijiy tajriba.

Mustaqillik - millat taqdirini o‘zi belgilash, milliy armiyasini, milliy xavfsizlik strategiyasini va insonparvar ijtimoiy siyosatini yaratishdek ulkan imkoniyatlar eshigini ochgan tarixiy voqelikdir. 1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng, mamlakatimizda milliy armiyani shakllantirish, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va uning moddiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli davlat siyosati yuritila boshlandi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalasi ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta’minlashda munosib shart-sharoitlar yaratmasdan, yuksak samara kutmaslik kerakligi hayotiy haqiqatdir. Davlat tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini uy-joy, sog‘liqni saqlash, ta’lim, pensiya ta’minoti kabi yo‘nalishlarda ijtimoiy himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslari barpo etildi va bu jarayon bugungi kunda ham izchil davom etmoqda.

So‘nggi yillarda, xususan, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida harbiy xizmatchilarning huquq va manfaatlarini ta’minlashga oid qator farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Prezident Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan harbiy xizmatni obro‘li va munosib hayot manbai sifatida shakllantirish, “inson qadri uchun” degan tamoyil asosida harbiylar hayotidagi muhim ijtimoiy muammolarni hal qilish davlat siyosatida yangi bosqichni boshladi.

Shu bilan birga, amaliyotda qator tizimli muammolar ham mavjud: uy-joyga muhtojlik, ijara kompensatsiyalarining bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmasligi, maktab va bog‘chaga qabulda to‘siqlar, maxsus unvonli xizmatchilarning huquqiy noaniqliklari va boshqalar. Bu muammolar davlat siyosatining ijrosini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday ekan, ushbu ilmiy tadqiqotda mustaqillik yillarida shakllangan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining mazmuni, huquqiy-tashkiliy mexanizmlari, amaliy samaralari va yechimini kutayotgan muammolar tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida milliy modelni rivojlantirishga oid aniq taklif va tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Fikrimizcha, harbiy xizmatchilarni huquqiy, ijtimoiy va moddiy himoya qilish masalalarini tahlil qilish bir nechta muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ushbu yo‘nalishning dolzarbligi quyidagilarda ko‘rinadi:

birinchidan, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning 5 ustuvor yo‘nalishi 97-maqsadida harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish bo‘yicha konseptual vazifalarning belgilanganligida;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi kuchlarning jangovar qobiliyati va ruhiyatini oshirishda harbiy xizmatchilar ijtimoiy

himoya qilishni ta’minlashning ahamiyati oshib borayotganida;

uchinchidan, jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan tahdidlarga qarshi kurashuvchi bo‘linmalarning ijtimoiy himoyasida mavjud muammolarning sabablarini aniqlash, tizimli tahlil qilish, baholash va ularni takomillashtirish muhim vazifalardan biriga aylanganligida;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida xizmat o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish zaruriyati mavjudligida o‘z ifodasini topadi.

Odatda, har qanday jamiyatda barcha jamiyat a’zolari tomonidan iste’mol qilinishi zarur bo‘lgan tovar va xizmat turlari mavjud. Ushbu turdagi tovarlar va xizmatlarning ro‘yxati har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida farq qilishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlar tahlili (I.A.Ledyax, A.V.Gerasimov, G.G.Loza, A.V.Korovnikov, Yu.Mgimov, N.A.Serebryakova, I.V.Goloborodko, Ye.V.Gorgola, A.V.Kudaev, N.V.Antipeva va b.) shuni ko‘rsatmokdaki, ushbu ilmiy izlanishlarda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyalanganligi bir vaqtning o‘zida huquqiy himoyalanganlikni taqozo qilishini bildirganlar [1]. Haqiqiy ijtimoiy himoyalanganlikni faqatgina huquqiy vositalarni boshqa vositalar - tashkiliy, tarbiyaviy vositalar bilan kompleks tarzda keng qamrovli qo‘llash mumkinligini A.V.Korovnikov ham ko‘rsatib o‘tadi va u ijtimoiy himoyalanganlikni birinchi navbatda harbiy xizmatchilarning huquqiy maqomini amalga oshirish mexanizmlari va kafolatlanganligi (qonunda) bilan bog‘laydi [2].

Mamlakatimizda ijtimoiy himoya masalalarida D.Axmedov, Y.Tursunov, A.Inoyatov singari olimlarimiz o‘z ilmiy ishlarida ushbu tushunchaga ta’rif berib, o‘zlarining ilmiy ish va o‘quv qo‘llanmalarida atroflicha yoritishgan. Shu qatorida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi masalalari oid nazariy ilmiy qarashlar Sh.M.Gaziev, M.I.Maxsadov, M.Ziyodullaev, D.R.Maxmudov, M.Aminjonova, M.Usmonova, A.A.Ikramov, F.Xo‘jamberdiev, J.Jo‘raev, J.Murodovlar o‘zlarining ilmiy ishlarida huquqiy jihatlarini keng ochib berishgan [3]. Mazkur ilmiy ilmiy ishlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya organlari faoliyati natijalarini, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashda ushbu organlarining roli masalasini hamda ijtimoiy himoya tizimining huquqiy yo‘nalishda olib borilgan islohotlarning mazmun-mohiyatini ochib berilgan.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari (xodimlar) va ularning oila-a’zolarining ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining tahlili, tizimdagi mavjud muammolar, ta’sir etuvchi omillar hamda takomillashtirish masalasi yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasini tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan holda ilmiy tadqiqotlar doirasida yetarli darajada o‘rganilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar harbiy xizmatchilarini (xodimlarini) ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sog‘liqni saqlash, pul ta’minoti, uy-joy bilan ta’minlash va pensiya ta’minotidan iborat.

Bugungi kunda harbiy xizmatning jozibadorligi va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi bo‘yicha davlat siyosatining ijrosini ta’minlash borasida sezilarli amaliy ishlar borilgan bo‘lsa-da, tizimda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 25-iyuldagi 169-sonli qaroriga [4] muvofiq, ijara miqdorlari quyidagicha belgilangan.

Jumladan, mazkur nizomga asosan, turar joyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun pul kompensatsiyasi kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarga: Toshkent shahrida - bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt baravarigacha miqdorda, Nukus shahrida va viloyatlar markazlarida - uch baravarigacha miqdorda, O‘zbekiston Respublikasining boshqa shaharlari, tumanlar markazlari va aholi punktlarida - ikki baravarigacha miqdorda to‘lanishi belgilangan.

Oila a’zolari uch kishi va undan ortiq bo‘lgan taqdirda (harbiy xizmatchining o‘zini hisoblamagan holda) ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari 50 foizga oshiriladi. Bunda harbiy xizmatchining harbiy xizmatni o‘tash joyiga kelgan oila a’zolari: xotini (eri), ularning bolalari va ota-onalari, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga oluvchining oila a’zolari deb e’tirof etilgan boshqa shaxslar hisobga olinadi.

Biroq, tadqiqot doirasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalari bo‘yicha o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda Toshkent shahri kesimida 2-3 xonali uylarning ijara haqi miqdori o‘rtacha 300-450 AQSh dollari yoki 4-5.5 million so‘mni tashkil etib, harbiy xizmatchilar tomonidan har oyda qo‘shimcha o‘rtacha 500 mingdan 3 million so‘mgacha miqdorda qo‘shimcha

to‘lovni amalga oshirishni talab etmoqda [5]. Bu esa, ularning oylik maoshiga ta’sir qilib, real daromadlarini sezilarli kamayishiga hamda zarur bo‘lgan ijtimoiy (ta’lim, sog‘ligi va h.k.) xarajatlarni cheklashga olib kelmoqda.

2005-yilda tasdiqlangan Nizomda belgilangan miqdorlarga nisbatan bugungi kunda ko‘chmas mulkning narxi va ijara miqdorining sezilarli oshganligi, inflatsiyaning o‘zgarganligi va dollarning rasmiy kursi ham ikki-uch barobarga oshganligini inobatga olib, turar joyni ijaraga olganligi uchun harbiy xizmatchilarga beriladigan har oylik pul kompensatsiyasining belgilangan miqdorini 50 foizga oshirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-sentabrdagi PQ-694-son qarori ijrosini ta’minlash [6], shuningdek, harbiy xizmatchilarni turar joy bilan ta’minlash tizimiga uzoq muddatli ipoteka kreditlari berishning yangi tizimini joriy etish va mudofaaga ajratilayotgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yilning 11-avgustdagi 619-sonli qarori [7] bilan Nizom tasdiqlandi.

Albatta bu tartib quvonarli holat bo‘lib, biroq bugungi kunda ushbu nizomda belgilangan ayrim normalarda munozarali holatlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish markazi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizligi xizmati va Harbiy prokuratura tizimlarida kontrakt bo‘yicha kamida 5 kalendar yil xizmat qilgan va yangidan kontrakt tuzgan, turar joy bilan ta’minlanmagan yoki turar-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq davlat hisobida turar joy bilan ta’minlanish yoki turar joy sharoitlarini yaxshilash huquqiga ega bo‘lgan, haqiqiy harbiy xizmatdan bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarga joriy etilishi belgilangan [8].

Unga ko‘ra, turar joy sotib olish (qurish) uchun harbiy xizmatchilar tomonidan ipoteka krediti olinishida turar joy maydonining belgilangan ijtimoiy normasi doirasida sotib olinadigan (quriladigan) turar joy qiymatining 25 foizi miqdoridagi dastlabki badal tegishli idoralar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari va tegishli idoralarning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobiga kiritilishi, dastlabki badal miqdori sotib olinayotgan (qurilayotgan) turar joy qiymatining 25 foizidan ortiq bo‘lmasligi belgilab qo‘yilgan.

Mazkur nizomning 2-bandiga muvofiq, imtiyozli tartibda ipoteka krediti asosida uy-joyga ega bo‘lish uchun tegishli tizimlarida kontrakt bo‘yicha kamida 5 kalendar yil xizmat qilgan va yangidan kontrakt tuzgan, turar joy bilan ta’minlanmagan yoki turar joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lgan harbiy xizmatchilarga tatbiq etilishi belgilangan.

O‘rganishlar ko‘rsatmoqdaki, harbiy xizmatchilar tarkibida maxsus unvonga ega bo‘lgan (martaba, darajalariga) boshqa davlat idoralaridan harbiy xizmatga chaqirilgan va ular orasida ham uy-joyga muhtoj bo‘lganlari mavjud. Biroq, bugungi kunda nizom talablaridan kelib chiqib, ularning avvalgi davlat idoralarida ishlagan xizmat yillari umumiy harbiy xizmat sifatida e’tiborga olinsa-da, biroq birinchi kontrakt tugamaganligi sababli uy joy olishlari uchun to‘sqinlik qilmoqda.

Ta’kidlash joizki, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-6230-sonli farmoniga muvofiq [9], maxsus unvonda xizmat qilgan (martaba, daraja) harbiylarning ish stajlari navbatdagi harbiy unvon berish, xizmat yili uchun foizli ustamalar hisoblash va pensiyaga chiqishda inobatga olinishi hamda harbiy xizmat muddatiga qo‘shib hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

Fikrimizcha, mazkur normani Vazirlar Mahkamasining 619-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning 2-bandiga, maxsus unvonda xizmat qilgan (martaba, daraja) harbiylarning ish stajlari ham harbiy xizmatga tenglashtirilishi va ipoteka asosida uy-joy olish uchun inobatga olinishi yuzasidan o‘zgartirish kiritilishi maqsadga muvofiq [10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-sonli qarorining 199-bandiga asosan, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilarning farzandlari yashash joyi, shu jumladan vaqtinchalik yashash joyi bo‘yicha maktab va maktabgacha ta’lim muassasalariga navbatsiz qabul qilinishi belgilangan [11].

Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdagi “Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 244-sonli qarorining 18-bandiga [12] asosan harbiylar umumiy imtiyozlilar tarkibiga kiritilib, amaliyotda ularning farzandlarini maktabgacha ta’lim muassasalariga navbatsiz qabul qilinishi bo‘yicha muammolar yuzaga kelmoqda *(1 yilgacha cho‘zilishi kuzatilmoqda)*.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a’zolari ijtimoiy ta’minoti masalalarini oqilona hal etishga qaratilgan tadbirlar ko‘lamini kengaytirish, shuningdek ularni uy-joy bilan ta’minlash tartibini yanada takomillashtirish hamda ayrim normativ-huquqiy hujjatlardagi munozarali holatlarni bartaraf etish maqsadida, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- harbiy xizmatchilarning real daromadlarini oshirish va ijtimoiy xarajatlarga (ta’lim, sog‘liqni saqlash va h.k.) bo‘lgan ehtiyojlarini qoplash maqsadida, turar joyni ijaraga olganligi uchun harbiy xizmatchilarga beriladigan har oylik pul kompensatsiyasining belgilangan miqdorini 50 foizga oshirish maqsadga muvofiq;

- harbiy xizmatchilarning farzandlari yashash joyi, shu jumladan vaqtinchalik yashash joyi bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasalari va o‘rta ta’lim muassasalari, shuningdek, vazirliklarning bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga navbatsiz qabul qilinishini takomillashtirish maqsadida Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligi bilan hamkorlikda zamonaviy “IT” texnologiyalar imkoniyatidan foydalangan holda harbiylar uchun yagona onlayn platforma yaratish va integratsiya qilish choralarini ko‘rish;

- harbiy xizmatchilarga uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlarining boshlang‘ich badal miqdorini uy-joy bilan ta’minlanmagan va uy-joyga muhtoj harbiy xizmatchilarning haqiqiy kalendar hisobida xizmat muddatiga ko‘ra 25 foizdan 50 foizgacha oshirish, bunda kalendar hisobida yigirma yil va undan ortiq harbiy xizmatni o‘tagan harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatdan rezervga (iste’foga) bo‘shatilgan (chiqarilgan) fuqarolar uchun boshlang‘ich badal miqdorini 50 foiz etib belgilash;

- xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribalarini tahlil qilib, “Harbiy xizmatchilar va ularning oila-a’zolarining ijtimoiy himoyasi” qonuni loyihasiga tegishli takliflar kiritish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bildirilgan amaliy taklif va tavsiyalar mamlakatimiz harbiy xizmatchilari va ular oila a’zolarining ijtimoiy himoyasi bo‘yicha davlat siyosatining yanada takomillashtirish va moddiy qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье проведён системный анализ государственной политики Республики Узбекистан по социальной защите военнослужащих в период независимости. Рассмотрены правовые и организационные механизмы, охватывающие такие направления, как здравоохранение, жилищное обеспечение, пенсионное обеспечение, образование и компенсации за аренду жилья. В ходе исследования выявлены существующие проблемы и правовые пробелы, предложены практические рекомендации и меры по их устранению.

Ключевые слова: Военнослужащие, социальная защита, государственная политика, обеспечение жильём, компенсация аренды, Новое Узбекистан, военная пенсия, льготы на образование, правовые механизмы, эмпирический анализ, международный опыт.

Annotation. This article provides a systematic analysis of the state policy of the Republic of Uzbekistan on social protection of military personnel during the period of independence. The legal and organizational mechanisms covering such areas as healthcare, housing, pension provision, education and compensation for rental housing are considered. In the course of the research, existing problems and legal gaps were identified, practical recommendations and measures for their elimination were proposed.

Key words: Military personnel, social protection, state policy, housing provision, rent compensation, New Uzbekistan, military pension, educational benefits, legal mechanisms, empirical analysis, international experience.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Герасимов А.В., Лоза Г.Г. “Социальная защищенность военнослужащего”, Москва-1991 г., стр. 20, Ледях И.Н. “Защита прав человека в условиях перехода к ринку”, журнал Государство и право, 1993, № 6, Серебрякова Н.А. «Совершенствование системы социальной защиты военнослужащих», автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Саратов-2009, Голобородько И.В. «Финансовое и институциональное регулирование системы социальной защиты военнослужащих профессиональной армии», автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук,

Ярославль-2003, Горгола Е.В. «Совершенствование системы социально-экономического обеспечения военнослужащих на современном этапе военного строительства» автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Ярославль-2003, Кудаев А.В. «Социальная защита военнослужащих в условиях социально-экономического развития России», Диссертация на соискание ученой степени кандидата социологических наук, Москва-2008, Антипьева Н.В. «Социальное обеспечение военнослужащих: проблемы правового регулирования», Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридических наук, Москва-2005// https://www.dissercat.com.

2. Коровников А.В. “Социальная защита военнослужащих: становление, развитие и правовое регулирование”, Москва-1995, стр. 25// https://www.dissercat.com

3. Gaziev Sh.M. “Mustaqillik yillarida harbiy xizmatchilar ijtimoiy-huquqiy himoyasining rivojlanishi”, “Jamoat xafsizligi” ilmiy-amaliy jurnali, 2021 y. maxsus son-b 54-57; Ikramov A.A. “Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlash masalalari”, “Jamoat xafsizligi” ilmiy-amaliy jurnali, 2021 y. 2 son-b 84-92; A.R.Mamatov, K.R.Eshkuvatov “Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasiga taalluqli qonun hujjatlari bo‘yicha ba’zi mulohazalar”, O‘RMG HTI axborotnomasi, 2018 y. 4-son, 88-89 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 25 iyuldagi 169-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasi to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom. Lex.uz.

5. Tadqiqot doirasida harbiy xizmatchilar bilan ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazilgan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidagi vazirlik va idoralardan jami 500 nafar respondent ishtirok etgan.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 14-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi PQ-694-son qarori, https://lex.uz,

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joy sotib olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari hamda yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari berish tartibi to‘g‘risida”gi VMQ-619-sonli qarori, https://lex.uz, (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 33-son, 853-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son, 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 21.09.2018 y., 09/18/748/2024-son; 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son; 29.09.2020 y., 09/20/593/1340-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.08.2021 y., 09/21/537/0818-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son, 08.07.2022 y., 09/22/375/0618-son; 21.02.2023 y., 09/23/71/0097-son; 16.08.2023 y., 09/23/388/0617-son)

8. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 33-son, 853-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017 y., 10/17/1001/0447-son, 01.06.2018 y., 09/18/396/1287-son, 21.09.2018 y., 09/18/748/2024-son; 29.12.2019 y., 09/19/1046/4242-son; 29.09.2020 y., 09/20/593/1340-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.08.2021 y., 09/21/537/0818-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son, 08.07.2022 y., 09/22/375/0618-son; 21.02.2023 y., 09/23/71/0097-son; 16.08.2023 y., 09/23/388/0617-son, lex.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida, qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2021 y., 06/21/6230/0473-son, lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turar joy sotib olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari hamda yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari berish tartibi to‘g‘risida”gi 619-sonli qarori, https://lex.uz

11. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2019 y., 07/19/4447/3747-son; 07.03.2020 y., 07/20/4630/0266-son; 09.10.2020 y., 07/20/4857/1357-son; 24.03.2021 y., 07/21/5035/0228-son; 20.05.2021 y., 06/21/6230/0473-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.08.2021 y., 06/21/6274/0766-son, 08.10.2021 y., 06/21/6320/0940-son, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son, 30.11.2021 y., 06/21/26/1111-son, 20.04.2022 y., 06/22/112/0326-son, 25.08.2022 y., 07/22/362/0779-son; 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son; 05.08.2023 y., 07/23/259/0563-son; 22.08.2024 y., 07/24/296/0640-son)

12. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.03.2018 y., 09/18/244/0959-son; 02.07.2019 y., 09/19/548/3362-son; 31.12.2020 y., 09/20/830/1696-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09/21/319/0480-son, 26.10.2021 y., 09/21/656/0996-son, 27.12.2021 y., 09/21/774/1198-son; 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-сон, 14.07.2022 y., 09/22/385/0643-son, 29.09.2022 y., 09/22/541/0859-son; 25.10.2023 y., 09/23/560/0796-son; 29.12.2023 y., 09/23/705/1000-son; 10.07.2024 y., 09/24/380/0487-son)

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING 34 YILLIGI: HARBIY TA’LIMDA UUA BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI

Qodirov To‘lqinjon Tolibjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya va sun’iy intellekt imkoniyatlarini keng qo‘llash asosida ofitserlarning uchuvchisiz uchish apparatlari bilan ishlash kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: UUA, foydalanish, xalqaro hamkorlik, kompetensiya, ishlab chiqarish, texnologiya, bo‘lajak ofitser, qobiliyat, mahorat, ko‘nikma, malaka.

Hozirgi kunda dunyo siyosiy va harbiy maydonlarda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy qarama-qarshiliklar xavfsizlik sohasidagi tahdidlar va xavf-xatarlarni sezilarli darajada kuchaytirmoqda.

Jinoiy jazolarning samarali ijro etilishi uchun nazoratning zamonaviy shakllarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda, elektron kuzatuv vositalari – **elektron brasletlar**, maxsus monitoring qurilmalari va GPS-texnologiyalar asosida joriy etilayotgan nazorat shakllari jahon tajribasida o‘zini oqlagan bo‘lib, hozirda O‘zbekiston tajribasiga ham bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Masalan, 2021–2023 yillarda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi tomonidan sinov tariqasida mahkumlarni elektron nazorat ostida saqlashga oid loyihalar amalga oshirildi. Bu esa ozodlikni cheklash jazosi samaradorligini oshirish, jazo ijrosining shaffofligini ta’minlash hamda huquqbuzarning ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirishda muhim vosita bo‘ldi.

Professor S.Q. Jo‘rayev o‘zining “Zamonaviy jazo siyosatida muqobil jazo choralarining roli” nomli tadqiqotida shunday deydi: *“Ozodlikni cheklash jazosi – jamiyatdagi jinoyatchilikka qarshi insonparvar yondashuvdir[4]. Bunday yondashuv jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda nazorat ostida saqlash orqali uni ijtimoiy jihatdan tiklashga xizmat qiladi.”* U nazorat samaradorligini oshirishda elektron vositalarning joriy etilishini zamonaviy jinoyat profilaktikasining ajralmas bo‘lagi deb hisoblaydi.

Biroq bu borada ba’zi olimlar fikricha, elektron kuzatuv vositalarining qo‘llanilishi inson huquqlariga tahdid solishi, shaxsiy hayot daxlsizligiga xalaqit yetkazishi mumkin[5]. Masalan, **xalqaro huquqshunos olima H. Grexova** (Rossiya) bu vositalarni “erkinlik ustidan texnologik nazorat” deb atagan holda, ularni qo‘llashda qat’iy sud nazorati va qonuniy asoslarning shaffofligi zarurligini ta’kidlaydi[6].

Shunga qaramay, BMTning “Nelson Mandela qoidalari”da ta’kidlanganidek, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil bo‘lgan jazolarni keng qo‘llash, ayniqsa, kam og‘irlikdagi jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu qarashga ko‘ra, O‘zbekistonning ozodlikni cheklashni jazo tizimiga joriy qilishi va bu jazoni elektron vositalar orqali ijro etish mexanizmini ishlab chiqayotgani – inson huquqlarini ta’minlash yo‘lida tashlangan muhim qadamlardan biridir[7].

Demak, mazkur maqolada ozodlikni cheklash jazosining huquqiy asoslari, uning ijro tartibi, xalqaro va milliy tajribalar, elektron nazorat vositalarining roli hamda bu boradagi mavjud ilmiy qarashlar, bahsli jihatlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar fonida mazkur jazoning O‘zbekiston huquqiy tizimidagi o‘rni va istiqbollari xolisona yoritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijro tizimida ozodlikni cheklash jazosining samarali va insonparvar ijro etilishi uchun zamonaviy texnologiyalar, xususan elektron brasletlar va

boshqa kuzatuv vositalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ushbu yondashuv jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmasdan nazorat qilish orqali, ularni ijtimoiy reabilitatsiyaga jalb etishni ko‘zda tutadi. Mazkur yondashuv BMT tomonidan tasdiqlangan “Nelson Mandela qoidalari” (Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners) va Yevropa Kengashining “Probatsiya xizmati to‘g‘risidagi tavsiyalari”ga hamohangdir.

Elektron kuzatuv vositalarining amaliy qo‘llanilishi mahkumga nisbatan ozodlikni cheklash jazosi tayinlanganidan so‘ng, jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimi tomonidan elektron braslet shaxsan navbatchilik qismidan olinib, mahkumga uni ishlatish tartibi, xavfsizlik choralari, va ekspluatatsiya qoidalari yozma ravishda tushuntiriladi va imzosi olinadi. Bu jarayon sud hujjatlari asosida, shaxsning retsidiv xavfi, jinoyatning og‘irlik darajasi va ijtimoiy xatti-harakatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Professor M. Zokirov fikricha, elektron kuzatuv vositalari orqali olib borilayotgan monitoring tizimi “jazo ijrosining zamonaviy, adolatli va shaffof shakli bo‘lib, jamiyat xavfsizligini ta’minlash bilan birga, inson sha’ni va erkinligini muhofaza etadi”[8].

Elektron vositalar yordamida kecha-kunduzli kuzatuv imkoniyati yaratiladi. Ushbu kuzatuv tizimi hududiy IIB navbatchilik qismlariga ulangan bo‘lib, istalgan qoidabuzarlik aniqlanganda navbatchi xodimlar tomonidan zudlik bilan yuqori turuvchi rahbariyatga xabar beriladi. Bu esa nazoratni kuchaytirish, oldini olish choralarini tezkor ko‘rishga xizmat qiladi.

Agar mahkum tomonidan belgilangan cheklovlar buzilsa, Jinoyat-ijro kodeksining 444-moddasiga muvofiq, unga nisbatan ogohlantirish tarzida intizomiy choralar qo‘llaniladi. Takroran buzilish yoki qasddan bo‘yin tovlash holatlari aniqlanganda, jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan ozodlikni cheklashning qolgan muddatini boshqa turdagi jazo bilan almashtirish uchun sudga taqdimnoma kiritiladi.

JPK 542-moddasiga ko‘ra, agar mahkum sud chaqiruviga asossiz kelmasa, sud majlisi mahkum ishtirokisiz ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Ayniqsa, ozodlikdan mahrum qilishga almashtiriladigan hollarda sud ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish yoki qidiruv haqida qaror qabul qiladi.

Quyidagi holatlar JIKning 444-moddasi 3-qismida jazodan bo‘yin tovlash deb e’tirof etiladi:

- texnik nazorat vositalariga zarar yetkazish;
- yashash joyidan g‘oyib bo‘lish (3 kundan ortiq);
- elektron brasletdan foydalanuvchi qoidalarni buzish;
- cheklovlardan qat’iy ogohlantirishga qaramasdan qayta buzilish sodir etish.

Jazo muddati davomida, ayrim hollarda, Probatsiya bo‘limi tomonidan ruxsatnoma asosida mahkumga muayyan hududdan chiqishga yoki yashash joyini vaqtincha tark etishga cheklangan imkoniyatlar berilishi mumkin. Bunda mahkumning xatti-harakati, oilaviy sabablari, mehnat bandligi va boshqa asoslovchi holatlar inobatga olinadi. Ammo, bu ruxsatnomalarga prokuror sanksiyasi talab qilinadi, ayniqsa doimiy yashash joyini o‘zgartirish, boshqa viloyat yoki hududga chiqish kabi hollarda.

Xalqaro tajribada ham shunday yondashuvlar kuzatiladi. Masalan, Germaniya va Norvegiyada elektron kuzatuv vositalari qonuniy asosda cheklangan harakatlar bilan birga qo‘llaniladi va sud qarori bilan faqat muayyan maqsadlarga erishish uchun (ish, tibbiy yordam, oilaviy holat) gina vaqtincha ruxsat beriladi [9].

Mahkum jazoni o‘tash davomida namunali xatti-harakat ko‘rsatgan, yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni qoplagan bo‘lsa, jazoni ijro etish inspeksiyasi taqiqlarni bekor qilish bo‘yicha sudga taqdimnoma kiritishi mumkin. Bu yondashuv mahkumning ijobiy ijtimoiylashuvini rag‘batlantiradi. Bu borada Kriminolog olima D. Mamatqulova o‘z maqolasida shunday deydi: “Jazo ijrosi faqat jazolash emas, balki tiklash, jamiyatga qaytarish mexanizmini ham o‘z ichiga olishi lozim”[10].

Shuningdek, sud hukmi asosida mahkumning chegara postlaridan chiqib ketishining oldini olish uchun barcha tegishli xizmatlarga – “Aeroport”, “Temir yo‘l”, “Avtovokzal”, Bojxona va Chegara xizmati organlariga maxsus bildirishnomalar yuboriladi. Unda mahkumga tayinlangan jazoning muddati, cheklovlar va tugash sanasi ko‘rsatiladi. Bu esa davlat xavfsizligi va jazo ijrosining to‘laqonli nazorat ostida bo‘lishiga xizmat qiladi.

JIKning 168-moddasiga muvofiq, ozodlikni cheklash jazosining muddati belgilangan kun tugagach, agar u dam olish yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelsa, undan bir kun oldin tugallanadi. Bu tartib ham mahkumlar huquqlarining kafolatlanishiga qaratilgan bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotga qaytishini soddalashtiradi.

Yuqorida tahlil qilingan ma’lumotlardan kelib chiqib, ozodlikni cheklash jazosi O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-huquqiy tizimida muhim o‘rin egallagan, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali vosita bo‘lib xizmat qilayotgan jazo turi ekanligi ko‘rinadi. Ushbu jazo jamiyatda jinoyat sodir etgan

shaxsni to‘liq ijtimoiy muhitdan ajratmagan holda, uning huquqiy xatti-harakatlari ustidan nazorat o‘rnatish orqali tuzalishiga imkon yaratadi.

Shuningdek, xalqaro tajribada ushbu jazoning uch modelda qo‘llanishi va ularning ijtimoiy samaradorligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida tanlangan “jamiyatda qolish” modeli inson huquq va erkinliklariga mos tarzda, huquqbuzarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlash imkonini beradi.

Shunga asosan, quyidagi **takliflar**ni ilgari surish mumkin:

1. Ozodlikni cheklash jazosining qo‘llanish amaliyotini kengaytirish: Jinoyatlarning engil va o‘rta og‘ir toifasiga kiruvchi holatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosi o‘rniga ozodlikni cheklash jazosini kengroq qo‘llash orqali mahkumni ijtimoiy hayotdan uzilmagan holda isloh qilishga erishish mumkin.

2. Mahkumlar ustidan nazorat tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish: Elektron braslet va boshqa kuzatuv vositalarini qo‘llash amaliyotini takomillashtirish, texnik infratuzilmani zamonaviylashtirish, shuningdek, profilaktika organlari faoliyatini yagona elektron axborot tizimida muvofiqlashtirish zarur.

3. Probatsiya va jazoni ijro etish organlari salohiyatini oshirish: Ushbu organlarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar malakasini oshirish, ularni huquqiy, psixologik va ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minlash samaradorlikni oshiradi.

4. Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish: Mahkumning xulq-atvori, ijtimoiy muomalasi va majburiyatlarga rioya qilishi ustidan jamoat tashkilotlari, fuqarolar yig‘inlari va ta’lim muassasalari ishtirokida nazorat o‘rnatish orqali jazoning ijtimoiy mazmuni kuchaytiriladi.

5. Normativ-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish: Ozodlikni cheklash jazosiga oid qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, ayniqsa voyaga yetmaganlarga nisbatan qo‘llanish mexanizmlarini aniqlashtirish zarur.

6. Mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiyaga tayyorlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish: Jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvi uchun mehnat va ta’lim imkoniyatlarini yaratish, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются правовые реформы, развитие уголовно-исполнительной системы и государственная политика по обеспечению прав и свобод человека в период 34-летия государственной независимости Республики Узбекистан.

Ключевые слова: ограничение свободы, мера наказания, закон, репрессивный, гуманный, уголовный, альтернативный, контроль, электронный браслет, мониторинг.

Abstract. This article outlines the legal reforms, development of the criminal enforcement system, and the state policy aimed at ensuring human rights and freedoms during the 34th anniversary of the independence of the Republic of Uzbekistan.

Key words:restriction of liberty, punishment measure, law, repressive, humane, criminal, alternative, control, electronic bracelet, monitoring.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. “Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimidagi islohotlar”. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijro kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
3. Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish departamenti hisobotlari (2021–2023 yillar).
4. Jo‘rayev S.Q. “Zamonaviy jazo siyosatida muqobil jazo choralarining roli”. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022.
5. Xalqaro inson huquqlari instituti. “Shaxsiy hayot daxlsizligi va elektron kuzatuv vositalari”. – Parij, 2021.
6. Grexova H. “Texnologik nazorat va inson erkinligi: huquqiy muammolar”. // Rossiya yuristlar jurnali. – 2020. №4.
7. BMT. “Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners” (Nelson Mandela Rules). – New York, 2015.
8. Zokirov M. “Elektron nazorat vositalarining huquqiy va ijtimoiy asoslari”. – Toshkent, 2023.
9. European Probation Rules. Recommendation CM/Rec(2010)1 of the Council of Europe. – Strasbourg, 2010.
10. Mamatqulova D. “Jazo ijrosi va ijtimoiy reabilitatsiya: zamonaviy yondashuvlar”. // Kriminologiya jurnali. – 2022. №2.

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI VA HUQUQIY ISLOHOTLAR SAMARASI: ELEKTRON BRASLET ORQALI MASOFAVIY NAZORAT TIZIMI TAJRIBASI

Kamilxanov Jamshidxon Kamilxanovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Kamolov Abdullo Abdurazzokovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda mustaqillik yillarida jinoyat-ijroiya tizimida joriy etilgan elektron brasletlar orqali masofaviy nazorat tizimi haqida so‘z boradi. 2015-yildan ozodlikni cheklash jazosini fuqarolarni jamiyatdan ajratmasdan qo‘llash va belgilangan cheklovlarga rioya etilishini ta’minlash maqsadida mazkur texnologiya joriy etilgani qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, mustaqillik, huquqiy islohotlar, elektron braslet, masofaviy nazorat, probatsiya, ozodlikni cheklash, jinoyat-ijroiya tizimi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 1-sentabrda o‘zining davlat mustaqilligini e’lon qilganidan buyon o‘tgan o‘ttiz to‘rt yil davomida mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash borasida tizimli va bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirildi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgiladi.

Bunda jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat xavfsizligini ta’minlash va shaxs huquqlarini muhofaza qilish sohalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, ozodlikni cheklash va uy qamog‘i kabi ehtiyot choralari va jazo turlarini amalga oshirishda inson huquqlariga rioya qilingan holda, ular ustidan samarali nazoratni ta’minlash masalasi dolzarblik kasb etdi.

Bu yo‘nalishdagi ilg‘or tashabbuslardan biri sifatida, 2015-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya tizimiga ozodlikni cheklash turidagi jazo turi joriy etildi. Mazkur jazo turini qo‘llashda fuqarolarni jamiyatdan butunlay ajratmagan holda, belgilangan cheklovlarga rioya etishini ta’minlash zarurati yuzaga keldi. Shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, elektron brasletlar orqali masofadan turib nazorat qilish amaliyoti joriy etildi[1].

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 443-moddasida ozodlikni cheklash turidagi jazo tayinlangan shaxslarga elektron kuzatuv vositalarini qo‘llash huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shuningdek, “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonunda ham probatsiya nazoratining zamonaviy shakllaridan foydalanish imkoniyatlari belgilab berilgan[2].

Bu normalar elektron brasletlar orqali amalga oshiriladigan masofaviy kuzatuv tizimining huquqiy poydevorini tashkil etadi.

2024-yil 5-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 813-sonli qarori qabul qilinishi orqali ushbu tizimni amaliyotga joriy etishning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Qarorda 2025-yildan boshlab masofaviy elektron kuzatuv tartibini bosqichma-bosqich joriy etish ko‘zda tutilgan.

Elektron brasletlar orqali masofadan turib nazorat qilish amaliyoti nafaqat shaxsni belgilangan joyda ushlab turishda, balki uning huquq va erkinliklarini maksimal darajada hurmat qilgan holda, javobgarlikni ta’minlash va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Bu texnologiya nafaqat nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga, balki insonparvar jazo siyosati orqali jamiyatda huquqiy ong va fuqarolik mas’uliyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

2015-yil 10-avgustda O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya tizimida

ozodlikni cheklash turidagi jazo rasman joriy etildi. Ushbu jazo jamoatdan ajratmagan holda, muayyan cheklovlar bilan shaxsni nazorat ostida ushlash imkonini beradi. Bunday fuqarolarga nisbatan belgilangan cheklovlarni masofadan turib kuzatib borish, jinoyatni qayta sodir etilishining oldini olish uchun elektron brasletlardan foydalanish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi[3].

Jinoyat-ijroiya kodeksining 443-moddasiga asosan, ozodlikni cheklash turidagi jazoga hukm qilingan shaxsga nisbatan elektron kuzatuv vositalari qo‘llanilishi mumkin.

2020-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan elektron brasletlarni sinovdan o‘tkazish, ularni probatsiya xizmati faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish bo‘yicha maxsus dastur tasdiqlandi. Test natijalari “Hytera Communications” hamda “Titan Group FZE” kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan qurilmalarning texnik xususiyatlari asosida tahlil qilindi.

Sinovlar natijasida, oyoqqa taqiladigan elektron brasletlar inson sog‘lig‘i uchun xavfsiz, texnik jihatdan samarali hamda barqaror aloqa ta’minlash imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi[4].

2024-yil 5-dekabrda Vazirlar Mahkamasining 813-sonli qarori qabul qilindi, unga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvardan boshlab uy qamog‘i va ozodlikni cheklash jazosi qo‘llanilgan shaxslarni masofadan turib nazorat qilish tartibi amalga joriy etiladi. Bu orqali:

– javobgarlikning muqarrarligi ta’minlanadi;

– profilaktika nazorati samaradorligi oshadi;

– ichki ishlar organlari xodimlarining ish yuklamasi kamayadi;

– elektron shaffoflik va hisobot mexanizmlari yuzaga keladi.

Konstitutsiyada inson huquqlari ustuvor ahamiyatga ega ekanligi bir necha moddalarda o‘z ifodasini topgan:

13-modda: Inson huquqlari – oliy qadriyat.

19-modda: Har bir shaxsning huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

28-modda: Har kim erkin harakatlanish huquqiga ega. Faqat qonun bilan cheklash mumkin.

30-modda: Davlat organlaridan axborot olish huquqi kafolatlanadi.

Elektron brasletlar orqali kuzatuv ana shu konstitutsiyaviy prinsiplarga mos holda, inson huquqlarini buzmasdan, jamoat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mazkur tizimning joriy etilishi “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun, PF-6196-sonli va PF-27-sonli Prezident farmonlariga ham asoslangan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda insonparvar jazo siyosatiga, jamoat xavfsizligi va fuqarolarning huquqlarini muvozanatda ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Elektron brasletlar orqali nazorat tizimi — shunga yorqin misoldir. Bu amaliyot nafaqat qayta jinoyat sodir etilishining oldini oladi, balki fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyatda adolatli sud-huquq tizimini barpo etish, demokratik islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha mustahkam qadamlar tashladi. 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur strategiyada inson huquqlari, xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va sud-tergov jarayonida shaffoflikni ta’minlashga alohida urg‘u berilgan.

Shu bilan birga, huquqiy sohadagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash va uni samarali nazorat qilish tizimini takomillashtirish masalasi kun tartibiga chiqdi. Ushbu institut nafaqat shaxs erkinligiga daxldor bo‘lgan holatlar, balki insonparvarlik va huquqiy kafolatlar mezoni sifatida ham ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 237-moddasida qayd etilgan uy qamog‘i ehtiyot chorasi, amalda, qamoqqa olish bilan bog‘liq noqulayliklar va salbiy ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu chora, asosan, ayblanuvchi yoki gumonlanuvchining surishtiruv, tergov va suddan yashirinib yurishi, ishga to‘sqinlik qilishi yoki yana jinoyat sodir etishining oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Tadqiqotchi E.K. Kutuyevning ta’kidlashicha, uy qamog‘i o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra qamoqqa olishga eng yaqin chora bo‘lib, jinoyat-protsessual qonunchilikda unga nisbatan yuqori darajadagi protsessual talablar qo‘yiladi. Olim A.P. Vasilev esa uy qamog‘ini “jamiyatdan ajratish va muloqot erkinligini cheklash” orqali shaxsga ta’sir etuvchi mexanizm sifatida ta’riflaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari asosida uy qamog‘ini qo‘llashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish choralari

ko‘rilmoqda. Xususan, elektron brasletlar orqali shaxs harakatini masofadan turib nazorat qilish mexanizmi joriy etildi. Bu nafaqat shaffoflikni ta’minlaydi, balki shaxsning asossiz ravishda jazo chorasiga duchor bo‘lish ehtimolini ham kamaytiradi.

Qolaversa, 14 ta normativ-huquqiy hujjat uy qamog‘i ehtiyot chorasini qo‘llashni tartibga soladi. Jumladan: Jinoyat-protsessual kodeks, “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun, Ichki ishlar va advokatlik to‘g‘risidagi qonunlar, Prezident farmonlari va Ichki ishlar vazirligining buyruqlari.

Bu holat ushbu sohadagi huquqiy baza yetarlicha mustahkamlanganini, amaliyot esa zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Ilmiy-tadqiqot natijalariga ko‘ra, uy qamog‘i nazoratida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va qonunchilikni doimiy ravishda yangilab borish zarur. Rossiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqa davlatlarda uy qamog‘ini qo‘llashdagi muvaffaqiyatli tajribalarni tahlil qilish, ularni mahalliy amaliyotga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Jamiyatimizda jinoyatchilikning oldini olish, shuningdek ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan siyosat davom ettiriladi[5].

Darhaqiqat, kriminologik adabiyotlar tahlili[6] kriminologik faoliyat amaliyotida uy qamog‘i ehtiyot chorasi ijrosini nazorat qilishni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini qo‘llashda masalalar yuzaga kelayotganligini ko‘rsatadi.

Vaholanki, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 30-bandida probatsiya nazoratidagi shaxslarning xatti-harakatlarini, ularga elektron braslet vositasini taqqan holda, real vaqt rejimida elektron kuzatish va monitoring qilish tartibini joriy qilish[3] shuningdek, probatsiya nazoratidagi shaxslarni masofadan turib nazorat qilishni ta’minlovchi zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etgan holda probatsiya xizmati faoliyatini raqamlashtirish, xususan, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini real vaqt rejimida kuzatish uchun elektron brasletdan foydalanish amaliyotini joriy etish, elektron brasletlarni hamda ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun server va ushbu tizimga aloqador qurilmalarni xarid qilish, monitoring qilishning zamonaviy mobil texnologiyalarini tatbiq etish, maxsus dasturiy ta’minotni ishlab chiqish, probatsiya nazoratidagi shaxslarni umumiy nazorat qilish uchun Ichki ishlar vazirligi probatsiya xizmatida yagona elektron monitoringni (monitoring markazini) tashkil etish[7] vazifasi belgilanganligi bu boradagi tadqiqot ishini sinchkovlik bilan amalga oshirishni taqozo etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimizda inson qadri va erkinligi – ustuvor ekanligi yuqoridagi fikrlarga asoslanadi.

Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida ta’kidlanganidek, inson huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq holda cheklanishi mumkin. Uy qamog‘i kabi ehtiyot choralarini qo‘llashda ham aynan shu konstitutsiyaviy talab ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Xullas, mustaqilligimizning 34 yilligi mobaynida mamlakatimizda inson qadri, huquqiy kafolati va adolatni ta’minlashga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirildi. Fikrimizning yorqin dalili uy qamog‘i institutini takomillashtirish orqali nafaqat sud-tergov jarayoni, balki jamiyatda huquqiy madaniyat va fuqarolar ishonchini mustahkamlashga zamin yaratildi.

Аннотация. В данной статье рассматривается система дистанционного контроля с использованием электронных браслетов, внедрённая в уголовно-исполнительную систему Узбекистана в годы независимости. Отмечается, что с 2015 года данная технология применяется с целью исполнения наказания в виде ограничения свободы без изоляции граждан от общества и обеспечения соблюдения установленных ограничений.

Ключевые слова: Узбекистан, независимость, правовые реформы, электронный браслет, дистанционный контроль, пробация, ограничение свободы, уголовно-исполнительная система.

Abstract. This article examines the remote monitoring system using electronic bracelets, introduced into Uzbekistan's penal system during the years of independence. It is noted that since 2015, this technology has been applied to enforce the punishment of restriction of liberty without isolating citizens from society, ensuring compliance with established restrictions.

Key words: Uzbekistan, independence, legal reforms, electronic bracelet, remote monitoring, probation, restriction of liberty, penal system.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi– Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023 – B.61.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya tizimiga ozodlikni cheklash jazosining joriy etilishi va elektron brasletlar amaliyoti (2015-yil, VM qarori asosida).
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi, 443-modda; “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-dekabrdagi 813-sonli “Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
5. Elektron brasletlar bo‘yicha 2020-yildagi sinov dasturi; “Hytera Communications” va “Titan Group FZE” qurilmalariga oid texnik tahlillar.
6. Ikramov A.I., Gordeev S.N., Fozilov I.Yu. Uy qamog‘idagi shaxslarning uy-joyini tark etmaslik chekloviga rioya etishini nazorat qilish amaliyotini tahlili / Maqola // «Jamoat xavfsizligi masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi byulleteni» ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 110-113.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF-6196-son Farmoni bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlari tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 22-bandi //https://lex.uz/docs/5344118.

ЯЗЫКОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Тригулова Татьяна Александровна,
Старший преподаватель,
Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. В статье рассматриваются основные направления и результаты реформ языкового образования в Республике Узбекистан за годы независимости. Особое внимание уделено нормативно-правовой базе, кадровому обеспечению, развитию инфраструктуры, внедрению цифровых технологий и международному сотрудничеству. Анализируется связь языкового образования с укреплением межкультурного диалога и обеспечением общественной безопасности. Приводятся статистические данные и примеры успешных практик. Сделан прогноз развития языкового образования до 2030 года..

Ключевые слова: Узбекистан, языковое образование, реформы, многоязычие, цифровизация, международное сотрудничество, общественная безопасность, межкультурный диалог.

В современную эпоху глобализации владение языками приобретает статус одного из приоритетных факторов, определяющих как устойчивое социально-экономическое развитие, так и уровень национальной и общественной безопасности. Дефицит навыков межкультурного общения и недостаточный уровень языковой подготовки способны создавать серьёзные коммуникативные барьеры, провоцировать недопонимание и усиливать напряжённость в обществе. Напротив, сформированная компетенция в государственном, иностранных и региональных языках укрепляет взаимное доверие, развивает культуру толерантности и существенно снижает риск возникновения конфликтов [1; 2]. Исходя из этого, проводимые в Узбекистане на протяжении всей истории независимости реформы в области языкового образования закономерно рассматриваются как важнейший компонент национальной стратегии, направленной на обеспечение общественной стабильности и выстраивание гармоничных межэтнических и межкультурных отношений.

С обретением государственной независимости в 1991 году Республика Узбекистан приступила к масштабной модернизации национальной системы образования, рассматривая её как ключевую опору социально-экономического развития, укрепления национальной идентичности и формирования высококвалифицированного, конкурентоспособного человеческого капитала [3]. Центральное место в этом процессе заняла реформа языкового образования, охватившая все ступени — от начального и среднего до высшего и системы непрерывного обучения взрослых. Нормативно-правовой фундамент этих преобразований был заложен Законом Республики Узбекистан "Об образовании" 1992 года и Национальной программой подготовки кадров 1997 года [4; 5], которые закрепили принцип обязательного изучения как государственного, так и иностранных языков на всех уровнях образовательной системы.

Знаковым этапом в развитии языкового образования стал Указ Президента Республики Узбекистан от 10 декабря 2012 года № ПФ-1875 "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков" [6], в котором был закреплён принцип раннего начала обучения иностранным языкам — с первого класса общеобразовательной школы. Документ также определил комплекс мер по модернизации системы подготовки педагогических кадров с ориентацией на международные стандарты владения языком CEFR. Дальнейшее ускорение реформ придала "Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017–2021 годы" [7], где развитие языковой компетенции населения было обозначено как ключевой инструмент гармонизации межэтнических отношений, укрепления толерантности и достижения национального согласия.

Актуальная языковая политика Республики Узбекистан формируется на основе принципов многоязычия, инклюзивности и активной интеграции в мировое образовательное пространство, что

согласуется с рекомендациями ЮНЕСКО о необходимости сохранения культурного разнообразия и обеспечения широкого доступа к языковому образованию [8]. При разработке и реализации стратегических инициатив приоритет отводится приведению образовательных стандартов в соответствие с международными нормами, включая шкалу CEFR, а также внедрению проверенных практик государств, достигших значительных успехов в области полилингвального обучения, таких как Финляндия, Сингапур и Казахстан.

Кадровый состав системы языкового образования Узбекистана за последние годы претерпел заметные качественные изменения. По данным на 2024 год, в общеобразовательных школах страны работают 48 646 преподавателей иностранных языков, однако лишь 11 523 из них обладают национальными или международными сертификатами владения языком на уровнях B2–C2, в том числе B2 — 4 703 человека, C1 — 6 799 и C2 — 21 педагог [9]. Результаты тестирования 2021 года показали, что 49 % учителей не смогли подтвердить требуемый уровень компетенции [10; 11], что стало стимулом для запуска масштабной программы повышения квалификации. В период с 2021 по 2024 годы свыше 15 тысяч педагогов прошли обучение по современным методикам преподавания. Показательным примером служит Сырдарьинская область, где 75 % преподавателей иностранных языков имеют подтверждённые сертификатами профессиональные компетенции [12].

Развитие материально-технической базы шло в тесной взаимосвязи с укреплением кадрового потенциала. В период с 2014 по 2024 годы количество школ с углублённым изучением иностранных языков выросло более чем в 2,5 раза. В 208 учебных заведениях была внедрена модель обучения, предполагающая освоение одной профессии и двух иностранных языков, а к началу 2024/2025 учебного года этот показатель, по прогнозам, достигнет 356 [13]. В 2023/2024 учебном году в образовательный процесс были привлечены 500 иностранных специалистов, а 8 951 ученик получил международный сертификат, подтверждающий уровень владения иностранным языком. Успехи учащихся на международных олимпиадах также значительно возросли: было завоёвано 122 медали по языкам и смежным дисциплинам — что в 2,7 раза превышает результат 2022 года [13]. Отдельное внимание уделялось обеспечению школ современными учебными материалами: за последние годы в образовательные учреждения поступило 2,7 млн учебников по английскому языку, 727,2 тыс. — по ИКТ и 224,3 тыс. — по немецкому языку [13].

Инновационное развитие и цифровизация стали одними из приоритетных направлений новейших реформ в сфере языкового образования. В учебный процесс активно интегрируются интерактивные образовательные платформы (Moodle, Edmodo), системы дистанционного обучения (Google Classroom, Microsoft Teams), мобильные приложения (Duolingo, LinguaLeo), а также технологии виртуальной и дополненной реальности (VR/AR), которые позволяют моделировать реальные коммуникативные ситуации и тем самым повышать практическую ценность обучения [9]. Широкое распространение получили массовые открытые онлайн-курсы (Coursera, FutureLearn), предоставляющие учащимся прямой доступ к ведущим мировым образовательным ресурсам. Национальные проекты в этой области нацелены на расширение академической мобильности и создание условий для обмена опытом между отечественными и зарубежными образовательными учреждениями.

Международное сотрудничество занимает одно из ключевых мест в развитии системы языкового образования, одновременно выступая инструментом формирования "мягкой силы" государства [14]. Республика Узбекистан активно вовлекается в международные образовательные программы и проекты, такие как Erasmus+, DAAD, Fulbright, а также другие инициативы, направленные на обмен опытом, повышение квалификации и подготовку высококлассных специалистов. Так, Самаркандский государственный институт иностранных языков поддерживает партнёрские связи с университетами 45 стран мира и обучает свыше 3 300 студентов, включая магистрантов и докторантов. В свою очередь, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои заключил соглашения более чем с 50 зарубежными образовательными учреждениями, реализует совместные проекты и принимает на обучение иностранных студентов и профессоров [15; 16].

Сфера языкового образования в Узбекистане имеет прямое отношение к обеспечению общественной безопасности, выступая одним из факторов предупреждения социальных рисков и конфликтов. Развитие многоязычия способствует снижению вероятности межэтнических и межконфессиональных противоречий, укреплению атмосферы доверия между различными социальными и культурными группами, а также повышению уровня информационной безопасности [17]. Владение иностранными языками даёт возможность специалистам работать с первоисточниками, проводить критический анализ зарубежных материалов и оперативно выявлять недостоверную информацию, что приобретает особую значимость в условиях глобальных информационных угроз.

В стратегической перспективе до 2030 года планируется дальнейшее расширение сети билингвальных и трилингвальных школ, создание единой национальной онлайн-платформы для изучения языков, внедрение инновационных методик преподавания на основе искусственного интеллекта и развитие междисциплинарных образовательных программ, интегрирующих языковую подготовку с профессиональными компетенциями [13].

В целом, реформирование языкового образования в годы независимости можно рассматривать как стратегический приоритет государственной политики, обеспечивающий рост конкурентоспособности выпускников, укрепление международных гуманитарных связей и формирование толерантного, устойчивого и социально сплочённого общества.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida amalga oshirilgan til ta’limi sohasidagi islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va natijalari yoritilgan. Normativ-huquqiy asos, kadrlar salohiyati, infratuzilma rivoji, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Til ta’limining madaniyatlararo muloqot va jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilingan. Statistik ma’lumotlar va ilg‘or tajriba misollari keltirilgan. 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun til ta’limi rivoji prognozi berilgan.

Kalit so‘zlar. O‘zbekiston, til ta’limi, islohotlar, ko‘p tillilik, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik, jamoat xavfsizligi, madaniyatlararo muloqot.

Abstract. The article examines the main directions and outcomes of language education reforms in the Republic of Uzbekistan since its independence. Special attention is given to the legal framework, human resources, infrastructure development, integration of digital technologies, and international cooperation. The study analyzes the relationship between language education, intercultural dialogue, and public security. Statistical data and examples of best practices are provided. A forecast for the development of language education until 2030 is presented.

Key words. Uzbekistan, language education, reforms, multilingualism, digitalization, international cooperation, public security, intercultural dialogue.

Использованная литература:

1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017–2021 годы: Указ Президента РУз от 7 февраля 2017 г. № УП-4947.
2. Karimov, I.A. The Concept of Further Deepening the Democratic Reforms. — Tashkent, 2012.
3. Саидов, А.Х. Правовые основы реформирования системы образования в Республике Узбекистан // Право и политика. — 2015. — № 8.
4. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 29 августа 1997 г.
5. Национальная программа подготовки кадров. — Ташкент, 1997.

6. Президент Республики Узбекистан. Указ № ПФ-1875 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков» от 10 декабря 2012 г.

7. Президент Республики Узбекистан. Постановление Кабинета Министров № 124 от 8 марта 2013 г. «О мерах по внедрению CEFR».

8. UNESCO. Framework for Enabling Intercultural Dialogue. — Paris, 2019.

9. Abdullaeva, N. Digital Innovations in Language Education in Uzbekistan // Journal of Education and Practice. — 2020. — Vol. 11, No. 14. — P. 45–53.

10. Nuz.uz. Тестирование на получение сертификата провалили 49 % учителей иностранных языков. — 06.05.2021.

11. Kun.uz. В регионах проверили знания учителей иностранных языков: почти половина провалили экзамены. — 06.05.2021.

12. Uza.uz. Растет количество учителей, имеющих национальный и международный сертификаты по языкам. — 2024.

13. Uzbekistan.jp. Итоги развития системы изучения иностранных языков в 2023/2024 учебном году. — 2024.

14. Nye, J. Soft Power: The Means to Success in World Politics. — PublicAffairs, 2004.

15. Самаркандский государственный институт иностранных языков. https://samdchti.uz — 2024.

16. Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы им. Алишера Навои. https://tsuull.uz. — 2024.

17. Fishman, J.A. Language and Ethnicity in Minority Sociolinguistic Perspective. — Multilingual Matters, 2013.

МЕЖКУЛЬТУРНАЯ ЭМПАТИЯ - КЛЮЧ К МИРУ И БЕЗОПАСНОСТИ В МНОГОНАЦИОНАЛЬНОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Землянкина Юлианна Искандаровна,
преподаватель английского языка,
Узбекского государственного университета мировых языков

Аннотация. Статья исследует межкультурную эмпатию как ключевой фактор мира и безопасности в многонациональном Узбекистане. Подчеркивается, что понимание и принятие культурных различий, а также способность сопереживать другим этносам и религиям, необходимы для гармоничного сосуществования и предотвращения конфликтов. Анализируются когнитивные, эмоциональные и поведенческие аспекты эмпатии, а также влияющие на нее факторы (образование, опыт, СМИ). Предлагаются практические меры по развитию межкультурной компетентности и толерантности, что является стратегически важным для устойчивого развития Узбекистана.

Ключевые слова: межкультурная эмпатия, толерантность, этничность, многонациональность.

Согласно Указу Президента Республики Узбекистан, от 01.07.2021 г. № УП-6255 об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по противодействию экстремизму и терроризму на 2021–2026 годы, в условиях глобализации и трансформации международных и региональных конфликтов, вопросу формирования эффективных механизмов предотвращения экстремизма и терроризма отведено приоритетное значение. [1] Определен и успешно реализуется ряд действенных мер и усилий в направлении данной сферы государственной политики. Как заявил сам глава государства, представляя программу «Стратегия Нового Узбекистана», «*среди множества направлений — сохранение мира, укрепление дружбы и согласия в обществе. защита прав и свобод всех жителей, независимо от нации, языка и религии…*». [2]

Узбекистан, расположенный в сердце Центральной Азии, представляет собой яркий пример многонационального государства, в котором испокон веков мирно сосуществуют различные этнические группы с уникальным культурным многообразием, языками и традициями, каждая из которых внесла свой вклад в формирование самобытности республики. В условиях глобализации и социального разнообразия одной из первостепенных задач становится укрепление внутренней стабильности и безопасности страны. В этом ключе важную роль играет межкультурная эмпатия (МЭ) — способность понимать и чувствовать переживания других людей из разных культур.

В данной статье мы рассмотрим, как МЭ способствует поддержанию политической и социальной стабильности, мира и безопасности в Узбекистане.

Понимание межкультурной эмпатии.

Говоря о МЭ, необходимо дать определение самому понятию эмпатии, которое все чаще становится предметом изучения в современных исследованиях. Также следует отметить, что МЭ является ключевым компонентом межкультурной компетенции, которая в свою очередь, входит в навыки (компетенции) 21 века.

В научной литературе эмпатия представляет собой многогранный феномен, состоящий из трех основных компонентов: когнитивного, эмоционального и поведенческого [Riess & Neporent, 2018].

Когнитивная эмпатия — это мысленное понимание опыта другого человека и того, что в результате этого опыта он чувствует и думает, то есть способность увидеть ситуацию его глазами [Hodges & Myers, 2007].

Эмоциональная эмпатия это способность распознавать, воспринимать и эмоционально разделять чувства и переживания других людей [Hoffman, 1996].

Поведенческая эмпатия объединяет в себе когнитивную и эмоциональную и выражается в действиях, направленных на то, чтобы помочь

другому человеку пережить неприятную для него ситуации [Toi & Batson, 1982].

Следовательно, эмпатия может проявляться на когнитивном, эмоциональном и поведенческих уровнях. Эмпатия, в частности ее эмоционально-поведенческий аспект, тесно связан с моральной эмоцией сочувствия и заботы, а также с просоциальными и альтруистическими поведением [Keen, 2006].

В психологической и социологической научной среде появляется всё больше исследований доказывающих гипотезу о том, что эмпатическое сопереживания вызывает в сопереживающем альтруистическую мотивацию помочь человеку, оказавшемуся в беде, тем самым ещё больше повышая социальное значение данного феномена [Toi & Batson, 1982; Batson, 1991; Best, 2000; Bierhoff, 2003; de Waal, 2008; Spinrad, T.L. & N.Eisenberg, 2014).

Таким образом МЭ может быть определена как способность понимать, ценить и разделять чувства людей, принадлежащих к разным культурам. Она предполагает признание и уважение культурных различий в ценностях, убеждениях, поведении, образе жизни и стилях общения. Эта концепция особо важна в контексте Узбекистана, где множество этнических групп, таких как узбеки, русские, казахи, татары, корейцы таджики, каракалпаки, и многие другие живут бок о бок. Для достижения и сохранения социальной гармонии необходимо, чтобы представители различных этносов учились относиться к друг другу с пониманием, уважением и толерантностью.

Бэррон (2020) описывает межкультурную эмпатию как «вхождение в культурный фон другого» и способность эффективно передать это эмпатическое понимание. Что, в свою очередь, требует сформированности сознания, направленного на включенность в культурно-социальный контекст, готовность к диалогу культур и проникновение в картину мира партнера по общению с целью более глубокого и гармоничного взаимодействия. Это включает в себя активное слушание, открытость к различным взглядам и желание понять внутренний мир другого человека, даже если он отличается от вашего собственного.

Влияние межкультурной эмпатии на социальную стабильность.

В Узбекистане, как и в любой стране, в условиях разнообразия населения, существует риски этнической напряженности, недоразумения и конфликтов связанных с различиями национальных и культурных идентичностей. Именно МЭ создает основу для социальной стабильности, укрепляет связи между различными этническими группами, способствует предотвращению враждебности, неприятия, предубежденности и стереотипов по отношению к друг другу.

Следует отметить, что в начальные годы статуса независимости в нашей стране не только возникла совершенно новая социально-политическая ситуация, но и появилась угроза развития пороков национализма и национального противостояния, посеянными враждебными элементами накануне. Но, благодаря мудрой национальной политики руководства Узбекистана, направленной на объединение людей всех рас и гуманности узбекской нации эти явления были грамотно пресечены, и по сей день в нашей республике царит атмосфера ментальной толерантности. Как подчеркивает в одном из своих выступлений Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев «*…мирная жизнь в Узбекистане в обстановке взаимопонимания и согласия представителей более 130 наций и народностей одно из наших важнейших достижений за годы независимости. Укрепление межнационального согласия и дружбы, в обеспечение которых большой вклад вносят 137 действующих в стране национальных культурных центров, и впредь остается одним из приоритетных направлений государственной политики. Усиление атмосферы толерантности между разными конфессиями, обеспечение равноправия граждан независимо от их вероисповедания является для нас одной из приоритетных задач*». [3]

Когда люди начинают видеть друг друга как индивидуальности, а не как представителей определенной этнической группы, это приводит к более продуктивному взаимодействию и сотрудничеству. Таким образом, развитие МЭ становится важным шагом к социальной интеграции, поддерживает мир и безопасность для всех граждан.

Межкультурная эмпатия в контексте

политической стабильности

Политическая стабильность является ключевым фактором и залогом безопасности любой страны. Существует неоспоримая связь между МЭ и механизмами политического регулирования, что влияет на легитимность власти и участие граждан. В Узбекистане, где исторически существовали различные политические и общественные режимы, особенно важно учитывать роль межкультурной эмпатии в укреплении политической стабильности. Эмпатия обеспечивает понимание потребностей и ожиданий всех групп, что, в свою очередь, способствует их политической интеграции и формирует ответственные гражданские позиции.

Когда лидеры стремятся к построению диалога с различными этническими группами и создают условия для их равного участия в политической жизни страны, это укрепляет доверие населения к правлению и принятым решениям.

Политическая поддержка программ по развитию межкультурных отношений, межкультурной эмпатии и открытого диалога между этническими группами ведет к консолидации гражданского общества и формированию интегративного подхода, основанного на уважении и понимании.

Более того, МЭ способствует формированию позитивного имиджа Узбекистана на международной арене. Страна, которая демонстрирует способность к гармоничному сосуществованию различных культур, привлекает внимание как надежный партнер и как пример успешной модели межэтнических отношений. Это, в свою очередь, способствует экономическому развитию, привлечению инвестиций и укреплению международных связей.

Образование как базовый фактор развития межкультурной эмпатии

Образование играет ключевую роль в формировании МЭ. В Узбекистане образовательная система является важным инструментом, который может содействовать формированию уважения и понимания различных культур. Включение межкультурного образования в дошкольные, школьные и университетские программы способствует воспитанию у молодого поколения толерантности и уважительного отношения к культурным различиям и общечеловеческим ценностям, а также выработке ментального иммунитета к глобальным угрозам.

Важнейшей задачей современного образования является воспитания человека, обладающего высокой культурного, чувством самоуважения и уважающего других, способного строить взаимоотношения в процессе взаимодействия с окружающими на основе сотрудничества и взаимопонимания, и относится толерантно к представителям иной культуры, которые имеют иные ментальность, ценностные ориентации, традиции и обычаи.

Это может быть достигнуто, прежде всего, путем расширения кругозора учащихся в области истории, культуры, языков и искусств разных народов страны. Это поможет ученикам осознать богатство многообразия и снизить уровень предвзятости в отношении других этнических групп.

Совместные проекты и мероприятия, такие как фестивали, выставки изображений, театральные постановки или литературные конкурсы, могут послужить эффективным способом передачи знаний и опыта о разных культурах, укрепить межкультурные связи и содействовать ощущению единства среди граждан.

Особое внимание при формировании МЭ в рамках образования необходимо уделять развитию и культивированию таких коммуникативных навыков как: активное слушание без осуждения; понимание чужой точки зрения (учет чужой перспективы); задавание открытых вопросов; терпеливое отношение к языковым ошибкам; проявление искреннего интереса к культурным различиям; паравербальная чувствительность; признание имеющихся стереотипов и предубеждений (он, темп, громкость голоса, паузы, интонацию, мимику, жесты, позы и т. д.); осознанность; саморефлексия.

Кроме того, необходимо популяризировать изучение языков других народов, проживающих в Узбекистане. Язык – это не просто средство коммуникации, но и ключ к пониманию культуры, менталитета и мировоззрения. Знание хотя бы основ языка другого народа открывает двери к более глубокому пониманию и укрепляет связи между людьми.

Роль технологий и социальных медиа

В современном мире технологии играют огромную роль в развитии межкультурной эмпатии. Социальные сети и интернет-платформы предоставляют уникальные возможности для общения между людьми из различных культур. В Узбекистане, где молодое население активно использует социальные медиа, существует потенциал для создания общественного сознания, активно пропагандирующего межкультурное понимание.

Использование мультимедийных технологий для освещения культурных событий и достижений различных этнических групп, создание платформ для культурного обмена, где студенты из разных стран могут общаться, делиться своим опытом, демократично обсуждать и сверять точки зрения по различным вопросам, может способствовать формированию позитивного восприятия.

Наряду с этим, образовательные учреждения могут использовать онлайн-курсы и вебинары для организации культурных обменов, в которых могут участвовать молодежь из разных уголков Узбекистана. Это создаст новые возможности для формирования МЭ, и, следовательно, положительно скажется на атмосфере в стране.

Подводя итоги, можем сделать вывод, что МЭ это совокупность знаний, умений, навыков и личностных психоэмоциональных установок позволяющих устанавливать контакт и взаимопонимания с представителями иных культур, признавать их культурные ценности, толерантно относиться к выявляющимся различиям в манерах общения, стилях поведения, образе жизни, обычаях и традициях чтобы достигать коммуникативных целей и более углубленного понимания текущего эмоционального состояния, намерений и мотивов партнера по общению.

В условиях быстро меняющегося мира, где культурные различия могут стать источником конфликтов, МЭ, как активная гражданская позиция, является одним из ключевых инструментов для достижения и поддержания социальной стабильности, мира, безопасности, развития и процветания на нашей многонациональной Родине.

Annotatsiya. Maqolada madaniyatlararo hamdardlik ko‘p millatli O‘zbekistonda tinchlik va xavfsizlikning asosiy omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Hamjihatlikda yashash va nizolarning oldini olish uchun madaniy farqlarni tushunish va qabul qilish, shuningdek, boshqa etnik guruhlar va dinlarga hamdardlik bildira olish zarurligi ta’kidlanadi. Empatiyaning kognitiv, hissiy va xulq-atvor jihatlari, shuningdek, unga ta’sir qiluvchi omillar (ta’lim, tajriba, ommaviy axborot vositalari) tahlil qilinadi. O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan madaniyatlararo kompetentsiya va bag‘rikenglikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar taklif etilmoqda.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo hamdardlik, bag‘rikenglik, etniklik, ko‘p millatlilik.

Abstract. The article examines intercultural empathy as a key factor ensuring peace and security in multinational Uzbekistan. It is emphasized that understanding and accepting cultural differences, as well as the ability to empathize with other ethnic groups and religions, are necessary for harmonious coexistence and conflict prevention. The cognitive, emotional and behavioral aspects of empathy, as well as the factors influencing it (education, experience, media) are analyzed. Practical measures are proposed to develop intercultural competence and tolerance, which is strategically essential for the sustainable development of Uzbekistan.

Key words: intercultural empathy, tolerance, ethnicity, multinationalism.

Использованная литература:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 01.07.2021 г. № УП-6255 https://www.lex.uz/uz/docs/5491628
2. X съезд Либерально-демократической партии Узбекистана (УзЛиДеП) 9 сентября 2021, 12:51. https://www.gazeta.uz/ru/2021/09/09/strategy/#!

3. Мирзиёев Ш. М. Последовательное продолжение демократических реформ, обеспечение в стране мира и спокойствия, создание достойных условий жизни для нашего народа - гарантия устойчивого развития: Доклад кандидата в Президенты Республики Узбекистан на VIII съезде Движения предпринимателей и деловых людей - Либерально-демократической партии Узбекистана // Народное слово, 2016. 2 ноября.

4. Batson C. D. The altruism question: Toward a social-psychological answer. Hillsdale, NJ: Erlbaum, 1991.

5. Barron, J. (18 March 2020). COVID-19: A Teachable Moment for Intercultural Empathy. Globally Grounded.

6. Bennett M. J., Kim Y. Y. The international encyclopedia of intercultural communication. – 2017.

7. Best, R. (2000). Empathy, experience and SMSC (Spiritual, Moral, Social and Cultural education). Pastoral Care, December.

8. Bierhoff, H.-W. (2003). Prosocial Behaviour (1st ed.). Psychology Press. https://doi.org/10.4324/9780203989425

9. de Waal F.B. Putting the altruism back into altruism: the evolution of empathy. // Annual Review of Psychology. 2008, 59 (1). – P. 279–300. doi:10.1146/annurev.psych.59.103006.093625. PMID 17550343. Archived (PDF) from the original on April 17, 2012.

10. Hodges S. D. & Myers M. W. Empathy. /In R. F. Baumeister and K. D. Vohs (Eds.). Encyclopedia of social psychology. Thousand Oaks, CA: Sage, 2007. – P. 296–298.

11. Hoffman M. L. Empathy and moral development. //The annual report of educational psychology in Japan. – T. 35, 1996.– C. 157-162.

12. Keen S. A Theory of Narrative Empathy. // Narrative. 2006, 14 (3). – P. 207–236. doi:10.1353/nar.2006.0015. S2CID 52228354

13. Rasoal Ch., Eklund J., Hansen E. M. Towards a conceptualization of ethnocultural empathy // Journal of Social, Evolutionary and Cultural

Psychology. 2011, 5 (1). URL: http://shell.newpaltz.edu/jsec/articles/volume5/issue1/RasoalVol5Iss1.pdf (дата обращения: 04.08.2025)

14. Spinrad, T.L. and N.Eisenberg, 2014. "Empathy and Morality: A Developmental Psychology Perspective," in Empathy and Morality, H. Maibom (ed.), Oxford: Oxford University Press, 59–70.

15. Toi M. & Batson C.D. More evidence that empathy is a source of altruistic motivation. // Journal of Personality and Social Psychology, 1982, 43. – P. 281-292.

BOJXONA ORGANLARNING O‘Z VAKOLATLARI DOIRASIDA MA’MURIY HUQUQBUZARLIK TO‘G‘RISIDAGI ISHLARNI KO‘RIB CHIQISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Allambayev Javlonbek Rustamovich,
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bojxona organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning nazariy va amaliy masalalari, xususan, bojxona organlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlarining o‘z vakolatlar doirasida ko‘rib chiqilgan ishlar tahlili, shu bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlari bilan bog‘liq ishlarni sudlarda ko‘rib chiqish tartibini hamda ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini ko‘rib chiqish tizimini takomillashtirish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: huquqbuzarlik, ma’muriy ma’muriy huquqbuzarlik, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishning taalluqliligi,tadbirkorlik subyektlari, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirar ekanmiz, bu borada olib borilayotgan qonunchilik sohasidagi islohotlar, eng avvalo, unda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Shu o‘rinda davlat boshqaruv va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zaro bir-birini takrorlovchi vazifalari hamda vakolatlarini belgilash juda muhim. Chunki har bir davlat organi o‘z vazifalarni bajarar ekan boshqa organ vakolatiga aralashmaslik orqali organlar orasida muvozanat saqlanib, qonunlarga roiya qilinadi.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston — 2030» strategiyasi ishlab chiqildi.

Mazkur strategiyaning 84-89-maqsadlarda Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishlar quyidagicha:

- sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobarga oshirish;

- ma’muriy sudlarga bevosita murojaat qilishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni to‘liq bartaraf etish;

- sudga qadar bosqichda nizolarni hal qilish samaradorligini 50 foizga oshirish;

- sudga qadar hal etilishi mumkin bo‘lgan nizolar yuzasidan sudlarga kelib tushadigan ishlar sonini 50 foizga kamaytirish;

- ma’muriy huquqbuzarliklarga oid ishlarni ko‘rib chiqish natijalari ustidan sudlarga yuborilayotgan shikoyatlarning 50 foizini elektron shaklda kelib tushishiga erishish.

Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ko‘rilayotgan jinoyat ishlarining 100 foizida himoyachi yoki jamoat himoyachisi ishtirokini ta’minlashga erishish.

Dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlarni joriy qilish orqali to‘liq raqamlashtirish.

Sud va boshqa organlarning hujjatlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha ishlar toifasining kamida 30 foizini xususiy sektor yordamida ijro etishni yo‘lga qo‘yish kabi ustuvor ko‘rstkichlar belgilab berilgan [1].

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish orqali sud hokimiyatining mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va iqtisodiy qonunchilikni takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning

barvaqt oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash belgilangan bo‘lib, bu sohada bojxona organlari xam qonuniylikni ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ma’muriy huquqbuzarlik sodir qilgan shaxsni javobgarlikka tortish, jazo qo‘llash bilan huquqbuzarlikning oldini olib bo‘lmaydi. Huquqbuzarlikni aniqlashdan ko‘ra uni sodir etishga barham berish ya’ni fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash, qonunlarni tushuntirish aholining keng qatlamini huquqiy madaniyatini oshirish lozim.

Aholining huquqiy ongining rivojlanish darajasi, taraqqiy etgan davlatda huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim shartidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga asosan davlat halq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar. Davlat organlari esa jamoat tartibini saqlash bilan birga fuqarolarning farovon hayot kechirishi, qonunlarning bajarilishini ta’minlaydilar.

Jamiyatda ma’lum bir qoidalar va normalar bilan tartibga solinmas ekan albatta dastlab huquqbuzarlik vujudga kelib, jamiyatda shaxsning huquqlari va erkinliklari, mol-mulkiga, atrof tabiiy muhitga tajovuz kuchayadi. Shuning uchun oldin huquqbuzarlik tushunib olish kerak.

Huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) [2].

Huquqbuzarlik — jamiyatda urnatilgan va qonun asosida belgilangan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalarini buzish hisoblanadi [3].

Ma’muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma’muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g‘ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi [4].

Ma’muriy huquqbuzarlik bu O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risdagi kodeks moddalarida nazarda tutilgan harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik natijasida kelib chiqib javobgarlikni belgilovchi hodisa hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ma’muriy huquqbuzarlik davlat tomonidan o‘rnatilgan tartib qoidalar va qonunlarga rioya qilmaslik natijasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar va harakatlarda ifodalanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishini tartibga soluvchi qonun hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi tasdiqlagan xalqaro shartnomalar bilan belgilangan O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o‘tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi (shu jumladan bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona to‘lovlarini to‘lashga, boj imtiyozlarini berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqqa zid xatti-harakati yoxud harakatsizligidir [5].

Bojxona sohasida sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan qoidalarga rioya etmaslikdagi harakatda namoyon bo‘ladi.

Bojxona sohasida sodir etilayotgan ma’muriy huquqbuzarliklar iqtisodiy huquqbuzarliklarning o‘ziga xos turi bo‘lib, mustaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga zarar yetkazib, mamlakatni rivojlanishiga va xalqaro maydondagi obro‘siga salbiy ta’sir qilib mahalliy ishlab chiqarishni sanoatni izdan chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish taqiqlangan materiallarini kirib kelishiga qarshi kurashish va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash hamda samarali huquqni qo‘llash orqali bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish, aniqlash va chek qo‘yish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Shuning uchun sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik taalluqliligi masalasini xal qilish juda muhim hisoblanadi. Har bir organ yoki tashkilotga o‘z vakolati doirasida ishlarni ko‘rib chiqadi.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishning taalluqliligi deganda O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy Javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi(keyingi o‘rinlarda- MJTK deb yuritiladi) da berilgan vakolatli organlar (mansabdor shaxslari) tomonidan faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan huquqbuzarlik ishlarini ko‘rib chiqishini anglatadi. Bojxona organlari xam MJtKdagi 227-227[27]– moddalarida ko‘rsatilgan bojxona ma’muriy

huquqbuzarlik ishlari yuzasidan bayonnoma rasmiylashtiriladi.

Bojxona organlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari bojxona organlari nomidan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy Javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning 262-moddasiga asosan 227, 227^{1}, 227^{2}, 227^{5}, 227^{6}, 227^{7}, 227^{10}, 227^{11}, 227^{12}-moddalarida, 227^{13}-moddasining uchinchi qismida, 227^{16}-moddasining birinchi qismida, 227^{22}-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishga va jarima tariqasidagi ma’muriy jazo chorasini qo‘llashga haqli ekanligi belgilangan.

Statistik ma’lumotlarga qaraganda bojxona organlari tomonidan 2025-yilning 1-choragida 8478 (2024-yilning shu davrida 7041) ta huquqbuzarlik holatlari aniqlangan bo‘lib, shundan 7 902 ta (5 647 ta) ma’muriy ishlar yuritilgan. Shu bilan birga 5109 (3198) ta holatda bojxona organlarning bevosita vakolatiga tegishli ishlar ko‘rib chiqilib, jarima jazolari tayinlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki bojxona organlari o‘z vakolati doirasida ko‘rilgan ishlar 1911 ta holatga ko‘payganligini ko‘rish mumkin [6].

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 245-moddasi birinchi qismida ma’muriy sudlarning taalluqliligiga tegishli moddalar ko‘rsatilgan, shu bilan birga ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlariga asosan sudlarga quyidagi ishlar ham taalluqli:

huquqbuzar huquqbuzarlik faktini inkor etganda, har qanday ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi;

huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risidagi;

huquqbuzarga nisbatan MJtK Maxsus qismi moddasi sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risidagi;

yakka tartibdagi tadbirkorlar va (yoki) ularning xodimlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq ravishda sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi;

tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslar mansabdor shaxslari va (yoki) ularning xodimlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq ravishda sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi;

bir nechta ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi, agar ulardan loaqal bittasi sudga taalluqli bo‘lsa;

qonun moddasi sanksiyasida jazo sifatida maxsus huquqdan mahrum etish, ashyolarni musodara qilish yoki haqini to‘lash sharti bilan olib qo‘yish jazosi nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar.

Bojxona organlari tadbirkorlik subyektlari tomonidan sodir etiladigan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish jarayonida ularning xuquq va manfaatlarni ximoya qilinishini ta’minlash maqsadida bunday ishlar taaluqliligi bo‘yicha ma’muriy sudlarga yuborilib ular tomonidan ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 282-moddasiga asosan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani jo‘natish tartibi berilgan bo‘lib, bunda “Bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo‘yicha dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab uch sutkadan kechiktirmay ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuboriladi.” deb ko‘rsatilgan.

Biroq huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushbu uch sutka muddatda ma’muriy huquqbuzarlik ish materialni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan (organ) sudga yuborilmaydi chunki ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga ilova qilinadigan yuqoridagi moddaning 2-4 qismlarida ko‘rsatilgan ekspertiza xulosalari, dalillar va boshqa xujjatlarni olishning imkoniyati yo‘qligini inobatga olib, ushbu 282-moddaning 5-qismini quydagicha to‘ldirish “*ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirilgan paytda boshlab, olingan huquqbuzarlik ashyolari uchun uzoq muddat davom etadigan ekspertiza, uzoqda yashovchi fuqarolardan tushuntirish olish shart bo‘lsa, va boshqa ish uchun ahamiyatga molik holatlarda, aniq xulosaga kelish imkoniyati bo‘lmasa o‘ttiz sutkadan kechiktirmay ma’muriy ishni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organ (mansabdor shaxs) ga jo‘natilishi mumkin*” maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 307-moddasiga muvofiq ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish vaqtida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar quydagilar etib belgilangan.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish vaqtida tegishli organ (mansabdor shaxs): ma’muriy huquqbuzarlik sodir etilgan-etilmaganligini, huquqbuzarlik sodir etilgan vaqt va joyni, mazkur shaxs uni sodir etishda aybdor-aybdor emasligini, uning ma’muriy javobgarlikka

tortilish-tortilmasligini, javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar bor-yo‘qligini, mulkiy zarar yetkazilgan-yetkazilmaganligini, shuningdek ishni to‘g‘ri hal etishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni aniqlashi shart deb ko‘rsatilgan.

Bojxona sohasida sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish davomida bojxona to‘lovlarining kam undirilgan holatlarda bojxona to‘lovlarining to‘liq to‘langanligi, shuningdek tovar va transport vositalarni vaqtincha olib kirilganda belgilangan muddatlarda davlat hududidan olib chiqilishi hamda tovar va transport vositalarni vaqtincha olib chiqilganida belgilangan muddatida davlat hududidan qaytarib olib chiqilganligi, tovarlarni topishni qiyinlashtiruvchi usullardan foydalangan xolda olib kirish, deklaratsiyalamasdan va noto‘g‘ri deklaratsiyalash orqali tovarlar va transport vositalarni olib kirilish kabi holatlarni bartaraf etilgan yoki etilmaganligi o‘rganmasdan qaror qabul qilib bo‘lmasligi, qarorlarning noto‘g‘ri qabul qilinishiga olib keladi.

Buning uchun tadbirkorlik subyektlari tomonidan sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlilarni to‘liq o‘rganib qaror qabul qilish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 308^1-moddasida huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma’muriy javobgarlikdan ozod qilish to‘g‘risidagi yoki yengilroq ma’muriy jazo chorasini qo‘llash haqidagi masalani hal etish tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, ma’muriy organlarning mansabdor shaxslari tomonidan yengilroq ma’muriy jazo qo‘llash to‘g‘risida taqdimnoma kiritilib, faqat sudlar tomonidan qo‘llaniladi. Bu esa fuqarolarning sodir etgan huquqbuzarligining kam ahamiyatliligi sababli yengilroq ma’muriy jazo qo‘llash yoki javobgarlikdan ozod qilish masalasi vakolatli organlarning mansabdor shaxslari tomonidan hal qilinmasdan qolmoqda.

Mavjud xorij tajribasiga ko‘ra Rossiya Federatsiyasi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksning 2.9-moddasida “huquqbuzarlikning kam ahamiyatsizligining asosiy mezoni – uning sodir etilishi natijasida himoyalangan ijtimoiy jamoat munosabatlariga jiddiy tahdid yo‘qligi” ko‘rsatilgan [6].

Rossiya Federatsiyasi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksning 28.6-moddasi talablariga asosan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritishning soddalashtirilgan shakli jazo tayinlashda (faqat ogoxlantirish yoki jarima), shuningdek ushbu jazoni huquqbuzarlik sodir etilgan joyda va u aniqlangandan darhol ma’lum shartlarga rioya qilgan xolda tayinlashdan iborat. Ushbu protsedura katta miqdordagi jamiyat uchun xavf tug‘dirmaydigan huquqbuzarlik aniqlangan taqdirdagina qo‘llaniladi, javobgarlikka tortilgan shaxsning aybi aniq bo‘lsa va u buni rad etmas jarimani o‘z ixtiyori bilan to‘lashga tayyor bo‘lsa qo‘llaniladi. Bunday protsedura orqali muayyan toifadagi ishlarda ish yuritishning samaradorligiga qaratiladi [7].

Rossiya Federatsiyasi ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksining 16.5-moddasida bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi ya’ni bojxona nazorati zonasi chegaralari orqali yoki uning ichida tovar va transport vositalari o‘tkazgan shaxs yoki shaxslar, shu jumladan davlat organlarining mansabdor shaxslari, (bojxona organining mansabdor shaxslari bundan mustasno) bojxona organining ruxsatisiz ishlab chiqarish yoxud boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirishi, agarda bojxona organining ruxsatini olish shart bo‘lsa - fuqarolarga ogohlantirish yoki uch yuzdan besh yuz rublgacha, mansabdor shaxslar uchun besh yuzdan ming rublgacha, yuridik shaxslar uchun besh mingdan o‘n ming rublgacha jarima solishga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi tajribani qo‘llash orqali huquqbuzarliklarni oldini olish bilan birga ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma rasmiylashtirmasdan, jarima qo‘llash natijasida shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishga vakolatli organlar faoliyatini murakkab bo‘lgan ishlar bilan shug‘ullanishiga zamin yaratiladi.

Bojxona sohasida sodir etilgan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni xorij tajribasi (Rossiya Federatsiyasi)da o‘z vakolatlariga kiruvchi ishlarni ko‘rib chiquvchi boshliq va boshliq o‘rinbosarlari bilan birgalikda quyi bo‘g‘indagi mansabdor shaxslarni kiritish lozim. Chunki sodir etilayotgan huquqbuzarlikni qisqa muddatda ko‘rib, davlat hududidan chiqib ketmoqchi bo‘lganida, huquqbuzarlik uchun jazo tayinlab, fuqarolarni ovaragarchiliksiz ishni ko‘rib chiqish tizimi shakllanadi.

Bundan tashqari 2025-yilning iyun oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo‘lib o‘tgan majlisda “O‘zbekiston Respublikasining MJtKga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi

qonun loyihasi orqali “Ma’muriy ogohlantirish” jazo chorasini kiritish va ijtimoiy xavfliligi kam bo‘lgan yo‘l harakati xavfsizligi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun ogohlantirish jazosini qo‘llash orqali insonparvarlik prinsipining qo‘llanilishida yaqqol namoyon bo‘ladi [8].

Ma’muriy ogohlantirish institutini joriy etish orqali shaxsga birinchi marta kam ahamiyatli ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarni jarimaga tortish o‘rniga, sodir etgan qilmishining ijtimoiy oqibatlarini tushuntirgan holda ogohlantirish amaliyotda bunday qilmishlar sodir etilishining oldini olishda yuqori natijalar erishiladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratish va ularni yanada takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunonchi mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida qonunlarni liberallashtirsh, xavolaki normalarni qo‘llamaslik yuzasidan, samaraliishlarolibborilmoqda, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘rsidagi kodeksga 40 dan ortiq o‘zgartirish kiritilganligi, mavjud normalarni takomillashtirish yangi paydo bo‘lgan huquqbuzarliklarni kiritish, ayrim huquqbuzarliklarni ijtimoiy darajasi jamiyatga zarar keltirmasligini inobatga olib ushbu kodeksdan chiqarish orqali qonuniylikni mustahkamlash zamoning o‘zi taqozo etmoqda.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические вопросы рассмотрения дел об административных правонарушениях таможенными органами в пределах их компетенции, в частности, анализ дел начальников таможенных органов и их заместителей, рассмотренных в пределах их компетенции, а также ряд предложений по совершенствованию порядка рассмотрения дел, связанных с субъектами предпринимательства, в судах и системы рассмотрения дел об административных правонарушениях. и даны рекомендации.

Ключевые слова: правонарушение, административное правонарушение, нарушение таможенного законодательства, актуальность дела об административном правонарушении, субъекты предпринимательства, рассмотрение дела об административном правонарушении.

Annotation. This article provides a number of proposals and recommendations on theoretical and practical issues of consideration of cases of administrative offenses by customs authorities within their competence, in particular, the analysis of cases of the heads of customs authorities and their deputies within their competence, in addition to improving the procedure for consideration of causes related to entrepreneurial subects in courts and the system.

Keywords: violation, administrative administrative offense, violation of customs legislation, relevance of the case on administrative offense, business entities, consideration of the case on administrative offense.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023-yil 11-sentyabrdagi 158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413
2. O‘zbekiston Respublikasi “Xuquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘rsidagi” qonuni 2014-yil 14-may O‘RQ-371-son
3. U.Tadjixanov.Yuridik ensklopediya Toshkent: 2001-yil
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Toshkent: Adolat 2018-yil.
5. “Kontrabanda va bojxona sohasiga oid boshqa huquqbuzarliklar” ma’ruzalar to‘plami Bojxona instituti, Toshkent 2019-yil
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining avtomatlashtirilgan axborot tizim ma’lumotlari.
7. Rossiya Federatsiyasining Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Moskva 2019-yil.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.05.2025-yildagi “Transport vositalaridan foydalanishda aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 318-son qarori.

BOJXONA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR YUZASIDAN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Tulanbayev Nizomiddin Shavkatbekovich,
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar hamda jinoyatlar yuzasidan javobgarlikni takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bu turdagi huquqbuzarliklar uchun yetkazilgan zarardan kelib chiqqan holda jarima jazolarini joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlangan.

Kalit so‘zlar: bojxona to‘lovlari, huquqbuzarlik, jinoyat, huquqiy ta'sir chorasi, jazo, jarima, yetkazilgan zarar.

Huquqbuzarliklar dinamikasi har qanday sohadagi huquqiy ta’minotning samaradorligini baholash imkonini beruvchi indikatorlardan biri hisoblandi. Xususan, muayyan sohada huquqbuzarliklar sonining ortib borishi ushbu sohaning huquqiy ta’minotini takomillashtirishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi.

Tahlillardan O‘zbekiston Respublikasida ham tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘lamining ortib borishi bilan birgalikda, sohadagi ayrim yo‘nalishlarda huquqbuzarliklar soni o‘sib borayotganligi ma’lum bo‘lmoqda. Bu borada yurtimizda bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq holatlar ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, 2019-yilda 1 122 ta huquqbuzarlik holati bo‘yicha 194,2 mlrd. so‘m qo‘shimcha bojxona to‘lovlari hisoblangan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 2024-yilda 1 903 ta holatda 267,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Ma’lumki jamiyatda huquqbuzarliklarning ortib borishiga huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi, ijtimoiy nazoratning sustligi, huquqiy ta’sir choralarining nomutanosibligi kabi ko‘plab omillar ta’sir etadi.

Bojxona to‘lovlari davlat budjetini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning to‘lanmasligi yoki belgilanganidan kam miqdorda to‘lanishi milliy iqtisodiy manfaatlarimizga zarar yetkazishi bilan birgalikda, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari ichida nohalol raqobatni yuzaga keltirishi mumkinligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘z navbatida, bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar asosan moddiy foyda olish maqsadida sodir etiladigan qilmishlardir. Bu turdagi qilmishlar uchun ham jazolarni individuallashtirish muhimligini inkor etmagan holda, ularga qilmishning asosiy maqsadiga ta’sir qiluvchi jazo chorasini belgilash va shu orqali jazo chorasining ta’sirchanligi va samaradorligini ta’minlash muhim hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarga nisbatan turli jazo choralari nazarda tutilgan bo‘lib, ular orasida jarima jazosi asosiy o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasidan farqli o‘laroq bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar, ularga nisbatan jazo choralari va bu borada ish yuritish masalalari Armaniston, Gruziya, Turkiya, Ukraina kabi bir qator davlatlarda bojxona kodekslarida keltirilgan. Misol uchun, Armaniston Bojxona kodeksining 189-204 moddalari, Gruziya Bojxona kodeksining 165-179 moddalari, Ukraina Bojxona kodeksining 468-485 moddalari bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarga bag‘ishlangan hamda ularda bu turdagi huquqbuzarliklar uchun qat’iy belgilangan summalardagi, huquqbuzarlik predmeti bo‘lgan tovarning qiymati va undiriladigan bojxona to‘lovlari qiymatiga bog‘liq jarima jazolari nazarda tutiladi.

Turkiya Bojxona qonunining o‘n birinchi qismi jazolar deb nomlanib, unda bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar uchun bojxona bojlariga bog‘liq jarimalarni qo‘llash ko‘rsatilgan.

Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar uchun Ozarbayjon, Belarus va Tojikiston kabi davlatlarning Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodekslari (keyingi o‘rinlarda MHtK) bilan javobgarlik belgilangan. Bunda jazo sifatida jarima nazarda tutilgan bo‘lib, u asosan yetkazilgan zararga bog‘liq holda belgilanadi. Xususan, Ozarbayjon Respublikasi MHtK 505-moddasi Bojxona to‘lovlaridan (qarzdan) bo‘yin tovlash deb nomlanib, unda to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari summasining 70 foizidan 150 foizigacha miqdorda jarima nazarda tutilgan.

Belarus Respublikasi MHtK 14.4-moddasi Bojxona organlari tomonidan undiriladigan soliq, yig‘im (boj), to‘lov summasini to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik deb nomlangan bo‘lib, bu

turdagi huquqbuzarliklar uchun yakka tartibdagi tadbirkorga to‘lanmagan summaning qirq foizi miqdorida, lekin 2 bazaviy hisoblash miqdoridan kam bo‘lmagan, yuridik shaxning mansabdor shaxsiga esa to‘lanmagan summaning qirq foizi miqdorida, lekin 2 bazaviy hisoblash miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tojikiston Respublikasi MHtK 598-moddasi Tojikiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar harakati munosabati bilan to‘lanadigan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash muddatlarining buzilishi deb nomlangan bo‘lib, bu turdagi huquqbuzarlik uchun jismoniy shaxslar, mansabdor shaxslar va yuridik shaxslarga soliqlar va to‘lanmagan to‘lovlarning 1 baravaridan 2 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ozarbayjon Respublikasi JK 209-moddasi Bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlash deb nomlanib, bu turdagi huquqbuzarlik sezilarli miqdorda sodir etilsa, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning 2-3 baravari, ko‘p miqdorda sodir etilsa, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning 3 baravari, juda ko‘p miqdorda sodir etilsa, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning 4 baravari miqdorida jarimaga tortilishi yoki 1 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi JK 153-moddasida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlagan holda, tovarlar va buyumlarning kontrabandasi uchun aybdor shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish, mol-mulkni musodara qilish, qamoq va yashirilgan soliqlarning 2-6 baravari miqdorida jarima kabi jazolarni nazarda tutadi.

Ispaniya qirolligining JK 305-moddasida markaziy g‘aznachilikka to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq masalalarni qamrab oluvchi huquqbuzarlik uchun bir yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va tegishli summaning bir baravaridan olti baravarigacha jarima nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, AQSH qonunchiligida soliq va bojxona bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun jarimaning o‘ziga xos turi nazarda tutilgan. Xususan mazkur mamlakatning Ichki daromadlar kodeksiga muvofiq bu turdagi huquqbuzarliklar uchun to‘lanmagan summaning 5 foizi miqdorida hamda soliq to‘lovchi to‘lanmagan summani bankka qo‘yganda standart bank stavkasi bo‘yicha oladigan daromadining 50 foizi miqdorida birlashtirilgan jarima jazosini qo‘llashni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga oid Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227^{24}, 227^{25}, 227^{26}-moddalarida jarimaning eng yuqori miqdori fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari (hozirda 4,12 mln so‘m), mansabdor shaxslarga esa 15 baravari (hozirda 6,18 mln so‘m) etib belgilangan.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining (keyingi o‘rinlarda – JK) 44-moddasiga ko‘ra, jarimaning eng yuqori miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 600 baravarini (hozirda 247,0 mln. so‘m) tashkil etadi.

Shunga asosan, JK bojxona qonunchiligini buzish bilan bog‘liq 182-moddasi sanksiya qismida jarimaning eng yuqori miqdori sifatida bazaviy hisoblash miqdorining 600 baravari ko‘rsatilgan.

Amaldagi tartibga ko‘ra, bir necha milliard so‘m bojxona to‘lovlarini to‘lashdan qasddan bo‘yin tovlangan holatlarda ham jarima miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 600 baravaridan ortiq qo‘llanishi mumkin emas.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar hamda jinoyatlar uchun bu qilmishlar orqali yetkazilgan zararning xususiyatiga bog‘liq jarimalarni joriy etish maqsadga muvofiq. Xususan bu jazolarning yanada adolatli bo‘lishiga xizmat qiladi, mutanosiblik prinsipiga mos keladi. Shu bilan birgalikda, huquqbuzarliklarni oldini olishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi huquqbuzarliklar iqtisodiy xususiyatga ega ekanligi inobatga olinsa, taklif etilayotgan jarimalarning joriy etilishi iqtisodiy nuqtayi-nazardan ham samarali hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonunchilikni quyidagilarni nazarda tutgan holda takomillashtirish taklif etiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi:

1) 44-moddasida:

ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish:

“Jarima bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda belgilanadi. Ba’zi jinoyatlar uchun jinoyat natijasida yetkazilgan zararning bir baravarigacha miqdorda jarima solinishi mumkin.”;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirish:

“Agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida yetkazilgan zararning miqdoriga bog‘liq holda tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to‘lashdan bo‘yin tovlasa

yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlar mobaynida jarimani undirishning imkoni bo'lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to'lanmagan yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lash shartlari buzilgan taqdirda, sud jarimaning to'lanmagan miqdorini ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari bilan ushbu kodeks maxsus qismining tegishli moddasi, tegishli qismida nazarda tutilgan ushbu turdagi jazolarning maksimal muddatini yetkazilgan zararning bir baravari miqdoridagi jarimaga teng hisoblab, mutanosib tarzda almashtiradi.";

2) 182-moddani quyidagi mazmundagi uchinchi – beshinchi qismlar bilan to'ldirish:

"Sud ushbu kodeksning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan jazolarning o'rniga yetkazilgan zararning bir baravari miqdorida jarima jazosi qo'llashi mumkin.

Yetkazilgan zararning o'rni qoplangan taqdirda sud yetkazilgan zararning ellik foizidan oshmagan holda jarima jazosi qo'llashi mumkin.

Bojxona to'lovlaridan yetkazilgan zararni aniqlash tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi bilan belgilanadi.";

2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 25-moddasini quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi qismlar bilan to'ldirish:

"Ushbu kodeksning 227^{24}, 227^{26}, 227^{25}-moddalarida ko'rsatilgan huquqbuzarliklar uchun mazkur moddalarda nazarda tutilgan jazolarning o'rniga yetkazilgan zararning bir baravari miqdorida jarima jazosi qo'llanilishi mumkin.

Bojxona to'lovlaridan yetkazilgan zararni aniqlash tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi bilan belgilanadi."

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования ответственности за административные правонарушения и преступления, связанные с уклонением от уплаты таможенных платежей. Подготовлены предложения по введению штрафных санкций за указанные виды правонарушений, исходя из причиненного ущерба.

Ключевые слова: таможенные пошлины, правонарушение, преступление, мера правового воздействия, наказание, штраф, причиненный ущерб.

Annotation. In this article, the issues of administrative offenses related to the evasion of customs duties and the improvement of responsibility for crimes were considered. Proposals have been prepared for the introduction of penalty penalties based on the damage caused for these types of offenses.

Key words: customs duties, violation, crime, legal action, punishment, fine, damage caused.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
3. Armaniston Respublikasining Bojxona kodeksi (06.07.2000)
4. Gruziya Respublikasining Bojxona kodeksi (28.06.2019)
5. Turkiya Respublikasining Bojxona qonuni (4458 sayılı Gümrük Kanunu 27.10.1999)
6. Ukraina Bojxona kodeksi (13.03.2012)
7. Ozarbayjon Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi (29.12.2015)
8. Belarus Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi (06.01.2021
9. Tojikiston Respublikasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi (31.12.2008)
10. Ozarbayjon Respublikasining Jinoyat kodeksi (30.12.1999
11. Xitoy xalq Respublikasi Jinoyat kodeksi (14.03.1997)
12. Ispaniya qirolligining Jinoyat kodeksi (23.11.1995
13. Порядок возбуждения и расследования уголовных дел, связанных с уклонением от уплаты таможенных сборов и платежей // URL:https://pravo.bobrodobro.ru/74442.

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA MUSTAQILLIK DAVRIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH JARAYONI

Sharipova N.M.,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zbek tili taraqqiyotida yuz bergan muhim o‘zgarishlar va ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Til va mustaqillik o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash hamda yangi davr talablariga mos ilmiy va ijtimoiy nutq madaniyatini shakllantirishda asosiy omil sifatida qaraladi. Mustaqillik yillarida tilshunoslik sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar asosida o‘zbek tilining semantik, morfologik va leksik tizimida yuzaga kelgan yangiliklar hamda ularning ilmiy-nazariy talqini ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada til va milliy istiqlol mafkurasi uyg‘unligi, o‘zbek tilining xalqaro miqyosda tan olinishi va yangi bosqichdagi taraqqiyot istiqbollari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, mustaqillik, milliy qadriyatlar, davlat tili, til siyosati, ijtimoiy-lisoniy jarayon, milliy o‘zlik, globallashuv, til taraqqiyoti, madaniy meros.

Mamlakatimiz hududidagi toponimlarning shakllanishi, ularning tarixiy rivojlanishi va o‘zgarishlari millatning o‘zlikni anglash jarayoni, tarixiy-madaniy xotirasi hamda ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Har qanday joy nomi - bu oddiy lingvistik birlik emas, balki xalqning tarixiy yodgorligi, madaniy merosining bir qismi, uning ijtimoiy hayotidagi izchil taraqqiyotidan darak beruvchi til hodisasidir. Shu nuqtayi nazardan toponimika sohasi nafaqat geografik obyektlarni belgilash vositasi, balki tarixiy, etnografik va lingvistik bilimlarning ham muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Mustaqillik davrida toponimlarni o‘rganish masalasi alohida dolzarblik kasb etdi, chunki bu jarayon milliy o‘zlikni tiklash, tarixiy adolatni qaror toptirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mamlakatimizning Qiziltepa va unga yondosh tumanlar misolida olib qaralganda, ushbu hududlardagi joy nomlari o‘zining qadimiyligi, etnik qatlamlari va tarixiy bosqichlari bilan ajralib turadi. Bu hududlar toponimlari uzoq tarixiy jarayonlar, ko‘chmanchi va o‘troq xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalar, mahalliy shevalarning o‘ziga xosligi hamda geografik muhit ta’siri ostida shakllangan. Ularning lingvistik tahlili fonetik, morfologik va semantik jihatlardan olib borilib, nafaqat lug‘aviy shakl, balki chuqur tarixiy-madaniy mazmunni ham ochib beradi. Shu bois, toponimlar o‘zbek tilining boy nominativ imkoniyatlarini namoyon etadi, tarixiy qatlamlarning izini saqlaydi va xalqning ijtimoiy-ma’naviy hayotidan xabar beradi.

Mamlakatimiz toponimlarining etimologik tahlili, ularga oid termin va atamalarning ishlatilishi xususida etnogenez, etnos va etimologik tahlil yuzasidan hudud toponimlarini o‘rganish uchun yetarlicha manba hamda ma’lumotlar bor va mavjud. Toponimiya sohasi bo‘yicha etimologik lug‘atlar tuzish amaliyoti O‘zbekistonda yetarlicha amalga oshmagan bo‘lib, yo‘q darajada desak ham, bo‘laveradi. Tilshunoslikning leksikografiya bo‘limida so‘zlarning etimologik jarayonlari lingvistik nuqtai nazaridan tahlil va tavsif qilinadi. O‘zbek olimlaridan Sh.Rahmatullaevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” etimologik yo‘nalishda dastlabki amaliy ishlardan hisoblanadi [5:600].

Onomastika sohasining yetuk olimi T.Nafasov tomonidan ilgari surilgan fikrga ko‘ra, toponimik obyektlarga nom berishda umumlashgan lug‘aviy birliklarning onomastik leksika sathiga o‘tishi “onomastik tasodif” deb izohlanadi [3:398]. Ushbu yondashuvni tahlil qilish va baholash uchun bir nechta muhim jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Onomastik jarayonlarda tasodifiylik omili mavjud bo‘lsa-da, bu tasodif murakkab lingvistik, tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq jarayon bo`lib, har qanday toponim o‘z shakllanishida til tizimining ichki qonuniyatlariga, xalqning tarixiy xotirasiga va etnolinguistik xususiyatlariga asoslanadi. Shunday ekan, onomastik birliklarning shakllanishi tasodifiy bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u butunlay qonuniyatlardan xoli emas.

Onomastik tasodif tushunchasi biror lug‘aviy birlikning qanday omillar ta’sirida toponim sifatida shakllanganini izohlashda yetarli darajada aniq tamoyillarni belgilamaydi. Masalan, tabiat hodisalari, geografik xususiyatlar yoki tarixiy

shaxslar nomlari asosida yuzaga kelgan toponimlar ma'lum mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lib, ularning shakllanishi izchil jarayon sifatida qaralishi lozim.

Ushbu qarash boshqa onomastik tadqiqotlar bilan taqqoslanganda, ba'zi cheklovlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, A.V.Superanskaya, V.A.Nikonov kabi olimlarning asarlarida onomastik birliklarning paydo bo'lishi ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida qaraladi. Shunday ekan, onomastik tasodif atamasi terminologik jihatdan qayta ko'rib chiqilishi yoki aniqroq ta'riflanishi lozim.

Vaqt o'tishi bilan toponimlarning tarkibidagi toponimik asoslar tarkibida tovushlarning o'zgarishi yoki ularning tushib qolish holati ham fonetik o'zgarish sifatida tan olinadi. Masalan: etimologiya va etimologik tahlil bahsida ro'yobga chiqadi. Etimologiya sohasi tilshunoslikning bir bo'limi sifatida qaralmoqda. Bu yo'nalishdagi lug'atlar tuzishning eng optimal yo'llari lug'at mazmuni hamda lug'at maqolalari uchun tanlangan etimologik tahlillarni amalga oshirish, quyidagi ba'zi bir terminlarning qisqacha izohida to'xtalish o'rinli bir holat ekanligini bilamiz. Z.Do'simov va X.Egamovlarning "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" asariga O'zbekistonning hozirgi va qisman tarixiy joy nomlariga lisoniy tahlil berilgan. Tadqiqotda faqatgina etimologik jihatdan izohlash imkoniyati mavjud bo'lgan toponimlar tanlab olingan. Mazkur lug'at o'z davrida o'zbek tilshunosligida toponimik tadqiqotlar uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan [2:176].

Professor T.Enazarov "O'zbek toponimlari bo'yicha shakllanadigan etimologik lug'at tuzishda leksikografik manba sifatida 2019-yilda "O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati"ni tuzdi. Bu masalada biz etimologik lug'at tuzgan mutaxassislarga qiyosiy xarakteristika bermoqchi emasmiz. Shunday bo'lsa-da, M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, Z.Do'simov, X.Egamov, T.Nafasov, E.Begmatov, N.Uluqov, N.Oxunov kabi olimlarimizning tuzgan lug'atlarida etimologik tarkib aniq maqsadga yo'naltirilmagan bo'lsa-da, etimologik tadqiqotlar hamda toponimlar masalasi qisman yoritilgan. Bu tuzilgan lug'atlarda bir muncha optimal yo'l tanlanganligini ko'ramiz. Ayniqsa, H.Hasanov tomonidan toponimlarning etimologik tarkibiga oid tanlangan termin hamda terminlarning ishlatilishida ham orginal yo'l tanlanganligini guvohi bo'lamiz [4:41]. Mazkur lug'atda va lug'at maqolalarida quyidagi toponimlarning etimologik tarkibi bo'yicha termin va atamalarning izohi masalasi qisman bo'lsa-da, ilmiy jihatdan hal etilgan.

Shu qatorida etnik va etimologik tahlillarda antroponim termini kishilarning, insonlarning, shaxslarning ismlari haqida ma'lumot beruvchi tushuncha sifatida izohlanadi. Bu holat etimologik lug'atlar tuzilishida muhim ilmiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Xususan, antrotoponim atamasi esa antroponimlardan kelib chiqqan va ular asosida shakllangan toponimlarga taalluqli bo'lib, mazkur termin asosan kishilar nomiga bog'liq geografik nomlarni tavsiflashda qo'llaniladi, ayniqsa, bu masalada, Sho'rolar davri toponimik tizimiga nazar tashlasak, bu davr siyosiy mafkura ta'siri ostida ko'plab tarixiy joy nomlari o'zgartirilib, milliy ruhga zid bo'lgan sun'iy nomlar joriy etilganini ko'ramiz. Lenin, Marks, Kalinin, Engels kabi inqilobchilarning nomlari asosida yuzlab aholi punktlari va xo'jalik obyektlari qayta nomlangan. Natijada xalqning qadimiy etnotoponimlari, diniy tasavvurlarga asoslangan joy nomlari yoki mahalliy aholi tilida shakllangan tarixiy nomlar "eskilik sarqiti" sifatida yo'qotilgan. Bunday jarayon tilning tarixiy qatlamlarini, milliy xotirani buzishga qaratilgan mafkuraviy siyosatning yaqqol ko'rinishi edi. Shu bilan birga, Qiziltepa va unga yondosh tumanlarda ham sho'ro mafkurasi ta'sirida yuzlab nomlar o'zgartirilib, xalq ongiga begona bo'lgan toponimlar singdirildi. Bu jarayon tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinsa, u toponimlarning tabiiy rivojlanishini to'xtatgan, sun'iy nomlash an'analarini vujudga keltirganini ko'rish mumkin.

Mustaqillik davriga kelib, bu tarixiy adolatsizliklar bartaraf etila boshlandi. Ona tilimizning davlat tili maqomida mustahkamlanishi, milliy qadriyatlarga qaytish jarayoni toponimik tizimda ham yaqqol ko'zga tashlandi. Avvalo, mustaqillik yillarida milliy ruhga zid bo'lgan nomlar o'rniga qadimiy tarixiy nomlar tiklandi, yangi paydo bo'lgan obyektlarga esa milliylik, istiqlol va ozodlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan toponimlar berildi. "Istiqlol", "Mustaqillik", "Erkinlik", "Bunyodkor" kabi nomlarning shakllanishi xalqimizning milliy uyg'onish, erkinlik va ozodlik g'oyalari bilan bevosita bog'liqdir. Shu tariqa, tilning nominativ imkoniyatlari zamon ruhi va milliy o'zlikni anglash jarayonida yangi mazmun bilan boyidi.

Etnotoponimlar ham mustaqillik yillarida yangicha talqin qila boshlandi. Ayni paytda yangi etnonimlar asosida shakllangan mikrotoponimlar, fermer xo'jaliklari va korxonalar nomlarida milliylikka, o'ziga xoslikka bo'lgan intilish

kuchaydi. Masalan, “Qo‘chqor Karim kelajagi”, “Latifbobo”, “Aslon Nazar” kabi mikrotoponimlar xalqning etnik xotirasini tiklash, milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborini namoyon etadi. Shu o‘rinda, mustaqillik davri nafaqat tarixiy nomlarni tiklash, balki yangi toponimlar orqali milliy ongni mustahkamlash jarayoni sifatida ham ahamiyatlidir.

Tilshunoslikda toponimlarning etimologik tahlili alohida ilmiy yo‘nalish bo‘lib, ular orqali xalqning tarixi, etnik tarkibi va madaniy aloqalari haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. O‘zbek tilshunosligida bu borada Sh. Rahmatullayev, T. Nafasov, E. Begmatov, N. Ulug‘ov kabi olimlarning asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” sohadagi dastlabki izlanishlardan biri sifatida qadrlansa, T. Nafasovning onomastikaga oid qarashlari toponimik jarayonlarning nazariy asoslarini belgilab berdi. Mustaqillik davrida esa toponimik tadqiqotlar yanada chuqurlashib, elektron ma’lumotlar bazalari, milliy korpus doirasida toponimik resurslarni boyitish ishlari amalga oshirila boshlandi.

Qiziltepa toponimlarining lingvistik tahlilida fonetik o‘zgarishlar, morfologik tuzilmalar va semantik qatlamlar alohida o‘rin tutadi. Ayrim joy nomlari tarixiy talaffuz farqlari tufayli o‘zgarishga uchragan bo‘lsa, boshqalari esa qo‘shimchalar orqali yangi nominativ shakl olgan. Masalan, -zor, -obod, -tepa kabi qo‘shimchalar o‘zbek tilidagi toponimik yasovchi formantlar sifatida keng qo‘llangan. Bu esa tilning so‘z yasash imkoniyatlarini ochib berish bilan birga, xalqning turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatini ham aks ettiradi. “Paxtazor”, “G‘allazor”, “Yangiro‘zg‘or”, “Yangiobod”, “Choshtepa” kabi toponimlar iqtisodiy-madaniy o‘zgarishlarning til qatlamida qanday ifodalanganini ko‘rsatadi.

Sho‘ro davrida tilimizning ko‘plab qadimiy unsurlari singari ayrim mahalliy leksik birliklar ham iste’moldan chiqa boshlagan edi. Masalan, “inak” (ingak), “yovon”, “darg‘ot”, “tano‘r, tanur, tandir” kabi so‘zlar hozirgi yosh avlod uchun, deyarli, notanish bo‘lib qoldi. Yuqorida ko‘rsatilgan hududlarda aholining turmush tarzining qismi bo‘lgan hovlisidagi non yopiladigan hozir «tandirxona» deb ataladigan joy nomi shevada «tano‘rxona» yoki qisqa qilib, «tano‘r» (tano‘rga non yopdim), “Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq” [1:35].

Mustaqillik sharoitida bunday boy lug‘aviy qatlamlarni qayta tiklash, ularni izohli lug‘atlarga kiritish tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki bu unsurlar nafaqat til tarixini, balki xalqning xo‘jalik, turmush va madaniy an’analarini ham o‘zida mujassam etadi.

Demak, toponimlar milliy o‘zlikni anglashning muhim manbai sifatida xizmat qiladi. Mustaqillik davrida ularning tarixiy shakllarini tiklash, yangi toponimlar yaratishda milliy qadriyatlar va istiqlol g‘oyalariga asoslanish jarayoni xalqimizning ma’naviy yuksalishiga bevosita xizmat qilmoqda. O‘zbek tili esa bu jarayonda asosiy vosita bo‘lib, mustaqillikni mustahkamlash, milliy ongni uyg‘otish va xalqni tarixiy-madaniy ildizlari bilan bog‘lashda yetakchi ro‘l o‘ynamoqda. Shu sababli, toponimik tadqiqotlar nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-ma’naviy ahamiyat kasb etadi va mustaqillik sharoitida alohida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Аннотация. В данной статье анализируются важные изменения в развитии узбекского языка после обретения Узбекистаном независимости и их социально-культурное значение. Неразрывная связь между языком и независимостью рассматривается как ключевой фактор в формировании национального самосознания, сохранении культурного наследия и становлении культуры научной и социальной речи, отвечающей требованиям новой эпохи. На основе исследований и теоретических подходов, реализованных в области лингвистики в годы независимости, рассмотрены новшества в семантической, морфологической и лексической системах узбекского языка, а также их научно-теоретическая интерпретация. В статье также освещается гармоничное сочетание языка и идеологии национальной независимости, международное признание узбекского языка и перспективы его развития на новом этапе.

Ключевые слова: узбекский язык, независимость, национальные ценности, государственный язык, языковая политика, социально-лингвистический процесс, национальная идентичность, глобализация, развитие языка, культурное наследие.

Abstract. This article analyzes the significant changes in the development of the Uzbek language after Uzbekistan gained independence and their socio-cultural significance. The intrinsic connection between language and independence is viewed as a key factor in shaping national identity, preserving cultural heritage, and fostering a culture of scientific and social discourse that meets the demands of the new era. Based on research and theoretical approaches in linguistics during the years of independence, the article examines innovations in the semantic, morphological, and lexical systems of the Uzbek language, as well as their scientific and theoretical interpretations. Additionally, the article highlights the harmony between language and the ideology of national independence, the international recognition of the Uzbek language, and its prospects for development in a new stage.

Key words: Uzbek language, independence, national values, state language, language policy, sociolinguistic process, national identity, globalization, language development, cultural heritage.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 14 tom. – Toshkent: Fan, 1998. –B.35.
2. Z.Do'simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. T.: "O'qituvchi, 1977. – 176 b.
3. T.Nafasov O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T.: 1988, - 398 b.
4. H.Hasanov O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T. "Fan", 1975. -B 41-51.
5. Sh.Rahmatullayev O'zbek tilining etimologik lug'ati. T. "Universitet" 2000, - 600 b.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MUSTAQILLIK DAVRI MOBAYNIDA JINOYAT PROTSESSI SOHASIDA SHAXSNI JINOIY JAVOBGARLIKKA TORTISH YOKI HUQUQNI IJRO ETISH UCHUN USHLAB BERISHDA INSON HUQUQLARINING AHAMIYATI

Nasrullayev Firdavs Suxrobovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish (ekstraditsiya) jarayonida inson huquqlarini himoya qilish, insonparvarlik, qonuniylik va asoslilik kabi huquqiy kafolatlarning amaliy ijrosi hamda shaxsni vaqtincha ushlab turish va qamoqqa olish bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinib, bu boradagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi hamda xalqaro majburiyatlarning samarali bajarilishi va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashuvi zarurligini asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: ekstraditsiya, inson huquqlari, jinoyat-protsessual qonunchilik, qonuniylik, insonparvarlik, ushlab turish, qamoqqa olish, huquqiy kafolatlar, xalqaro hamkorlik.

Bugungi kunga kelib chegara bilmas terrorizm, odam savdosi, narkotik moddalar savdosi, kiberjinoyat va boshqa shu turdagi jinoyatlar soni yil sayin ortish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Mazkur turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda mamlakatlarni birgalikdagi qarshi kurashishning yo‘li bu xalqaro hamkorlikdir. Jinoyat protsessi sohasida xalqaro hamkorlikning eng ko‘p tartibga solingan yo‘nalishlaridan biri bu shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish ***(ekstraditsiya)*** yo‘nalishidir. Xalqaro va milliy qonunchilik jadal rivojlanib borishi jarayonida hamda yangi normalarni qabul qilinishiga qaramay mavjud tartibga solishlar yetarli deb bo‘lmaydi. Jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun shaxsni ushlab berishda uning huquqlarini himoyasi bevosita bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, ushlab turish choralari qonuniylik, asoslilik hamda insonparvarlik prinsiplariga amal qilishini nazarda tutadi.

BMTning Nizomida mustahkamlangan bu tamoyil keyinchalik boshqa muhim xalqaro hujjatlar va shartnomalarda rivojlantirildi. Masalan, 1950-yil 4-noyabrdagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasi [1] 1-moddasida “Oliy shartnoma tomonlar o‘z yurisdiksiyasidagi har bir shaxsga ushbu Konvensiyaning I bo‘limida belgilangan huquq va erkinliklarni kafolatlaydilar”. Keltirilgan normadan ko‘rinib turibdiki, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish tamoyili universal xususiyatga ega: u munosabatlarning barcha sohalariga hamda davlat yurisdiksiyasi ostida.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ishlarini yuritish sohasida hamkorlik masalalari bo‘yicha xalqaro shartnomalar ishtirokchi davlatlarning, shu jumladan, jinoiy sud ishlarini yuritish doirasiga kiruvchi shaxslarga yuqori darajadagi huquqiy himoyani ta’minlash majburiyatini ham nazarda tutadi.

Jumladan, 1993 yildagi Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to‘g‘risidagi Konvensiyaning 1-moddasida shunday qoida mavjud “har bir shartnoma tuzgan tomonning fuqarolari, shuningdek, uning hududida istiqomat qiluvchi shaxslar boshqa barcha shartnoma tuzgan tomonlarning hududlarida ushbu shartnoma tuzgan tomonning o‘z fuqarolari bilan bir xil huquqiy himoyadan foydalanadilar” [2].

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy tartibga solishning muhim ahamiyatini tan olgan holda Ye.V.Bikova va V.S.Viskubning “Xalqaro konvensiyalar o‘z ichiga umumiy huquqiy yo‘nalishlar va tamoyillarni oladi, biroq, ularda nazarda tutilgan normalarning mazmuni va qo‘llanilish tartibi har bir shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan davlat tomonidan uning ichki qonunchilik normalari asosida belgilab amalga oshiradi” [3].

Professor I.I.Lukashuk “Inson huquqlari

bo‘yicha xalqaro huquq xalqaro huquqning tarmog‘i bo‘lib, uning prinsiplari va normalari inson huquqlarini ta’minlashda davlatlar hamkorligini tartibga solib turadi” [4] deb ta’kidlaydi.

N.Safarov ham “ekstraditsiya institutining shakllanishi muhim bir jihati – ushlab berish jarayonida inson huquqlarini so‘zsiz himoya qilish zarurligini” [5] ta’kidlab o‘tgan.

D.S.Dovudova ta’kidlaganidek, “Jinoyat ishlarini yuritishda qo‘llaniladigan tamoyillar – bu amaldagi qonun hujjatlarda belgilab qo‘yilgan umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda, jinoyat-protsessual faoliyatning mazmun va yo‘nalishini belgilaydigan, jarayonning turli bosqichlarida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga xizmat qiluvchi, fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan, huquqiy jihatdan umume’tirof etilgan asosiy qoidalar tizimidir” [6]. Yuqoridagi olimlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarga qo‘shilmaslik mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasida xalqaro huquq normalarini o‘z milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish orqali inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 13-moddasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 7-moddasida ham inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, uning qadr-qimmatini va kamsitilish maqsadini ko‘zlamaydi degan normalar bilan mustahkamlangan.

Jinoyat sudlov ishlarini yuritish tamoyillarida shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun topshirish institutiga bevosita bog‘liq. Jinoyat protsessida na gumonlanuvchi, na ayblanuvchi bo‘lmagan, biroq topshirilishi lozim bo‘lgan shaxslar sifatida jinoyat-protsessual munosabatlar doirasiga kiruvchi shaxslar ayrim protsessual harakatlarni (masalan, ushlab turish yoki qamoqqa olish kabi) amalga oshirishda gumonlanuvchi va ayblanuvchilarning huquqlaridan kam bo‘lmagan huquqlarga ega bo‘ladilar. Albatta, bu huquqlarni amalga oshirishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanliklari shubhasiz.

Xorijiy mamlakatning so‘roviga asosan ushlab beriladigan (ekstraditsiya) qilinayotgan shaxslarning huquqlarini ta’minlash masalasini ko‘rib chiqishda, ushbu shaxslar tomonidan quyidagi huquqlarni amalga oshirishda o‘ziga xos jihatlariga alohida e’tibor qaratish lozim, xususan uning shaxsiy daxlsizlik huquqi hamda zo‘ravonlik, qiynoq va boshqa shafqatsiz yoki insonning qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor bo‘lmaslik huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 18-moddasida mustahkamlangan shaxs daxlsizligi prinsipi, xususan, har qanday shaxsning ushbu kodeksda nazarda tutilgan qonuniy asoslar bo‘lmagan taqdirda ushlab turilmaslik yoki qamoqqa olinmaslik huquqini o‘z ichiga oladi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 65-bobi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun ushlab berish (ekstraditsiya) qilishni tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga oladi, ammo bunday shaxslarni ushlab turish tartibi haqidagi qoidalarni to‘liq tartibga solmaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 605-moddasida O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish uchun ushlab turish va qamoqqa olishda O‘zbekiston hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan tegishli tarzda rasmiylashtirilgan so‘rov olinganda, mazkur shaxsni ushlab berish uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, ushbu shaxsni ushlab turilishi va unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilishi mumkin.

Xorijiy davlat vakolatli organining iltimosnomasiga binoan, shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rov olinguniga qadar ham uni ushlab turilishi mumkinligi, shuningdek, iltimosnomada qamoqqa olish to‘g‘risidagi qarorga yoki qonuniy kuchga kirgan hukmga havola va mazkur so‘rovga qo‘shimcha ravishda taqdim etilishi ko‘rsatilishi belgilangan.

Shaxsni qamoqqa olish to‘g‘risidagi iltimosnoma ushbu so‘rov yuborilguniga qadar pochta, telegraf va boshqa aloqa vositalari orqali yetkazilishi mumkinligi, shuningdek, shaxs agar u boshqa davlat hududida uni ushlab berishga sabab bo‘ladigan jinoyat sodir etgan deb gumon qilish

uchun qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lsa, mazkur moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan iltimosnomasiz ham yetmish ikki soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Shaxs ushlanganidan keyin ichki ishlar organlarining yoki boshqa surishtiruv organlarining xodimlari olingan materiallarni prokurorga taqdim etadi va u materiallarni o‘rganib chiqadi hamda ushlab turilgan shaxsning qidiruv e’lon qilingan shaxs ekanligi to‘g‘risida yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, ushbu Kodeksning 603-moddasida bayon qilingan asoslar mavjud bo‘lmagan taqdirda, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risida iltimosnoma qo‘zg‘atish haqida qaror chiqaradi va uni sudga yuboradi.

Keyinchalik, esa Prokurorning qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnoma kiritadi va sudya tomonidan ko‘rib chiqilishi, ajrim chiqarilishi, shuningdek sudyaning ajrimi ustidan shikoyat berish yoki protest bildirish ushbu Kodeksning 241 va 243-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Shaxs qamoqqa olinganligi to‘g‘risida prokuror O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni qamoqqa olish haqida iltimosnoma yoki ushlab berish to‘g‘risida so‘rov yuborgan yoxud yuborishi mumkin bo‘lgan xorijiy davlatning vakolatli organini darhol yozma ravishda xabardor qiladi va o‘ziga nisbatan ushlab berish to‘g‘risidagi masala ko‘rilayotgan shaxsni qamoqda saqlab turish muddati ko‘pi bilan uch oyni tashkil etishligi belgilangan.

Mazkur muddat ushlab beriladigan shaxsning topshirilishini ta’minlash maqsadida, shuningdek xorijiy davlatning vakolatli organidan O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan shaxsni ushlab berish to‘g‘risidagi so‘rov yuzasidan qo‘shimcha ma’lumotlar talab qilingan hollarda ushbu Kodeksning 245-moddasi ikkinchi qismida va 247-moddasida nazarda tutilgan tartibda uzaytirilishi mumkinligi va qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqadi va sudga taqdim etilgan materiallarning asosliligini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalari talablariga rioya etilganligini hisobga olishligini ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur holatda xorijiy davlatning so‘roviga asosan ushlab turilgan shaxsning qonuniy manfaatlari va huquqlarini ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. Ushlab berish (ekstraditsiya) jarayonida inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, ushbu sohada huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash talab etiladi.

Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 230-moddasida ushlab turilgan shaxsni yaqin qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvga ushlab turilgan shaxslar saqlanadigan joyning ma’muriyati ushlab turish to‘g‘risidagi materiallar qaysi tergovchi yoki surishtiruvchining ish yurituvida bo‘lsa, faqat o‘sha tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsati asosida ijozat beradi, himoyachi bilan uchrashuv bundan mustasno deb ko‘rsatilgan. Xorijiy mamlakatning so‘roviga asosan ushlab turilgan shaxsni yaqin qarindoshlari hamda advokati bilan uchrashish uchun ruxsat berish masalasi ochiq qolmoqda.

Shu sababli, jinoyat-protsessual qonunchiligida shaxsni ushlab berishda insonparvarlik, qonuniylik va uning qonuniy manfaatlarini ta’minlash maqsadida, ushlagan shaxsning yaqin qarindoshlari hamda advokati bilan uchrashishga ruxsat berishni uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksning 230-moddasiga **“O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan xorijiy davlatning vakolatli organi tomonidan yuborilgan so‘roviga binoan, ushlangan shaxsning yaqin qarindoshlari hamda advokati bilan uchrashishga prokurorning ruxsati bilan ijozat beradi”** degan qo‘shimcha band bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytganda, ekstraditsiya instituti nafaqat jinoyat-protsessual faoliyatning tarkibiy qismi, balki inson huquq va erkinliklarini ta’minlashda juda muhim hamda mas’uliyatli soha sifatida baholanishi lozim. Ekstraditsiya jarayonida insonning sha’ni, qadr-qimmati, daxlsizligini ta’minlash orqali, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlarini samarali bajarish va dunyo hamjamiyati oldidagi obro‘sini mustahkamlashga, qonuniylik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish orqali muhim qadam qo‘ygan bo‘ladi.

Аннотация. В данной статье будут проанализированы проблемы, связанные с практическим исполнением правовых гарантий, таких как защита прав человека, гуманность, законность и обоснованность, а также временного содержания и содержания под стражей в процессе привлечения лица к уголовной ответственности или задержания (экстрадиции) для исполнения приговора, выдвинуты предложения по совершенствованию правовых механизмов в этой области, а также по эффективному выполнению международных обязательств. и обосновывается необходимость адаптации национального законодательства к международным стандартам.

Ключевые слова: экстрадиция, права человека, уголовно-процессуальное законодательство, законность, гуманность, задержание, заключение под стражу, правовые гарантии, международное сотрудничество.

Annotation. This article analyzes the practical implementation of legal guarantees such as protection of human rights, humanity, legality and validity in the process of holding a person for criminal liability or execution of a sentence (extradition), and the problems associated with temporary detention and imprisonment of a person, proposes to improve legal mechanisms in this regard, and justifies the need for effective implementation of international

Key words: extradition, human rights, criminal procedure legislation, legality, humanity, detention, imprisonment, legal guarantees, international cooperation.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://constitution.uz/uz/pages/humanRights 1950 йил 4 ноябрдаги Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларни ҳимоя қилиш тўғрисидаги Европа конвенцияси.
2. https://lex.uz/docs/2741652 1993 йилдаги Фуқаролик, оилавий ва жиноий ишлар бўйича ҳуқуқий ёрдам ва ҳуқуқий муносабатлар тўғрисидаги Минск конвецияси
3. Быкова Е.В. Новые возможности для России после ратификации Четвертого дополнительного протокола к Европейской конвенции о выдаче / Е.В. Быкова, В.С. Выскуб // Международное уголовное право и международная юстиция. – 2019. – № 4. – С. 14–18.
4. И.И.Лукашук Междунароное право. Особенная часть: Учебник.М., 2002 С.1.
5. Н.Сафаров Экстрадиция в международном уголовном праве: проблемқ теории и практики. М.; Волтерс Клувер, 2005.-С.7-8.
6. https://doi.org/10.5281/zenodo.13842441 Prosecutor of the General Prosecutor's Office, Doctor of Law, associate professor – 2024. 68-б.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA’MINLANISHI MASALALARI

Rahmanov Alimardon Abdulla o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti ofitseri

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida o‘zbekistonda millatlararo totuvlikni ta’minlanishi masalalari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik siyosatining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlanishiga doir amalga oshirilgan tizimli islohotlar tahlil etilgan. O‘zbekistonda turli millat vakillarining huquq va erkinliklari ta’minlanishining tarixiy ahamiyati misollar bilan ko‘rsatib berilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning millatlararo munosabatlar tizimiga yangicha ruhda yondashilganligi, totuvlikning ta’minlanishi va istiqboli masalalari qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: millat, millatlararo totuvlik, tolerantlik, YUNESKO, O‘zbekiston, milliy madaniyat markazlari, milliy madaniyat.

Ma’lumki, millatlararo bag‘rikenglik, ular orasida o‘zaro hurmat va do‘stona aloqalarni o‘rnatish orqaligina dunyoda barqarorlik, osoyishtalikni ta’minlashning asosiy omili sanaladi. Tolerantlik to‘g‘risidagi zamonaviy konsepsiya yaqindagina paydo bo‘lib, bu tushunchani shakllantirishda YUNESKO ko‘p kuch-quvvat sarfladi. Jumladan, 1995-yilda ushbu tashkilot tomonidan qabul qilingan “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi”da tolerantlik fuqarolik jamiyatining qadriyati va ijtimoiy normasi, deya ta’riflandi.

Shu o‘rinda Muhtaram yurt boshimiz Shavkat Mirziyoyevning qo‘yidagi fikrlariga e’tiborni qaratishimiz kerak: “Hech kimga sir emas, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida o‘zaro shafqatsiz raqobat, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, separatizm, millatchilik, radikalizm kabi tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ana shunday tahlikali vaziyatda mamlakatimizda yashayotgan turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, go‘zal diyorimizda barqaror va bardavom taraqqiyotni ta’minlash, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirish barchamizning, avvalo, rahbar va mutasaddilarning nafaqat vazifasi, balki muqaddas insoniy burchidir” [1].

O‘zbekistondagi barqarorlikni hamda davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilashda mamlakatda istiqomat qiladigan 136 dan ortiq millat va elatning o‘zaro totuvligi, rasman ro‘yxatdan o‘tgan 16 diniy konfessiya vakillari o‘rtasida bag‘rikenglik munosabatlarining o‘rni beqiyos.

Bu borada bugungi kunga qadar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5046-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5876-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-dekabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 1018-son qarori hamda boshqa da bir qator huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta’minlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan. Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik va madaniy-ma’rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining tashkil etilishi millatlararo totuvlik siyosatida yangi davrni boshlab berdi. Mazkur Qo‘mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng

targ‘ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do‘stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi [2]. Mamlakatimizda amalga oshrilayotgan millatlararo totuvlik siyosatidan ko‘zlangan maqsad – turli millat va elat vakillari o‘rtasida **do‘stlik va bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash hamda xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirishdan** iborat.

BMT Bosh assambleyasining qaroriga ko‘ra, 1997-yildan buyon 16-noyabr har yili butun dunyoda “Xalqaro bag‘rikenglik kuni” sifatida nishonlanib kelinadi. Bu sanani O‘zbekistonda nishonlash ham yaxshi an’anaga aylangan.

2019-yildan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mazkur sana O‘zbekistonda haftalik tarzida keng nishonlanib kelinmoqda.

Ta’kidlash joizki, yurtimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni ko‘z qorachig‘idek asrab avaylash bugungi globallashuv va axborot xuruji avj olgan bir paytda dolzarb masala hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlasak, el-yurtimiz o‘zining qadimiy o‘tmishi davomida shonli voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan.

Prezidentimiz 2020-yil Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida jamiyatimizda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilishiga alohida to‘xtalib, 30 iyul – “Xalqaro do‘stlik kuni” munosabati bilan yurtimizda 30 iyul “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etgani va ushbu tashabbus ko‘pmillatli xalqimiz tomonidan ko‘tarinki ruhda kutib olingani fikrimiz tasdig‘idir.

Jumladan, O‘zbekiston dunyoning turli davlatlari bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarni yanada mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib borayotganligi, bu jarayonda, xalq diplomatiyasidan ham unumli foydalanilayotganligi, mamlakatimizda barcha millat vakillari uchun o‘z madaniyati, urf-odatini asrab-avaylash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilganligi, bugungi kunda O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari faoliyatlari bilan xarakterlanadi.

Millatlararo nizolar davlatning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga tahdid tug‘diruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ko‘p millatlilik milliy-madaniy rang-baranglik bilan bir qatorda tafovut va farqlarni ham ifodalashini, bu o‘zaro tushunmovchilik uchun ham zamin yaratishi mumkinligini inobatga olsak, polietnik jamiyatda tanglik va nizoli vaziyatlar uchun imkoniyat obyektiv ravishda mavjud bo‘ladi.

Mamlakatimizda milliy o‘zlikni saqlab qolish, etnik qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq jarayonlarga, yaqin o‘tmishdagidan farqli ravishda millatchilikning o‘sishi deb emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaralmoqda va tegishli institutsional asoslar yaratilmoqda. Xususan, etnomadaniy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish, milliy urf-odatlar va an’analar rivojlanishiga har tomonlama shart-sharoit yaratish maqsadida Respublikadagi turli millatlarga mansub milliy-madaniy markazlar faoliyatiga keng yo‘l ochib berilganini qayd etish lozim.

Yurtimizda mavjud 10 mingdan ziyod maktabning 2 minga yaqinida qardosh tillarda ta’lim-tarbiya olib borilishi, o‘zbek tili bilan qo‘shib hisoblaganda 7 til(o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, tojik, turkman tillari)da dars o‘tilishi qonuniy ta’minlangani va mana shu yetti tilda davlat tomonidan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ham muntazam ravishda chop etib borilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Xususan, o‘rta va oliy ta’lim 7 ta tilda tashkil etilgani, milliy tillarda bog‘chalar, maktablar tizimini rivojlantirish, pedagogik kadrlar va zarur darsliklar bilan ta’minlash borasidagi ishlar tizimli olib borilayotganini ta’kidlash zarur. Oliy ta’lim tizimida esa o‘qish milliy tillarda olib boriladigan maxsus fakultet va bo‘limlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning 30 foizdan ortig‘i mustaqillik yillarida tashkil etilganini alohida qayd etish joiz. Teleko‘rsatuvlar 11, radioeshittirishlar 11 tilda olib borilayotgan bo‘lsa, 8 tilda jurnallar, 8 tilda gazetalar chop etilmoqda. Bu kabi misollar etnik qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan siyosatimizning amaliy nishonasidir. Tenglik va o‘zaro hamkorlik hayotiy-amaliy xarakter kasb etgan taqdirdagina milliy mansubligidan qati nazar, fuqarolarda Vatan taqdiriga daxldorlik, uning buguni va istiqboli yo‘lida hamjihat harakat qilish tuyg‘usi kamol topadi.

O‘zbekistonning milliy siyosat modeli uning tashqi siyosatida – BMT va boshqa xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlarning hamkorlik, tinchlik, etnik mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilish qaratilgan faoliyatiga mos siyosat olib borayotganida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan etnik bag‘rikenglikka asoslangan o‘zbek milliy siyosat modelining amaliy ifodasi mamlakatimiz hayotida tub ijobiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishga zamin yaratdi.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar vakillari o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik respublikamizdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omillaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Yagona va ko‘pmillatli xonadonimiz – jonajon O‘zbekistonimiz oldida barchamizning farzandlik burchimiz borligi ma’lum. Muqaddas o‘zbek diyorida yashovchi har bir kishi o‘zining ana shu burchini qalb qo‘ri, aql-idroki va iste’dodi bilan ado etishi ham qarz, ham farzdir.

Bu borada yaxlit, chuqur o‘ylangan siyosat va uni amalga oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hayotga tatbiq etilib, millatlararo va dinlararo totuvlikni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratilmoqda. Bu islohot va o‘zgarishlarning negizida konstitutsion huquq va kafolatlar yotganini alohida qayd etish lozim. Shundan kelib chiqib, bu borada quyidagi dalillarni keltirib o‘tish zarur.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining asosiy vazifalari qatoriga davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do‘stlik jamiyatlari bilan o‘zaro aloqasi va hamkorligini ta’minlash va yanada rivojlantirish kiritildi. Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va sivilizatsion merosi, ma’naviy-falsafiy ahamiyatini chuqur o‘rganish bo‘yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad — fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag‘rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish va uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat.

Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim o‘rin egallay boshladi. Hukumat xalqaro tashkilotlar hamda ushbu sohadagi mutaxassislar bilan konstruktiv muloqot va hamkorlik o‘rnatishga alohida e’tibor qaratmoqda.

Xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O‘zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta’minlash, e’tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslikka ko‘maklashishga qaratilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklif etilishi hamda ushbu hujjatning 2018-yil 12-dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

2020-yil 13-oktabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi sessiyasida bo‘lib o‘tgan saylovlarda O‘zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a’zoligiga uch yil muddatga – 2021-2023 yillarga saylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 davlatdan 169 tasi ovoz berganligi mamlakatimizda vijdon erkinligini ta’minlashda erishilgan ulkan tajribaga ko‘rsatilgan yuksak ehtiromdir. Ta’kidlash joizki, ushbu saylovda eng ko‘p ovoz berilgan davlat O‘zbekiston bo‘lganligi, yurtimizda millati va dinidan qati nazar, inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e’tirofidir.

Davlatimiz milliy siyosatining eng muhim, ustuvor yo‘nalishlaridan biri barcha millatlarning ravnaqi uchun teng sharoit va imkoniyat yaratishdan, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishdan iborat.

O‘zbekistonda millatlararo do‘stlik va totuvlik muhitini mustahkamlanishiga munosib hissa qo‘shgan mahalliy va xorijlik jismoniy va yuridik shaxslarning mehnatini munosib taqdirlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyundagi 335-sonli qaroriga asosan “Xalqlar do‘stligi” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 500 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoni berildi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining (2023-yil 11-sentabrdagi PF№158) beshta ustuvor yo‘nalishidan “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” (5) yo‘nalishida belgilab berilgan Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish (95-maqsad), Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga sifati jihatidan olib chiqish (91-maqsad)da barcha qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar yo‘nalishlardagi ikki va ko‘p tomonlama muzokaralarni muntazam va samarali olib borishga alohida e’tibor qaratadi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

PF-52-son Farmoni [4] hamda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-115-son Qarori [5] chiqqanligi O‘zbekistonda umummilliy totuvlikni ta’minlash va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishda muhim hujjat sanaladi.

Darhaqiqat, sohani tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi Farmon asosida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi tashkil etildi [6].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va o‘zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat vakillari o‘rtasidagi millatlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi.

Muxtasar qilib, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’biri bilan aytganda, “Barchamiz uchun Vatan bitta. Bizni yagona, ulug‘ bir maqsad birlashtiradi. U ham bo‘lsa, yurtimiz tinchligi, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligidir” [7].

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы обеспечения межнационального согласия в Узбекистане в годы независимости. Проанализированы системные реформы, проведенные в Узбекистане в связи с формированием и развитием политики межнационального согласия. Историческое значение обеспечения прав и свобод людей разных национальностей в Узбекистане показано примерами. В годы независимости сравнительно-исторически были изучены вопросы нового подхода к системе межнациональных отношений Узбекистана, обеспечения и перспективы гармонизации.

Ключевые слова: нация, межнациональная гармония, толерантность, ЮНЕСКО, Узбекистан, национальные культурные центры, национальная культура.

Annotation. This article will talk about issues of ensuring interethnic harmony in Uzbekistan during the years of independence. The implementation and development of the policy of interethnic harmony in Uzbekistan is analyzed by the systematic reforms carried out by the doi R. The historical significance of the provision of rights and freedoms of representatives of different nationalities in Uzbekistan is shown by examples. In the years of independence, the issues of a new spirit approach to the system of interethnic relations of Uzbekistan, the provision and perspective of harmony were studied in a comparative-historical way.

Key words: nationality, interethnic harmony, tolerance, UNESCO, Uzbekistan, national cultural centers, national culture.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://oyina.uz/kiril/posts/7795#:~:text=%D0%B1%D0%B0%D1%80%D0%BF%D0%BE%20%D1%8D%D1%82%D0%B0 (Мурожаат этилган сана: 3.07.2022.).
2. Алдаберганов И. миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик – бирдамлик омили https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=35743
3. “Ўзбекистон–2030” стратегияси (2023 йил 11 сентябрдаги ПФ№158). // Халқ сўзи, 2023 йил 12 сентябрь.
4. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.
5. https://lex.uz/uz/docs/-7438958 (Мурожаат этилган сана: 09.07.2025.).
6. Янги Ўзбекистон газетаси, 2025 йил 21 март.
7. https://oyina.uz/kiril/posts/7795#:~:text=%D0%B1%D0%B0%D1%80%D0%BF%D0%BE%20%D1%8D%D1%82%D0%B0 (Мурожжат этилган сана: 3.07.2022.).

MEHNATGA OID HUQUQLARNI HIMOYA QILISHDA KASABA UYUSHMALARINING ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH.

Eshonqulov Bunyodjon Maxamadalievich,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnatga oid huquqlarni himoya qilishda kasaba uyushmalarining ishtirokini takomillashtirish masalalari, davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi, davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi degan qoidaning belgilanishi mehnatga oid huquqlarni himoya qilishning milliy mexanizmlari qatorida davlatning bosh islohotchi ekanligi, xodimlarni mehnat huquqlarini amalga oshirishda moddiy va protsessual normalarni qo‘llash, bu boradagi xorijiy tajriba, mehnat huquqlarini ta’minlashda kasaba uyushmasining huquq va majburiyatlari, ularning maqomi, nizolarni hal etishda ishtirok etish tartiblari va shakllari, kelgusida ularni faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Xodim, ish beruvchi, davlat, sud, moddiy va protsessual norma, nizo, adliya organlari, prokuror, yakka tartibdagi mehnat nizosi,sudga murojaat qilish huquqi.

Har qanday demokratik davlatda fuqarolarning mehnatga oid huquqlarini ta’minlash va himoya qilish muhim ijtimoiy vazifa hisoblanadi. Mehnat huquqlarining samarali amalga oshirilishi va himoya qilinishi uchun davlat tomonidan huquqiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlar joriy etilgan.

Mehnat huquqlarini himoya qilish – bu ishchi va xodimlarning mehnatga oid qonuniy manfaatlari buzilganda ularni tiklash, huquqbuzarliklarni oldini olish va adolatni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bu jarayonda qonunchilik, sud tizimi, nazorat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari faol ishtirok etadi.

Jumladan O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining to‘qqizinchi bob, 43-moddasida davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘rishi, davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi degan qoidaning belgilanishi mehnatga oid huquqlarni himoya qilishning milliy mexanizmlari qatorida davlatning bosh islohotchi ekanligini belgilaydi.

Shuningdek, konstitutsiyamizning 44-moddasida sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi degan qoidaning mustahkamlanishi davlatning bosh islohotchi sifatida rolini oshirish bilan birga sud organlarining mehnatga oid huquqlarni himoya qilishning milliy mexanizmlari sifatida alohida maqomga ega ekanligini belgilaydi.

Aytish lozimki, mehnatga oid huquqlarni himoya qilishning milliy mexanizmlari tushunchasi va turlarini aniqlash uchun mehnat kodeksimizning “Xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish. mehnat nizolarini ko‘rib chiqish” deb nomlangan yettinchi bo‘limida belgilangan qoidalarni qo‘llashimiz maqsadga muvofiq.

Mehnat kodeksining 527-moddasiga muvofiq xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar, shuningdek mehnat shartnomalari shartlari buzilishining oldini olishni va (yoki) ularga barham berishni;

xodimning buzilgan huquqlarini tiklashni;

xodimning mehnat huquqlari buzilganligi munosabati bilan unga yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplashni va (yoki) ma’naviy ziyonni kompensatsiya qilishni;

xodimning mehnat huquqlarini buzganlikda aybdor ish beruvchilarning va boshqa mansabdor shaxslarning javobgarligini.

Shuningdek, Mehnat kodeksining 529-moddasi, birinchi qismiga muvofiq mehnat

huquqlarini himoya qilishning asosiy usullari quyidagilardan iborat ekanligi belgilangan:

xodimlarning mehnat huquqlarini o‘zi himoya qilishidan;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvidan;

mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratidan;

mehnat huquqlarining yarashtiruv-vositachilik tartib-taomillari orqali himoya qilishdan;

mehnat huquqlarining mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organlar tomonidan himoya qilishdan.

Yuqoridagilardan ko‘rishimiz mumkinki, mehnatga oid huquqlarni himoya qilishning milliy mexanizmlari deganda avvalo xodim o‘zining mehnatga oid huquqlarini o‘zi himoya qilishi tushuniladi, biroq bu o‘rinda ham xodimning o‘z huquqlarini himoyalashining asosiy kafolati davlat va u tomonidan qabul qilingan qonunlar asosida amalga oshirilishi istisno etilmaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek bu borada davlat bosh islohotchi sifatida mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati hamda tekshiruvlarini amalga oshirilishini ta’minlaydi. Shuningdek, bu boradagi mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnat huquqlarining mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organlar tomonidan himoya qilish, bir necha usul va vositalar orqali amalga oshiriladi. Albatta bunda ma’muriy tartibdan tortib, protsessual tartiblarning alohida qoidalari belgilangan.

Tadqiqotchi N.A.Knyazeva mehnat huquqlarini himoya qilish shakllarining tushunchasi va turlari masalasini tadqiq etish barobarida, xodimlarni mehnatga oid huquqlarini himoyalash mexanizmlari avvalo konstitutsiya normalarida, mehnat qonunchiligida belgilanishi, ularni amalga oshirish mexanizmlari va tartiblari alohida qonunchilik hujjatlarida ham moddiy huquq normasi, ham protsessual huquq normalarida belgilanishini, har qanday holatda milliy mexanizmlar bu sohada xalqaro huquq va normalardan ahamiyatli sanalishini, ularning qo‘llanish sohasiga ko‘ra ustuvorligini ta’kidlagan.

To‘g‘ri, biz ham bu borada N.A.Knyazevaning fikrlarini qo‘llab-quvvatlaymiz, chunki mehnatga oid huquqlarni himoya qilishda milliy mexanizmlar xalqaro mexanizmlarga nisbatan chukli va samarali bo‘lishi talab etiladi, aslida milliy mexanizmlarning vujudga kelishiga xalqaro usul va vositalar turtki bo‘lgan bo‘lsada, biroq har bir demokratik yoki ijtimoiy davlat milliy mexanizmlar orqali xodimlarni himoyalashning ko‘p qirrali usul va vositalaridan foydalanadi.

Mehnatga oid huquqlarni himoya qilishda keng qamrovli jarayon sanalib, konstitutsiya va mehnat kodeksi normalari asosiy mexanizmlarning poydevori sanalib, vakolatli organlar va tashkilotlarning bu boradagi funksiya va vazifalari maxsus qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Mehnat munosabatlari va ushbu munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar shu darajada murakkabki, mazkur munosabatlar qaysi hollarda moddiy huquq normasi bilan, qanday hollarda esa protsessual normalar bilan tartibga solinishini belgilash o‘ziga hos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Hatto yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida ham mehnat munosabatlarini tartibga solish, yoki kelib chiqqan nizolarni hal etishning aniq mexanizmlari belgilanmagan.

Mazkur nizolarning alohida xususiyatlaridan yana biri, bu boradagi nizolarda taraflarning huquq va manfaatlarini himoyalashga vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tizimining kengligidir.

Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 559-moddasiga muvofiq xodim yoki kasaba uyushmasi qo‘mitasi, davlat mehnat inspeksiyasining mansabdor shaxslari, ish beruvchi, u mehnat nizolari bo‘yicha komissiyaning qaroridan norozi bo‘lganda, shuningdek o‘ziga xodim tomonidan yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplash haqidagi nizolar bo‘yicha, qonunchilikda belgilangan tartibda adliya organlari, prokuror yakka tartibdagi mehnat nizosining ko‘rib chiqilishi uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Mazkur ro‘yxat 1995 yilda qabul qilingan Mehnat kodeksiga nisbatan kengayganligini ko‘rishimiz mumkin, chunki unda 268-moddaning talablariga muvofiq faqatgina to‘rtta organ vakolatli sanalsa, ya’ni avval adliya organlari mazkur ro‘yxatda mavjud emasdi, endilikda adliya organlariga ham mazkur turdagi nizolar yuzasidan sudga murojaat qilish huquqi berildi.

Xodimlarni mehnatga doir huquqlarini himoyalashda kasaba uyushmalarining huquqlari, vakolatlari davlat organlariga nisbatan keng va

xilma-xil sanaladi.

Avvalo mazkur masalaning nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ladi.

Tadqiqotchi L.I.Antonova kasaba uyushmalari faoliyatining eng muhim yo‘nalishi bu xodimlar manfaatini himoyalash, ayniqsa sudda munosib himoya funksiyasini amalga oshirishi lozim, bunday vaziyatlarda xodimga eng maqbul himoya vositalari faqatgina kasaba uyushmalari tomonidan berilishi mumkin. Buning uchun esa avvalo kasaba uyushmalari tomonidan eng birinchi vazifa sifatida sudlov ishlarida xodimlarni yetarli darajada himoyalash yo‘lga qo‘yilishi, vakolatli xodimlar esa kerakli bilim va malakaga ega bo‘lishi, shuningdek ular barcha zaruriy vositalar bilan ta’minlangan hamda ularning oylik ish haqlari yetarli darajada bo‘lishi lozim, shundagina ular bor kuch bilim va mahorati bilan xodimlarni himoyalashni amalga oshira oladi. Afsuski ayrim hollarda kasaba uyushmalari xodimlarni himoyalashga nisbatan ularga ijtimoiy-ma’naviy hamda madaniy tadbirlar tashkil qilish bilan cheklanib qolishadi, shuning uchun ham xodimlar aksariyat vaziyatlarda bunday kasaba uyushmalari yordamidan voz kechib advokatlarga murojaat qilish holatlari mavjud degan qarashni ilgari suradi.

Tadqiqotchi L.I.Antonovani fikrini qo‘llab quvvatlab aytishimiz mumkinki, barcha kasaba uyushma qo‘mitalari tomonidan xodimlar manfaati yetarli darajada sudlov ishlarida himoyalanmoqda deb ayta olmaymiz. Haqiqatda ham kasaba uyushmalari tomonidan ijtimoiy-madaniy tadbirlar keng darajada tashkil etiladi, biroq mazkur tadbirlarning ham zaruriy taraflari mavjudligini unutmaslik kerak. Bunday tadbirdlar sirasiga xodimlarni sport-sog‘lomlashtirish va sayyohlik tadbirlari ham mavjud bo‘lib, bu bizning mamlakatimizda davlat dasturlari ijrosi bilan bog‘liq jihatlarni ham qamrab oladi.

Ta’kidlash kerakki kasaba uyushma organlarining faoliyati samaradorligi unda faoliyat yuritayotgan xodimlarning bilim darajasiga bog‘liqligi va ular o‘z haq huquqlarini amalga oshirish mexanizmlaridan samarali foydalanishlari bilan chambarchas bog‘liq. Masalan Rossiyaning Primor o‘lkasining Pojarsko tumanida faoliyat yurituvchi Luchegorsk yonilg‘i-energetika kompleksining boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi ish beruvchi tomonidan birinchi instansiya sudiga xodimlar oylik ish haqlarini oshirish, ish vaqtining minimal miqdorini belgilash, qo‘shimcha ishlagan vaqtlar uchun oshirilgan miqdorda ish haqlari to‘lash yuzasidan murojaati qanoatlantirilmaganligi yuzasidan murojaat qilgan va birinchi instansiya sudi da’vo talablarini rad qilgan. Biroq kasaba uyushmasi mazkur talab bilan Oliy sudga murojaat qilish orqali o‘zlari va ish beruvchi o‘rtasida tuzilgan jamoa shartnomasida mazkur holat yuzasidan kasaba uyushmasi yozma tushuntirish olish va muzokaralar olib borish huquqi mavjudligini isbotlab berishi natijasida yuqori turuvchi sud birinchi instansiya qarorini bekor qilib, ish beruvchiga kasaba uyushmasi bilan tuzilgan jamoa shartnomasi talablariga rioya etish majburiyatini yuklagan.

Mazkur holatda kasaba uyushmasining aql bilan qilgan murojaati natijasida ish beruvchida endilikda kasaba uyushmasi bilan muzokara olib borish va natijasi yuzasidan yozma axborot berish majburiyati vujudga kelgan, bundan ko‘rinadiki, endilikda kasaba uyushmasi xodimlar vakillik organi talablarini yozma ravishda rad qilsa kelgusida rad qilish sabablarini sudda isbotlab berish majburiyati vujudga keladi.

Mariya Xelena ANDRE, MOTning ishchilarning bandligi bo‘yicha byurosi direktorining ta’kidlashicha kasaba uyushmalariga so‘ngi yillarda ayollar jamoalarining a’zoligi ortishi natijasida ayollar huquqlarini ta’minlashning yangi mezonlari va mexanizmlari yaratilishiga turki bo‘lmoqda, biroq kasaba uyushmasiga a’zolik masalasida hanuzgacha geografik omillarning ta’siri saqlanib qolmoqda, masalan, Yevropada ishchilarning faqatgina 1% kasaba uyushmasiga a’zo bo‘lmagan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Markaziy Afrikada 32%, Burundida hatto 79%ni tashkil qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasining 73-moddasida kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etishi va himoya qilishi mustahkamlangan. Aytib o‘tish kerakki biror bir jamoat birlashmasida kasaba uyushmalarining yuqoridagi kabi konstitutsiyaviy vakolati mavjud emas.

To‘g‘ri, O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida»gi Qonunining 3-moddasida jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va himoya qilishga oid huquqlari mustahkamlangan bo‘lsada,lekin bu kasaba uyushmalarida bo‘lgani kabi konstitutsiyaviy vakolat mavjudligini anglatmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to‘g‘risida»gi Qonunining 27-moddasida xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish masalalarini hal qilishda ishtirok etishga bo‘lgan huquqi sifatida

kasaba uyushmalari, ularning birlashmalari, bo‘linmalari va boshlang‘ich kasaba uyushmalari tashkilotlari aholi bandligini ta’minlash, ishdan ozod etilayotgan xodimlarni himoya qilish masalalarini, shuningdek xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir boshqa masalalarni hal qilishda ishtirok etish hamda xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilib sudga da’vo arizasi, shuningdek sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qilishga haqli ekanligi belgilangan.

Aytib o‘tish kerakki, mazkur norma konstitutsiyamizning 73-moddasidagi kafolatni amalga oshirishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri mexanizmi sanaladi, biroq bu degani kasaba uyushmalarining xodimlarning huquqlarini himoyalash mexanizmlari shu bilangina cheklanadi degan qarashni keltirib chiqarmaydi.

Chunki, kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga solishga oid qonun talablariga muvofiq, ular normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etishga bo‘lgan huquq, jamoa muzokaralarini olib borishga hamda jamoa shartnomalari va kelishuvlarini tuzishga bo‘lgan huquq, bandlikka ko‘maklashish sohasidagi huquqlar, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi huquqlar, axborot olishga bo‘lgan huquq, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlar, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish sohasidagi huquqlar, mehnat nizolarini ko‘rib chiqishda xodimlarning manfaatlarini himoya qilishga bo‘lgan huquq, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzishda va ularning ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga bo‘lgan huquqlarni amalga oshirish orqali ham xodimlarning huquqlarini himoyalashni amalga oshirish huquqi mavjud.

Shuningdek, kasaba uyushmalarining xodimlarni huquqlarini himoyalashga oid qoidalar nafaqat maxsus qonun bilan balki, boshqa bir qator qonunlar bilan ham mustahkamlangan. Masalan O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi (yangi tahriri) Qonunining 31-moddasi ikkinchi qismida muvofiq kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari, shuningdek xodimlarning o‘zi mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vakil etgan shaxslarning bir qator huquqlari mustahkamlangan. Jumladan, mazkur qismning to‘qqizinchi xatboshisida kasaba uyushmalari mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mayib bo‘lishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishi uchun hamda xodimlarning sog‘lig‘i va mehnati muhofaza qilinishiga bo‘lgan huquqlari cheklangan boshqa hollarda xodimning huquqlarini himoya qilib sudga murojaat etish huquqiga egaligi mustahkamlangan.

Yana bir muhim masala borki kasaba uyushmalari sudda ishtirok etayotgan vaqtlarida protses ishtirokchisi sifatidagi maqomining turlicha ekanligidir. Agar u xodim manfaatidan kelib chiqib da’vo qo‘zg‘atgan bo‘lsa manfaatdor shaxs sifatida da’vogar huquqlaridan foydalanishi mumkin, biroq sudning tashabbusi bilan chaqirilganda FPK 52-moddasi ikkinchi qismi tartibida sudga chaqirilganida uning maqomi qandayligi aniq emas, chunki ushbu norma o‘z nomidan davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarni nazarda tutmoqda, bu normaning talablari esa kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunning 27-moddasida belgilangan vakolatlarga nisbatan boshqacha pozitsiyani belgilaydi.

Bizningcha qonunchilikda kasaba uyushmalarini xodim manfaatlariga qarama qarshi bo‘lgan sud ishlariga odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar sifatida jalb qilish amaliyotini cheklashga qaratilgan normalar kiritish vaqti keldi, chunki ularni faoliyatining asosiy moddiy manbai xodimlarning a’zolik badali evaziga shakllantirilar ekan bunday amaliyot ular faoliyatini samaradorligiga putur yetkazadi.

Fikrimiz isboti sifatida 2020 yil 11 noyabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining VIII-3-sonli qurultoyi qarori bilan tasdiqlangan 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan strategik yo‘nalishlari belgilab olingan bo‘lib, mazkur ustuvor yo‘nalishlarning Norma ijodkorligi ishlarida ishtirok etish va mehnatkashlarning huquqiy himoyasini ta’minlash sohasida Federatsiyaning huquqni himoya qilish sohasidagi faoliyati xodimlarning fuqaro sifatidagi huquq va erkinliklariga, mehnatga oid huquqlariga rioya etilishini hamda kasaba uyushmalari mustaqilligini ta’minlashga yo‘naltirilgandir deb belgilanganligini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Bu borada Federatsiya va unga a’zo tashkilotlar faoliyatini mustahkamlash, takomillashtirish va mehnat qonunchiligini isloh qilish, jumladan, Mehnat kodeksi va kasaba uyushmalari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda, xodimlar va kasaba uyushmalarining huquqlari saqlanib qolishi va kengaytirilishiga erishib borishi belgilangan.

Kasaba uyushmalarining xodimlar manfaatiga doir eng muhim faoliyati xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish holatlarida kuzatiladi.

Ta’kidlash joizki, avval amal qilgan MQK

ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni albatta kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan kelishib olishni nazarda tutardi va bunday kelishib olish talab qilinmaydigan hollarning mukammal ro‘yxatini qayd qilgan edi.

1995 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 101-moddasining 1-qismi va “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 30-moddasi mazmunidan kelib chiqib, aytish mumkinki, agar jamoa kelishuvi yoki jamoa shartnomasida ish beruvchi tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining oldindan roziligini olish nazarda tutilgan bo‘lsa, shartnomani bunday rozilikni olmay turib bekor qilish noqonuniy hisoblangan.

Kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish masalasi bo‘yicha qabul qilgan qarori haqida ish beruvchiga yozma ravishda xabar berishi kerak, bunday xabar mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsning yozma taqdimnomasi olingan kundan boshlab o‘n kunlik muddat ichida ma’lum qilinadi. Ish beruvchi kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlar boshqa vakillik organining xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga rozilik berish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay, mehnat shartnomasini bekor qilishga haqlidir. Shu o‘rinda, rozilik berilmagan taqdirda vakillik organi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan ish beruvchi sudga shikoyat qilishga haqlimi degan savol yillar davomida o‘z yechimini topmadi.

Bu qaror tegishincha xodimlarning yuqoriroq vakillik organi yoki mehnat jamoasining umumiy yig‘ilishi (konferensiyasi) tomonidan o‘zgartirilishi ham, bekor qilinishi ham mumkin emas. Shu bilan birga, ish beruvchi uning iltimosi rad etilishiga asos bo‘lgan sabablar bartaraf etilganidan keyin, albatta, mehnat shartnomasini bekor qilishning qonuniy asoslarini saqlagan holda, yana o‘sha iltimos bilan vakillik organi yoki mahalliy mehnat organiga takroran murojaat etishga haqlidir .

Tadqiqotchi M.R.Toshov o‘zining tadqiqot ishida ish beruvchi tomonidan taqdimnoma asoslantirilgan bo‘lsada, kasaba uyushmasining roziligisiz xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risida qarorni qabul qila olmaydi, agarda bu kabi qaror qabul qilinsa xodim g‘ayriqonuniy ishdan bo‘shatilgan deb hisoblanadi. Har doim ham kasaba uyushmalari qonuniy qaror qabul qilishi mumkin emasligini hisobga olgan holda mazkur holatga ish beruvchi huquqining cheklanishi sifatida baho berilishi lozim deb hisoblaymiz. degan qarashni ilgari suradi.

Ayni vaqtda bu amaliyotda bir qator muammoli vaziyatlarni vujudga keltirganligi sababli, yangi MKning 164-moddasi uchinchi qismi quyidagi yangi mexanizm kiritildi: “Kasaba uyushmasi qo‘mitasi xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga roziligi masalasi bo‘yicha qabul qilingan qaror haqida mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxsning yozma taqdimnomasi olingan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddatda ish beruvchiga xabar qilishi kerak. Agar ko‘rsatilgan muddat tugaganidan keyin kasaba uyushmasi qo‘mitasi qabul qilingan qaror haqida xabar qilmasa, ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ushbu Kodeksda belgilangan tartibda kasaba uyushmasi qo‘mitasining roziligisiz bekor qilishga haqli.”

Biroq fikrimizcha ushbu yangi mexanizmning ijobiy jihatlari bilan birga kelajakda o‘ziga xos muammolarini ham vujudga keltirishi mumkin. Ya’ni boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi rahbari kasal bo‘lib qolishi yoki saylangan kasaba uyushma qo‘mitalaridan bir nechtasi bo‘lmasligi sababli kvoriumning yig‘ilmasligi yoki korxona rahbari va kasaba uyushma qo‘mitasi rahbarining o‘zaro kelishuvi bilan taqdimnoma kasaba uyushma a’zolariga ma’lum qilinmasligi kabi holatlar nazarda tutilmaganligi kelgusida ish beruvchi va xodimlarning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Fikrimizcha, yangi MKning 164-moddasi uchinchi qismi quyidagi mazmundagi qo‘shimcha bilan to‘ldirilsa, kelajakda asossiz ravishda mehnat shartnomasini bekor qilish va ishga tiklash to‘g‘risidagi nizolarning vujudga kelishini oldi olingan bo‘lar edi:

“Agar ko‘rsatilgan muddat tugaganidan keyin kasaba uyushmasi qo‘mitasi qabul qilingan qaror haqida xabar qilmasa, ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ushbu Kodeksda belgilangan tartibda kasaba uyushmasi qo‘mitasining roziligisiz bekor qilishga haqli, ushbu muddat uzrli sabablar bilan o‘tkazib yuborilgan holatlar bundan mustasno.”

Shuningdek, kasaba uyushmalari tomonidan mehnatga oid huquqlarni himoyalashda yangi qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish, bu borada Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va unga a’zo tashkilotlar bilan kelishishni majburiy tartibini belgilash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Normativ huquqiy-hujjatlar to‘g‘risida”gi

qonuning "Normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy ekspertizasi" deb nomlangan 26-moddasini uchinchi qism bilan to'ldirish va ushbu qismni quyidagi tahrirda:

"Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari xodimlarning yoki ularning huquq va manfaatlariga, yoinki mehnat munosabatlarini tartibga solishga, o'zgartirish yoxud qonun hujjatlarida belgilanganiga nisbatan o'zgacha tartibni belgilashga qaratilgan hollarda kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari esa hududiy kasaba uyushma organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi shart." bayon etish taklif etiladi.

Abstract: This article examines the issues related to improving the participation of trade unions in the protection of labor rights. It emphasizes that the state is obliged to ensure employment for citizens, protect them from unemployment, and take measures to reduce poverty. The article also establishes the principle that the state organizes and encourages vocational training and retraining of citizens, positioning it as the main reformer among the national mechanisms for protecting labor rights. Special attention is given to the application of substantive and procedural norms in the implementation of workers' labor rights. The article analyzes foreign experience in this area and reveals the rights and responsibilities of trade unions in ensuring labor rights, their status, and the procedures and forms of their participation in resolving labor disputes. The prospects for further improvement of trade union activities are also discussed.

Keywords:Employee, employer, state, court, substantive and procedural norms, dispute, justice authorities, prosecutor, individual labor dispute, right to appeal to court.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н. А. Князева. Понятие и виды форм защиты трудовых прав работников / Вестник ВГУ. Серия: Право. 2012. № 2. – С 362-371.

2. Антонова Л.И. Оспаривание профсоюзами нормативных правовых актов в суде / Государство и право. Ученые записки СПб филиала РТА № 4 (56) 2015.

3. https://profagro.ru/activity/protection/obzor-sudebnoy-praktiki.php.

4. М.Х. АНДРЕ. How are trade unions adapting to changes in the world of work? / ILO home About the ILO How the ILO works Organizational structure Bureau for Workers' Activities (ACTRAV) News and articles. https://www.ilo.org/actrav/media-center/news/WCMS_883756/lang--en/index.htm

5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-сон

6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.12.2019 й., 03/19/588/4115-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-со

7. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 22 сентябрдаги ЎРҚ- 410-сонли «Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги (янги таҳрири) Қонуни. https://lex.uz/docs/3031427.

8. 2020 йил 11 ноябрь куни бўлиб ўтган Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерациясининг VIII-3-сонли қурултойи қарори билан тасдиқланган "Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерациясинин2021-2025 йилларга мўлжалланган стратегик йўналишлари тўғрисида"ги қарори. https://kasaba.uz/wp-content/uploads/2022/05/VIII-3-Qurultoy-qarori-stratyunalish.pdf.

9. Тошов.М.Р. Ходимнинг айбига боғлиқ бўлмаган асосларга кўра иш берувчи ташаббуси билан меҳнат шартномасини бекор қилиш. 12.00.05 – Меҳнат ҳуқуқи. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи ихтисослиги бўйича юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент 2022 й. –Б. 108.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat maqola mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 16,75. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 15.08.2025 y. Buyurtma № 560.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024